



УДК:847.284

Шахноза АСҚАРОВА,
Тошкент давлат шарқишунослик университети ўқитувчиси
E-mail: rtaskarov@mail.ru

филология фанлари номзоди, доцент Х.М.Мухамедова тақризи асосида

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ ТАҚРОРИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФОНОГРАФИК ВОСИТАЛАР

Аннотация

Мақолада нутқда такрорнинг ифодаланиши қадимий усуллардан, кироатхонлик, ибодат жараёнларида, лапар айтиш ва шеърятда ундан кенг тарзда фойдаланилганлиги шунингдек, такрор айрим дуолар ифодаси, халқ оғзаки ижоди, айникса, аллалар айтишда қўлланилган.

Калит сўзлар: Нутқ, товуш, сўз, сема, фонема, морфема, лексик бирликлар, шеърый мисралар, жумлалар, қаторлар.

PHONOGRAPHIC TOOLS RELATED TO WORD REPETITION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

In the article, the expression of repetition in speech is an ancient method, it is widely used in recitation, praying, singing folk songs and poetry, as well as repetition is used in the expression of some duas, folk oral creativity, especially in the songs when we go to sleep (Alla).

Key words: Speech, sound, word, sema, phoneme, morpheme, lexical units, poetic lines, sentences, lines.

ФОНОГРАФИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА, СВЯЗАННЫЕ С ПОВТОРЕНИЕМ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье выражение повторения в речи является древним приемом, он широко используется в декламации, молитве, пении и поэзии, а также повторение используется в выражении некоторых молитв, народном устном творчестве, особенно в распевах Боги.

Ключевые слова: Речь, звук, слово, сема, фонема, морфема, лексические единицы, поэтические строки, предложения, строки.

Кириш. Такрорий нутқ онгу шуурга сингиб боради, яъни амалий аҳамиятга эга лексик бирлик ҳисобланади. Шу боис ҳам лексик жиҳатдан такрор кенг тарқалган стилистик услублардан биридир. У турли жанрлар, ранг-баранг асарлар ҳамда ҳар хил матнларда учрайди. И.Р.Гальперин таъбири билан айтганда, такрор – маълум ифода, абзац ёки матндаги сўз, сўз бирикмаси ё гапнинг айнан қайтарилишидир. Демак, таъкидлаш мумкинки, нутқдаги такрор воситаси бадий асар жанрларининг турли қўринишларида нутқ эффеқтин ҳосил қилувчи мустаҳкам бирлик ҳисобланиб, семантик ва функционал ўзига ҳосликни ифода этади. Бизнингча, лексик такрорни таъкид этиш муаммоси ўз ечимини тўлалигича топмаган бўлиб, жумлалар орасидаги алоқа воситаси тил қонуниятига асосланиши, яъни муҳим бирлик сифатида матндаги ифодавий семантик алоқа ундаги миқдорий белгилар билан ҳар хил нутқ турига асосланган матнларда коммуникатив функцияни бажариши билан алоҳида аҳамиятга эга бўлади.

Метод ва методология. Такрорнинг товуш такрори, антоним такрор каби турлари ҳали кенг ёритилмаган бўлиб, даставвал бу терминга аниқ таъриф бериш керак. Лексик такрор деганда, В.Г.Гакнинг фикрига кўра, ўхшаш ёки бошқа-бошқа тил бирликларининг атайин бир марта қўлланиши билан қутилаётган маъно англашилмаганда, уларнинг формал ёхуд семантик тарзда икки ва баъзан ундан ортиқ (бир гап, абзац ёки бутун бир матн таркибида) қўлланишига асосланган матн ифодаловчи усул тушунилади.

Матнда такрорни аниқлаш учун қуйидаги белгилар инобатга олиниши керак бўлади (бунда барча хусусиятлар мавжудлигини кўрсатиш муҳим ҳисобланмайди): ўхшаш

ёки қарама-қарши ифода ёхуд маъновий ногўлиқлик, функционал-грамматик мутаносиблик, такрорланувчи компонентлар жойлашувидаги синтактик бир хиллик. Такрор воситаси фонетика, лексика, морфология ва синтаксисда қўлланилади. Демак, сўз, сема, фонема, морфема, лексик бирликлар, шеърый мисралар, жумлалар, қаторлар, умуман, мавзу ҳақида фикр юритиш имконини беради. Товуш такрори – тил фаоллиги ҳодисаси бўлиб, унинг юзага келиш ёки келмаслиги тўлалигича шеърый оҳангли матнга боғлиқ бўлади.

Таъкидлаш жоизки, алоҳида аҳамиятга молик семантик ва эмоционал тарзда ифодаланувчи сўз такрорларда яширинган бўлиб, уни тўлиқ тушунишда сатирик тасвир ва маъно кучайтирилиб, шеърдаги умумий кайфиятни тасвирлаш мақсадида қўлланилади. Лексик такрор мулоқот нутқини ташкил этиш усули бўлиб, у ёки бу лексик-синтактик бирликнинг тузилмавий жиҳатдан аниқ функцияни бажаришидир.

Тил тизими бирликлари воситасида инсонларнинг тевакар-атрофга бўлган муносабати ва турли кечинмалари ифодаланади. Бадий асарда эса ёзув орқали руҳий ҳолатни ифодалаш анча мушкулдир. Дарвоқе, ўзбек ва инглиз тилларидаги бадий асар қаҳрамонлари руҳиятидаги ички ҳаяжон, хурсандлик, хафа бўлиш, розилик, таажжуб, ялиниш, хайратланиш, олқиш, сўроқ, таъкид, норозилик каби ҳолатларни тасвирлашда, шунингдек, белги-ҳолатнинг ортиқ-камлик даражасини таъкидлашда ёзувчилар унли ёки ундошларни бирдан ортиқ ёзиш усули – фонографик воситалардан фойдаландилар. Бунда тегишли товуш поэтик таъкид олади. Масалан: Отабек мастларча қулди:

– Ммменга зарурати бўлмаса кккимга бор?! (А.Қодирий. Ўтган кунлар)

Узо-оқ йўл, аҳйо-онда бир келади, қато-ор иморатлар, ўйла-аб турсам, дунёни иши кизик (А.Мухтор).

Улар нуткни ташкил қилиш босқичларини олдиндан билишга имкон беради. Булар:

Тўлдирувчи (тузатувчи) такрорлар тўсатдан пайдо бўладиган нутқда тез-тез учраб туради. Улар ўзида парадигматик элемент билан қисман алмашинувчи такрорларни мужассамлаштиради.

Турланувчи репризалар тузатишларни сўзловчи нутқда синтагматик элементнинг қўшилиши, ўзгариши ёки йўқ бўлиши билан тўлдиради. Улар маънони ажратади ва риторик функцияни бажаради.

Ассоциатив репризалар – турли-туман вариацияли лексик ҳамда морфологик мулоҳазалар билан келувчи такрорлар бўлиб, П.Нобили уларни “ассоциатив анафоралар” билан таққослайди. Демак, илк элементга бирор янги элемент йўлланса, улар узлуксиз ҳаракатни хис қилиш оқибатида юзага келади.

Ассоциатив репризалар семантик муносабатнинг ҳар хил турларига асосан синонимия, гиперонимия, гипонимия, даражаланиш, антонимия каби турларга бўлинади. Шундай қилиб, формал, дискурсив ва риторик мезонларга асосланиб, П.Нобили нутқда такрорнинг саккиз турини ажратди. Унинг фикрича, улар риторик, дискурсив, прагматик, стилистик, коммуникатив каби функцияларни бажаради.

Шуни таъкидлаш мумкинки, такрорланаётган ҳарф, бўғин, сўз, сўз бирикмаси ёхуд гап бўлишдан қатъий назар улардан тингловчига нисбатан кучлироқ таъсир кўрсатиш, унда маълум воқеа-ҳодисага нисбатан хис-туйғуларни уйғотиш учун кенг тарзда фойдаланилади. Мисол тариқасида айтиш мумкинки, такрор мусиқа ва такрорланувчи мусиқий жумлаларнинг оҳангдор, таъсирчан ва жозибатор бўлиши, уларнинг тингловчи томонидан осонлик билан қабул қилинишида муҳим стилистик восита ҳисобланади. Демак, ўзбек ва инглиз тилларида лексик такрор – синтактик воситалар ичида маъно кучайтиришда фаоллик касб этади. Зотан, бу восита нафақат ёзма нутқ, балки оғзаки нутқда ҳам кенг тарзда қўлланилади.

Такрор таснифига назарий ёндашув. Такрор матн таркибидagi ўрни – бир-бирига нисбатан жойлашуви, такрорланувчи бирликлар компонентлари сони, такрорланувчи бирликларнинг сифатига кўра турларга бўлинади.

Такрорнинг юқорида қайд этилган белгиларига асосланиб, унинг бир неча асосий турларини келтириш мумкин:

1) такрорланувчи тил бирликларининг характери – товуш, алоҳида морфема, сўз, фразеологизмлар, турғун иборалар, морфологик шакллар, лексик блоklar, синтактик конструкциялар такрори;

2) матн таркибидa бир-бирига нисбатан жойлашуви белгисига кўра контакт ва дистант;

3) композицион вазифалари бўйича анафорик, ҳалқа, эпифорик, сатр, банд (шеърят);

4) матнда икки, уч ва кўп марта келувчи такрорларга;

5) такрорланувчи бирликлар сифатига кўра – тўлиқ ва қисман такрорларга ажратилади.

Тадқиқотчиларнинг фикрларига кўра такрор тушунчасини аниқлаш муҳим муаммолардан бири ҳисобланади. Ҳозирга қадар олимлар томонидан қатор тадқиқотлар яратилганига қарамай, такрорни аниқлашда умумий, ягона фикрга келинмаган. Бир гуруҳ олимлар

“такрор алоқа бирлиги сифатида намоён бўлиб, унинг вазифаси матнда структур-семантик ва композицион хусусиятлар асосида аниқланади”, дея эътироф этадилар. М.К.Морен ва Н.Н.Тетерниковалар эса “...такрор – сўз ёхуд сўзлар гуруҳининг онгли тасвирлиниши (...повтор – сознательное воспроизведение слова или группы слов)” тарзида таъриф беришган. Мазкур концепциядаги муҳим жиҳат шундан иборатки, такрор ўзида нафақат сўз ёки сўз бирикмаси такрорини акс эттиради, балки билишнинг алоҳида жиҳатларини, тасодифан бўлмаган

Ш.Балли такрорни оғзаки спонтан нутқда тадқиқ этиб, уни юзага келтирувчи бир қатор сабабларни аниқлади. Авваломбор, у шуни тасдиқлайдики, нутқда такрорнинг вужудга келтирувчи муайян таъсир ташқи объектив ҳолатга боғлиқ бўлиб, гапирувчининг эмоционал ҳолати бундан мустасно. Мисол учун, мулоқот мобайнида суҳбатдош ўзига йўналтирилган информацияни тушунмаган ёки эшитмаган ҳолда уни такрорлашга тўғри келади.

Такрор барча сўз туркумлари билан ифодаланиши мумкин, бироқ биз ишимизда сўз туркуми асосида от билан ифодаланган такрорларни тадқиқот объекти сифатида танладик. Бунда от сўз туркуми асосида ифодаланган такрорнинг частотаси, статистик ҳисоб-китобни амалга оширишнинг қулай бўлиши, унинг бошқа сўз туркумлари билан бирикиш хусусиятлари назарда тутилди.

Д.Х.Қувватованиннг ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятларига бағишланган диссертациясида таъкидланишича, модернистик руҳда ёзилган дostonларда нафақат қофия ва вазн, балки тиниш белгиларидан ҳам воз кечишга уриниш мавжуд. Тиниш белгиларидан воз кечилган шеъринг сатрларда асов руҳ ҳукмронлиги сезилади. Масалан, А.Маҳкамнинг “Ишк” дostonида учрайдиган қуйидаги сатрлар шу жиҳатдан эътиборни тортади:

Эй дил менга оғир қилдинг – диллик қилдинг,

Эй дил мени сағир қиб бедиллик қилдинг.

Эй дил нима сўрдинг бердим бердим тамом,

Эй дил охир кимга бандачилик қилдинг?

Эй дил мен «тан тахтаси»дан кечай деддим,

Эй дил танни тахта бирла тилик қилдинг...

Бунда “эй дил” такрори бир пайтнинг ўзида ҳам риторик мурожаат, ҳам анафора вазифасини адо этмоқда. Бироқ шоир деярли зарур тиниш белгиларини қўлламаган. Шунга қарамай, ундan мурожаат мазмунини англаш мумкин. Тадқиқотчининг фикрларини қуйидагича тасдиқлаш мумкин: биринчидан, такрор нафақат насрда қўлланади, балки назмни ҳам ўзига хос тарзда безайди; иккинчидан, у шахс ва нарсаларга мурожаат тарзида ҳам келади; учинчидан, юқорида келтирилган дostonдаги такрорнинг айрим турлари тиниш белгиларисиз қўлланса ҳам, риторик мурожаат вазифасида келмоқда. А.Мамажонов томонидан такрорнинг: 1) анафорик такрор; 2) эпифорик такрор; 3) инфорик такрор; 4) аралаш (доиравий) такрор (анафора, эпифора; инфора-эпифора) типлари тасниф қилинган.

Тил бирлиги сифатида қадимдан маълум бўлган такрор кўплаб тилшуносларнинг илмий ишларида таҳлил этилган. Жумладан, такрорнинг таркибига киритилган терминлар анадиплосис, анафора, антиципация, ассонанс, гапология, параллелизм, плеоназм, редупликация, реприза, рифм, тавтология, хиазм, эпанапелсис, эпифоралар И.В.Арнольднинг тадқиқотларида батафсил ўрганилган.

Шу сабабли такрорни ифодаловчи тил ҳодисалари: инг. alliteration – ўзб. аллитерация, инг. anadiplosis – ўзб. анадиплосис, инг. anaphora – ўзб. анафора, инг. anticipation

– ўзб. антиципация инг. assonance – ўзб. ассонанс, инг. hapology – ўзб. гапология, инг. parallelism – ўзб. параллелизм, инг. pleonasm – ўзб. плеоназм, инг. reduplication – ўзб. редупликация, инг. reprise – ўзб. реприза, инг. tautology – ўзб. тавтология, инг. chiasmus – ўзб. хиазм, инг. epianalepsis – ўзб. эпанаlepsис, инг. epiphore – ўзб. эпифора каби терминлар изоҳини келтириб, уларни мукамал тадқиқ этиш мақсадга мувофиқдир

Хулоса. Бадий асар мазмунини тушуниш, уни бир тилдан иккинчи бир тилга ўгиришда муаллиф қўллаган тил бирикларининг маъносини тўғри англай олиш талаб этилади. Такрордан сўзловчи кучли ҳис-ҳаяжон таъсири остида бўлганида фойдаланади. У кенг тарқалган стилистик услублардан бири сифатида турли жанрлардаги асарларда учрайди. Сўнгги пайтларда такрор лингвистик матнда тадқиқотнинг фаол объектига айланиб бормоқда.

Бадий асарларда кенг қўламда қўлланадиган тил бириклари, жумладан, тилнинг ифода воситаларидан бири, яъни нутқдаги маълум баёнларни алоҳида таъкидлаш учун хизмат қилувчи такрорни мукамал ўрганиш инглиз ва ўзбек таржимашунослигининг муҳим вазифаларидан саналади. Такрор ҳодисасини таҳлил қилиш жараёнида бу лингвистик ҳодисанинг бир неча турлари мавжудлиги, бажариб келаётган услубий-семантик вазифалари ҳамда уларнинг чоғиштирилаётган тилларидаги ўхшаш ва фарқли жиҳатлари аниқланди.

Инглиз ва ўзбек тилларида такрор билан боғлиқ тушунчаларга бағишланган ишлар таҳлил этилиб, таснифланди ва далиллар асосида аниқлик киритилди.

Термин, товуш, сўз, гап такрори бўлишидан қатъий назар, уларнинг замирида қайтарилиш, такрорланиш ҳодисаси мавжуд. Бу ўринда бошқа ёндош тушунчаларга нисбатан такрор тушунчаси кенг қамровли бўлиб, уларнинг барчасини ўзида акс эттира олади.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдиев А.Т. "Алпомиш" дostonи тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Нукус, 2011. – 17 б.
2. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 215 б.
3. Азизов В. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Морфология. – Ташкент, 1960. – 255 с.
4. Абдурахмонов Ф.А. Синтаксис асослари. – Тошкент: Фан, 1958. – 325 б.
5. Адилов М. Синтаксические повторы в азербайджанском языке. – Баку: Елым, 1974. – 234 с.
6. Азнаурова Э.С. Очерки по стилистике слова. – Ташкент: Фан, 1973. – 405 с.
7. Амроян И.Ф. Повтор в структуре фольклорного текста (На материале русских, болгарских и чешских сказочных и заговорных текстов): Дисс. ... д-ра. филол. наук. – М., 2006. – 402 с.



Dilrabo AHMEDJANOVA,

Uzbekistan State World languages University The Department of integrated course of English language

E-mail: daxmadjonova@gmail.com

According to the review of the docent of Uzbekistan State World languages University R.Karimov

METAPHORIZATION OF NAMES OF NATURAL PHENOMENA IN ENGLISH

Abstract

This article identifies major metaphor themes employed in discourse and literature of English on natural catastrophes to represent a natural phenomenon. The main aim is to reveal what ideological perspective is embedded in such a metaphorical conceptualization, with the focus on the examination of the allocation of blame for the natural disaster.

Key words: Metaphorization, concept, natural phenomenon, disaster, phraseology, domain, subdomain.

МЕТАФОРИЗАЦИЯ НАЗВАНИЙ ПРИРОДНЫХ ЯВЛЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В этой статье определяются основные темы метафор, используемые в дискурсе и литературе на английском языке о природных катастрофах для представления природного явления. Основная цель состоит в том, чтобы выявить, какая идеологическая перспектива заложена в такой метафорической концептуализации, с акцентом на рассмотрение распределения вины за стихийное бедствие.

Ключевые слова: Метафоризация, концепт, природное явление, катастрофа, фразеология, домен, субдомен.

INGLIZ TILIDA TABIAT HODISALARI NOMLARINING METAFORIZATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqola tabiiy hodisani ifodalash uchun tabiiy ofatlar haqidagi ingliz tilidagi nutq va adabiyotlarda qo'llaniladigan asosiy metafora mavzularini aniqlaydi. Asosiy maqsad - tabiiy ofat uchun ayblov konspektini taqsimlashni tekshirishga e'tibor qaratgan holda bunday metaforik kontseptualizatsiya qanday mafkuraviy nuqtai nazarni ochib berishdir.

Kalit so'zlar: Metaforaziya, tushuncha, tabiiy hodisa, ofat, frazeologiya, domen, subdomen.

Introduction. Sociological and anthropological research into both the tsunami and the hurricane reveals that the damage and destruction during the catastrophes was not caused by the natural phenomenon itself, but was compounded by human-made aspects. Both disasters were complex phenomena, which resulted from an interaction between natural events and vulnerabilities of a society, determined by human contact with environment, social organization, infrastructure and economy. It was the poor, the marginalized and the disempowered that were affected more than the rest of a population [5].

Literature review. "Metaphorization is the creation of a verbal image by means of a metaphor. The lexical metaphorization as a stylistic matter deeply absorbs all the functional styles of modern literary speech. The metaphorization to a great extent stylistically enriches all the speech in various spheres of its functioning" [11].

"Metaphorization is an extension of the semantic volume of lexemes due to the appearance of their figurative meanings and the enhancement of its expressive properties" [8]. "Metaphorization is an extension of the content volume of the word by creating figurative meanings in it and enhancing its expressive ones". "Metaphorization is the process of such interaction of the offered essences and operations which leads to obtaining of new knowledge about the world and knowledge about their speech. The metaphorization is characterized by adding of the already known reality features which are reflected in the meaning to a new concept" [4].

New problems and questions about studying of the metaphorization process and the metaphor phenomenon appear in linguistic science every day. According to this fact it is possible to say that the very essence of the metaphor isn't analyzed enough nowadays. This phenomenon may be

explained figuratively. "Any speech is a labyrinth of many trails. You go from one side and you know where you are; you come to the same place from the other side and you don't know where you are and where to go next". This statement is a proof of the actual need in searching ways of metaphorical nature explanation, its functional variety, metaphorical mechanisms and other aspects that is related to it.

Besides representing different knowledge structures, phraseological units are also studied in the sphere of conceptual metaphor theory. This theory is rather new term in the modern linguistic trends but it is widely studied by different scholars. Conceptual Metaphor Theory was first proposed by G. Lakoff and M. Johnson in their revolutionary work "Metaphors We Live By" and since then has been developed and elaborated in a number of subsequent researches [10]. The basic principle of Conceptual Metaphor Theory is that metaphor is not simply a stylistic device: it is a way of thinking, a tool of cognition. Metaphor operates at the level of thinking as "our conceptual system is largely metaphorical, and our ordinary conceptual system, in terms of which we both think and act, is fundamentally metaphorical in nature" [8]. Linguists in Cognitive Linguistics claim that components of phraseological units are interrelated metaphorically in our mind and cognition. In our case, analysis of the phraseological units with the component of "fire" show that examples are mainly obtain metaphorical character, despite some non-metaphorical relations too [7].

The idea instigated by cognitive linguistics referring to metaphors is that the meaning we recognize in language is primarily based in semantic concepts. Semantic primitives, metaphorical concepts, conceptual primitives or basic notions all stand for a collection of cognitive concepts which can be found at the basis of meaning transferred by language which is

in turn expressed by the lexical and grammatical means that every language can display. Such a conceptual system is at its most primitive level universal to all human beings (i.e. conceptual primitives such as up is good, down is bad; straight is good, bent is bad; etc.) because it flows from a connection formed between the human cognition of the world and its reality and it can be seen as prelanguage. Other cognitive concepts, more numerous, display a lesser degree of universality and are more culturally conditioned [9].

The process of constructing meaning using metaphorical concepts is called metaphorization and it is "founded on association [and it] constructs systems based on prototypical notions and meanings which are used to classify the real world". Metaphorization is based on the transfer from the source conceptual domain to the target conceptual domain. Most commonly the structure of the source concrete domains is mapped onto abstract target domains, where the meaning retains the semantic markings of the target domain (i.e. LION IS A PERSON: LION is the concrete source domain whose conceptual structure (such as strong, proud, fierce, independent, etc.) is transferred to the abstract target domain of a human being PERSON) [5].

The subdomain "weather/climatic phenomena" is systematically represented in the interoceptive discourse by such lexical units as lightning, thunder, and storm. The lightning metaphor is most commonly used for a momentary painful sensation of high intensity, which is characterized by suddenness: A bolt of pain, 'like lightning', she said, went through her head and she heard a shotgun blast (S. King. Salem's Lot); A new wave of pain shot like lightning up my arm [1]. In the Anglophone culture, the image of lightning has become somewhat canonical and is used to interpret pain not only in the verbal, but in the visual format as well. Thus, the symbol of the Trigeminal Neuralgia Association UK is a schematic image of a human head with red lightning piercing the forehead, cheek and lower jaw. The rationale behind this metaphoric reading is that lightning possesses brightness and powerful kinetic dynamics, appears unexpectedly and is present in the perceptual field only for a short period. These characteristics, especially brightness and speed, fully correspond to the general notions of high intensity. As a result, they are easy to extrapolate onto the sphere of paroxysmal migraine pain. It is noteworthy that many people who suffer from migraines experience visual symptoms that they describe as flashes of light. This circumstance is another powerful cognitive argument in favor of the lightning metaphor. On the other hand, we can't rule out the effect of retrojection: having mastered this cognitive technique while participating in discourse practices, the perceiver might begin seeing lightning where it is actually absent [4].

Methodology. The domain "natural phenomena" includes several relatively independent areas that can potentially serve as sources for metaphorical mappings onto the sphere of interoceptive sensations. The most important of them are weather and climatic phenomena (rain, snow, thunder, lightning, etc.) and natural disasters (earthquakes, tsunamis, tornadoes, volcano eruptions, etc.) [3].

Huge quake spawns tremors and tsunamis in Southeast Asia (headline, The New York Times, 26 Dec 2004)

Tropical Depression 12 was born, giving few hints that it was an embryonic monster that would grow into Hurricane Katrina. (The New York Times, 29 Aug 2005)

The independent existence of the tsunami and the hurricane is also conveyed by the syntactic structure of a number of sentences referring to the phenomena.

The whole sea just lifted up. It swelled up. There was no sound. The sea just poured on to the island. (The Guardian, 27 Dec 2004)

It has long been acknowledged that phraseology of any language reflects people's culture, history, national mentality and lifestyle [2]. Therefore phraseological units by their very nature are intended to convey knowledge structures related to all spheres of life. From this position phraseological units can be subdivided into specific groups representing religious, mythological, literary, historical knowledge structures. In the phraseological units "fire and brimstone" (hell and afterlife punishment"), "go through fire and water" (to undergo great difficulties or dangers) we can observe the representation of religious knowledge structures (taken from Bible). Another example, "Promethean fire" means nonstop pursuit of power and authority. This expression represents mythological knowledge structure and connotative meaning is related to the myth of the God Prometheus who stole the torch of fire from Zeus [6].

The metaphor of a forest fire when describing torturous symptoms of intestinal flu: My head was splitting; there was a forest fire in my guts (S. King. 11.22.63). It is noteworthy that the image of a fire is quite a common way of metaphorical representation of the specific "burning" sensation in the viscera. Cf.: Suddenly a horrid pain came to his chest, like unexpected fire (W. Styron. Lie Down in Darkness); Instantly her stomach was on fire and she wanted to spit the stuff back into the bottle, but it was too late (T.C. Boyle. Little Fur People). Forest fire, however, is associated with a considerable speed of spreading, high intensity and enormous destructive impact. That's why in this case the author describes not merely a sensation that has certain properties, but a quickly progressing condition, which causes considerable suffering and has a destructive impact on the entire organism [2].

Nature to him was an open book whose letters he could read without effort (The British National Corpus). This utterance is a blend created as a result of mapping of two original spaces: the space of "nature" and the space of "book". The blend inherits some elements of the structure of every space: from the first space it adopts "nature", "researcher" and the activity of this researcher – "research"; from the second one it takes the roles of "book" and "reader", as well as the reader's activity – "reading". The selectivity of the reflection causes the fact that the blend acquires a new property "understandable, easy to research", which cannot be found in one of these original spaces, as it is assumed that the natural phenomena are difficult to research, whereas a prototypical book is not an object of research, it is rather meant to be read and interpreted [9].

Conclusion. The development of the new meaning in the given blend can be explained as follows: from the space of "book" the link between the action and result is inherited ("to read the book and to understand its content"); whereas from the space of "nature" the link "to research the natural phenomena and to understand the nature's structure" is adopted. In the structure of the blend there is "nature", "researcher" and "book", though the "researcher" takes the part of "reader", and "nature" acts as "book" performing the appropriate actions, goals and results.

REFERENCES

1. Dickson, D. (2010). Tsunami Disaster: A Failure in Science Communication. In: Fuller, L. K., (ed.) Tsunami Communication: (Inter)personal/intercultural, Media, Technical, Ethical, Philanthropic, Development, and Personal Responses. Cresskill, NJ: Hampton Press. 275- 277.

2. Dobrovol'skij, D. and Piirainen, E. (2005). *Figurative Language: Cross-cultural and Crosslinguistic Perspectives*. Oxford: Elsevier.
3. Fairclough, N. (1989). *Language and Power*. London: Longman.
4. Fairclough, N. (1995). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. London; New York: Longman.
5. Fitzpatrick, P. J. (2006). *Hurricanes: A Reference Book*, 2nd edition. California: ABC CLIO.
6. G. Fauconnier, *Mental spaces* (Cambridge University Press, Cambridge, 1985)
7. Kimmel, M. (2008). Properties of Cultural Embodiment: Lessons From the Anthropology of the Body, In *Body, Language, and Mind*, 2, Sociocultural Situatedness, 77-108.
8. Karpilovs'ka, Ye. (2010). Vtoryna nominatsiya u suchasniy ukrayins'kiy movi: tendentsiyi rozvytku. [The secondary nomination in the modern Ukrainian language: development trends]. *Linhvistychni studiyi*. Ed. 20. pp. 27–32.
9. Kövesces, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge, Cambridge University Press.
10. Lakoff, G., Johnson, M. (1999). *Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and Its Challenge to Western Thought*. NY, Basic Books
11. Shevchenko, L. (2010). *Slovnnyk ukrayins'koyi movy*. V 20 tomakh. [Ukrainian dictionary. In 20 volumes]. Vol. 11, Kyiv: Naukova dumka. p. 694.
12. van Dijk, T. A. (1993). Principles of Critical Discourse Analysis. *Discourse & Society* 4(2): 249- 283.
13. Wodak, R. (2001). What CDA Is About – A Summary of Its History, Important Concepts and Its Developments. In: Wodak, R. and Meyer, M. (eds.) *Methods of Critical Discourse Analysis*. London: SAGE Publications. 1-13



Dilobar BEGIMQULOVA,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: begimkulova9092@mail.ru

Xalqaro innovatsion universiteti Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini mudiri f.f.f.d P.A.Qurbonov taqrizi asosida

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF REDUPLICATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract

This article provides a comparative analysis of the interpretation of the concept of reduplication in English and Uzbek languages, the linguistic features, and the peculiarities of their manifestation in the languages. Similarities and differences in the description and classification of double and repeated words, as well as their participation in the formation of new words were discussed. The ideas have been proven by discussing a number of specific examples and their meanings. The analysis of reduplicative units was performed on the basis of dictionary and Internet materials.

Key words: Reduplication, reduplicative unit, composition, repetition, total repetition, partial repetition, double words, full reduplication, partial reduplication, onomatopoeic reduplication.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ РЕДУПЛИКАТИВНОСТЬ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ трактовки концепта редупликации в английском и узбекском языках, языковых особенностей и особенностей их проявления в языках. Обсуждались сходства и различия в описании и классификации двойных и повторяющихся слов, а также их участие в образовании новых слов. Идеи были подтверждены путем обсуждения ряда конкретных примеров и их значений. Анализ редупликативных единиц проводился на основе словарных и интернет-материалов.

Ключевые слова: Редупликация, редупликация, композиция, повтор, тотальный повтор, частичный повтор, двойные слова, полная редупликация, частичная редупликация, звукоподражательная редупликация.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA REDUPLIKATIVLIK TUSHUNCHASI TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida reduplikatsiya tushunchasining talqin etilishi, ularning tilda namoyon bo'lishining o'ziga xosliklari, lisoniy xususiyatlari qiyosiy tahlil etilgan. Reduplikatlar hamda juft va takror so'zlarning tavsifi hamda tasnifi borasidagi o'xshash va farqli jihatlari hamda yangi so'z hosil qilishda ishtiroki borasidagi muhokama qilingan. Firkalar bir qator aniq misollar va ularning ma'nolarini muhokama qilish orqali isbotlangan. Reduplikativ birliklar tahlili lug'at va internet materiallari asosida amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Reduplikatsiya, reduplikativ birlik, kompozitsiya, takror so'zlar, to'la takror, qisqa takror, juft so'zlar, to'liq reduplikatsiya, qisman reduplikatsiya, onomatopoyek reduplikatsiya.

Kirish. Reduplikatsiya hodisasi jahon tillari tizimidagi juda ko'p sonli tillarda mavjud bo'lib, u barcha tillarda u yoki bu ko'rinishda (fonetik, morfologik, sintaktik) faollashadi. Chunki oddiy takrorlanish, ikkilanish, juftlashish hodisasi deyarli barcha tillarda kuzatiladi va u turli lisoniy sathlarga tegishli hodisa sanaladi.

Reduplikatsiya hodisasi ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lishiga qaramay ularning tilda namoyon bo'lishi, klassifikatsiyasi turlicha talqin etiladi va bu ikki tilda reduplikativ birliklarni ma'lum bir tizimga solib o'rganish mushkul. Ammo shuni ma'lumki, ingliz tilida reduplikatsiya deb ataluvchi lisoniy hodisa shakli, funksional jihati, yasalish qonuniyatlari, qo'llanilish uslubi jihatidan o'zbek tilidagi takror va qisman juft so'zlarga to'g'ri keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu tadqiqot ishida zamonaviy ingliz tilining bir va ikki tili lug'atlaridan, shu jumladan, onlayn lug'atlardan, Longman Dictionary of Contemporary English, Oxford Learner's dictionary, Oxford Dictionary of Slang, The Free Dictionary by Farlex, Britaniya Milliy Korpus bazasi materiallaridan, O'zbek tilining izohli lug'ati hamda badiiy adabiyotlardan foydalanildi.

Ingliz tili grammatikasining o'rganilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak avvallari reduplikativlarga muhim grammatik hodisa sifatida emas, aksincha, ikkinchi darajali, kam ahamiyatga ega birliklar sifatida qaralgan va ekstra-

grammatik morfologiyaga oid deb hisoblangan [11:242]. Shu sababli ham ushbu hodisa keng ko'lamda emas, balki individual tadqiqotchilar tomonidan kam ahamiyatli morfologik yoki fonetik hodisa sifatida o'rganib kelingan (Arnold I.V., Antrushina G.B., Afanaseva O.V., Morozova N.N.) va asosan fonologik tizimga ko'proq aloqador deb hisoblangan. So'nggi paytlarda esa ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganligini tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishida reduplikativlik hodisasining roli, ishtiroki atrofidagi kechayotgan munozaralardan anglab olish mushkul emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz tilida reduplikatsiya hodisasi talqini tog'risida fikr yuritadigan bo'lsak, ko'p sonli manbaalarda reduplikatsiya so'zdagi dastlabki bo'g'in, o'zak yoki butun so'zni takror qo'llash orqali so'z, grammatik shakl hosil qilish usulidan iborat fonomorfologik hodisa sifatida ta'riflangan. Fonomorfologik hodisa deb ta'rif berilishiga sabab reduplikativ so'zlar til tavsifida qaysi til sathiga joylashtirilishi aniq emas, chunki ular fonologiya va morfologiyaning kesishmasida joylashgan bo'lib, ikkala til tizimiga asoslanadi [10:2, 6:229]. Ingliz reduplikativlarining morfologik tavsifi O.Jespersen [9:173-183] va H.Marchand [10: 429] dan boshlangan deyish mumkin, ular mos ravishda bu shakllanishlarni "reduplikativ birikmalar" va "soxta birikmalar" deb atab ularni so'z birikmasi ekanligiga ishora qiladilar. Quirk va b.lar ham [14] reduplikativlarni "ikki yoki

undan ortiq tarkibiy qismlarga ega bo'lgan bir xil yoki bir biridan bir oz farq qiluvchi birikmalar" deb ta'riflaydi.

Shu o'rinda shuni aytish joizki, reduplikatsiya hodisasining tarixiy ildizlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, uni morfologik emas, aksincha leksik hodisa bo'lganligini ko'ramiz. Qadimiy Ingliz tili davriga tegishli bo'lgan yozma manbaalarni ko'zdan kechirib Nils Thun [15] reduplikativlarga barmoq bilan sanarli darajada kam misollar keltira olgan, va ularning aksariyat qismi taqlidni ifodalagan (ha ha, hah hah) yoki hayvonlar laqabi, insonlar ismlarini erkalab, kichraytirib chaqirish (Godgod, Tata) maqsadida ishlatilgan deydi u.

Hozirgi vaqtda ushbu mavzu bo'yicha eng keng qamrovli monografik ish Nils Thun [15] tomonidan yozilgan bo'lib, unda "reduplikativ so'z yasashning barcha shakllarini kompozitsiyaning bir turi sifatida ko'rib chiqmaslik mumkin emas" deyilgan. Ko'rib turganimizdek, reduplikativlar an'anaviy ma'noda yasama so'z ham, birikma ham emas. Ularni qoidalari bo'yicha tasvirlash qiyin, ularning asoslarini ko'pincha tanib bo'lmaydi va ayniqsa onomatopoyek turda (clip-clop) qay biri takrorlovchi, qay biri takrorlangan bo'lak ekanligini aniqlash mushkul.

Hozirgi kunda esa reduplikativ birliklarning tilda uchrash holatining sezilarli darajada oshganligini ko'ramiz. Reduplikativ birliklar asosan bolalar nutqida ko'proq hosil qilinganligi tufayli ham (ca-ca, doo-doo, pee-pee, poo-poo, mama, papa, boo-boo) ko'p hollarda bolalar nutqiga aloqador (infant speech, nursery language) hodisa sifatida qaraladi [Jakobson 1944; Dressler va b. 2005].

O'zbek tilida reduplikatsiya hodisasi talqini borasida so'z yuritadigan bo'lsak, reduplikatsiya termini ayrim zamonaviy o'zbek tili tilshunosligiga oid manbaalarda qo'llanilganligini kuzatamiz. Ushbu termin so'z yasash usullaridan biri hisoblangan takrorga nisbatan ishlatilgan. Ammo ingliz tilida reduplikatlar deb ataluvchi birliklar shakli, funksional hamda semantik xususiyatlariga ko'ra o'zbek tilidagi juft so'zlar bilan ham o'xshash.

Shu o'rinda takror haqida so'z yuritadigan bo'lsak, takror o'zbek tilida ikki asosiy so'z yasash usullaridan (affiksatsiya va kompozitsiya) biri bo'lgan kompozitsiya, ya'ni ikki (yoki undan ortiq) so'zning qo'shilishidan yangi leksik birlikning hosil qilinishi orqali yasalgan qo'shma so'zlarning bir turi hisoblanadi. Shu bilan birga kompozitsiya usulida so'z yasash hodisasi juft so'z yasash hodisasini ham o'z ichiga oladi. Bu tur ayrim adabiyotlarda reduplikatsiya, ayrimlarida esa takror deb atalgan. Demak reduplikatsiya, ya'ni takror, o'zbek tili tilshunosligida so'z yasovchi usullardan biri sifatida talqin etiladi degan xulosaga kelishimiz mumkinmi? Juft so'z termini ostida esa ikki so'zning o'zaro teng bog'lanishidan hosil bo'lgan birikma nazarda tutiladi. Bunda har biri o'z ma'nosini va urg'usini saqlagan holda bir umumiylikka ega bo'lgan butunlik hosil qiladi.

Tahlil va natijalar. Reduplikatsiya mustaqil so'z yasash usuli deb hisoblash hozirgi zamonaviy ingliz tili tilshunosligida munozarali masala hisoblanadi. Sapfir, Arnold I.V., Shanti Nadarajan, Nil Thun, Antrushin G. B, Kryuchkova Y. va boshqalarning fikriga ko'ra reduplikatsiya mustaqil so'z yasash usuli hisoblanadi. Boshqa bir qator olimlar esa (Randolph Quirk va b., Meshkov D. O., Fedayev Y.V., Nils Thun, Ginzburg R.S. va b.) reduplikatsiya hodisasiga boshqa so'z yasash usullari tarkibidagi bir komponent sifatida qarashadi. Garchi yangi so'z hosil qilishda muhim rol o'ynasada, reduplikatsiya hodisasi yangi so'z hosil qilishda konkret mexnizmga ega emas deb hisoblaydilar.

Shakli jihatdan qo'shma so'zlarga o'xshash bo'lgan, ya'ni ikki qismdan iborat bo'lgan, ammo qo'shma so'zlarning tavsifiga mos tushmaydigan ayrim birikmalar mavjudligini, ulardan ayrimlari bitta mustaqil bo'lak bo'la olishini,

ikkinchisi esa tovush o'zgarishi natijasida hosil qilingan variant ekanligini ta'kidlaydi Arnold I.V. (2012) Bunday birliklarni u reduplikativ qo'shma so'zlar (reduplicative compounds) deb ataydi. Randolph Quirk va b.lar [14] esa ularni qo'shma so'zlarning bir ko'rinishi deb hisoblasa, Andrew Spencer va Arnold M. Zwickyklar esa ularni derivativ hodisa deb hisoblaydilar [14]. Ammo qo'shma so'zlardan farqli o'laroq reduplikativlarda har ikkala tashkil etuvchi bo'lak bir paytda mustaqil ma'no anglatmaydi, ularda yoki bitta (chit-chat, criss-cross, super-duper, ding-dong, easy-peasy, puzzled-wuzzled) yoki hech qaysi bo'lak (blah-blah, Humpty-Dumpty, Shaltay-Boltay) mustaqil ma'no anglatmasligi mumkin. Bunda asosan ma'no anglatmaydigan bo'lak hazil, kulgi, mazxara va boshqa maqsadlarda hosil qilingan, mazmunsiz, shunchaki tovushlar tizimidan iborat soxta morfemalardir.

So'zlarni juftlash va takrorlash yo'li bilan so'z yasash, ya'ni reduplikatsiya ayrim manbaalarda sintaktik usul (S. Rahimov, B. Umurqulov, 2003), ayrimlarida ikkinchi darajali so'z yasash hodisasi sifatida qaralgan bo'lsa, ayrimlarida esa bu kompozitsiya usulining tarkibi qismi (R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, O' Xoliyorov, N. Abdurahmonova, G. Boqiyeva va b.) sifatida qaralgan bo'lib, kompozitsiya usulida so'z yasash hodisasi qo'shma, juft va takroriy so'z yasash hodisalarini o'z ichiga olishi ta'kidlangan.

S. Rahimov, B. Umurqulovlar (2003) so'zlarni ularning tuzilishiga ko'ra soda, qo'shma, hamda juft so'zlarga bo'lib, juft so'zlarni o'zaro tenglanish yoki takrorlanish asosida birikuvchi juft so'zlar deb ataydilar. Ya'ni ular shod-xurram, zavq-shavq, kiyim-kechak kabi birliklarni ham bora-bora, tog'-tog', kula-kula kabi bikliklarni ham juft so'zlar deb ataydilar. Bir so'z bilan aytganda ularning talqiniga ko'ra takror so'zlar juft so'zlarning bir ko'rinishi bo'lib ular takrorlanish asosida hosil qilingan juft so'zlar deb e'tirof etilgan.

O'zbek tilshunosligida takroriy so'z yasashi so'z yasash hodisasi bo'la olmasligini, lekin mavjud adabiyotlarda ular so'z yasash hodisasi sifatida qaralganligini ta'kidlaydi A. Hojiyev (2007). Unga ko'ra bu usul yordamida hosil qilingan qo'shma so'zlarni u so'zlarni qo'shish yordamida yasalgan emas, balki bunday so'zlarning ko'pchiligi turli hodisa, yo'llar bilan yuzaga kelgan deb e'tirof etadi.

Juft so'zlar yangi lug'aviy ma'no anglatasa, yasama so'z hisoblanishini (bordi-keldi, issiq-sovuq, quyuq-suyuq), agar ularning qismlari alohida atash ma'nolaridan farqlanmasa (chol-kampir, aka-uka, asta-sekin) ular yasama so'z bo'la olmasligini ta'kidlaydi B. Mengliyev va b. (2015) Bunda so'zlarni juftlash va takrorlash, odatda, yangi so'z yasash hisoblanmaydi, chunki, bunda so'zning lug'aviy ma'nosi yangilanmaydi, balki umulashtirish, jamlash, kuchaytirish, jamlash, takroriylik, davomiylik kabi qo'shimcha grammatik ma'nolar qo'shiladi, xolos. Masalan, ota-ona, aka-uka, qovuntarvuz.

Ingliz tilida reduplikativlar bir vaqtning o'zida bir nechta til sathlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli ham ularni tasniflash borasida ham farqlarni kuzatamiz. Bu borada Jespersen, Arnold, Kryuchkova, Marchand, Minskova, Dienhart, Merlini Barbaressi, Sharon Inkelas, Elisa Mattiello va boshqalar o'z tasniflarini taklif etganlar. Ular taklif etgan tasniflarning har biri o'ziga xoslikka ega. Merlini Barbaresi va Otto Jespersen taklif etgan tasnifga asoslangan holda va yuqoridagi olimlar va boshqa bir qator klassifikatsiyalarni umumlashtirgan holda ingliz tilida reduplikatsiya hodisasini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Ingliz tilida reduplikatsiyani ikkita katta tur ya'ni, to'liq reduplikatsiya (keyinchalik TR) va qisman reduplikatsiya (keyinchalik QR), hamda uchinchi alohida – onomatopoyek reduplikatsiya – kabi turlarga bo'lish mumkin.

TR replikatuning toʻliq takrorlanishini taqazo etadi. Masalan, boo-boo, bling-bling, no-no, goody-goody, she-she, zero-zero, va hkz. Bunda replikan va replikatung bir biriga toʻliq mos keladi. Bundan tashqari replikatung hamda replikan oʻrtasida kichik farq, yaʼni qoʻshimcha tovush yoki boʻgʻin ortishi kuzatilgan holatlarini ham uchratamiz: clankety-clank, hippety-hop, bumpety-bump, cloppety-clop.

QRni tasniflash TRga qaraganda anchayin murakkab holat. Qisman reduplikatsiya qisman oʻzgarib takrorlanishini taqazo etadi. Bunda soʻz oʻzagi fonetik yoki morfologik oʻzgarishga uchraydi. Masalan, argy-bargy, boogie-woogie, chit-chat, roly-poly, hocus-pocus, humpty-dumpty, riff-raff va hkz. Ushbu misollar anglashiladiki, qisman oʻzgarish soʻzning yoki unli, yoki undosh tovushida sodir boʻladi, ayrim hollarda tovush ortishi kuzatiladi (argy-bargy, easy-peasy, itsy-bitsy, owlie-wowlie).

Yana bir alohida katta tur onomatopoyek reduplikatlar deb ataladi. Ushbu guruhga inson yoki tabiatdagi biror tovushga taqlid qilish natijasida hosil qilingan reduplikatlarni kiritamiz: tweet-tweet, chirp-chirp, glut-glut, patter-patter, pip-pip, boom-boom, woo-woo va hkz.

Endi takror hamda juft soʻzlarining oʻzbek tilida shakllanish qonuniyatlari borasida qisqacha soʻz yuritimiz. Oʻzbek tilida takror ikki xil turga ajratilgan: toʻla takror (katta-katta, gurra-gurra, buralib-buralib, bogʻ-bogʻ, uycha-uycha, gʻir-gʻir kabi) va qisqa takror (kap-katta, koʻm-koʻk, gʻadir-budir, toʻppa-toʻgʻri kabi). Qisqa takror soʻz yasamaydi, balki soʻz shakli hosil qiladi (qip-qizil kabi). Takror orqali qoʻshma soʻz hosil qilish toʻla takrorda uchraydi. Takrorning tarkibidagi qismlarning amorf holda kelishi (taq-taq, taqir-tuqur, shaqir-shuqur kabi) yoki orada kuchaytiruvchi elementning boʻlishi (taqa-taq, taqira-tuqur, shaqira-shuqur) holatlarini kuzatamiz.

Takror oʻzbek tilida ikki xil xarakterga ega: soʻz yasash vositasi (chipchip – bunda soʻzni takrorlash orqali qoʻshma holga keltirish yoʻli bilan yangi soʻz hosil qilinyapti) hamda grammatik vosita (tanlab-tanlab – rosa tanlab, oʻylab-oʻylab – uzoq oʻylab – harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi kabi maʼnolarni ifodalamoqda). Xulosa shuki, ingliz tilida reduplikatsiya bu – soʻz takrori va u oʻzbek tilida ikki xil xarakterga ega: soʻz yasash vositasi va grammatik vosita. Juda koʻp holatlarda reduplikatsiya grammatik vazifani bajaradi, yaʼni predmetning koʻpligi (Nima-nima olding? – nimalar olding), belgining oshirilishi (Nozik-nozik mehmonlarga ishlataman. (S.A. “Kiprikda qolgan tong”) – juda nozik mehmonlar), maʼnoning kuchayishi (Men ne-ne orzular bilan ilm-hunar oʻrganib keldim. (P.Q. “Yulduzli tunlar”) – qanchadan qancha, ancha), harakatning takrorlanishi (Soy boʻyida turgan boʻsh mis koʻzani yomgʻir tomchilari chertib-chertib qoʻydi. (P.Q. “Yulduzli tunlar”) – bir necha marotaba chertib) va uzoq davom etishi (Mirtemimning “Qoraqalpoq daftari”, Shayxzodaning “Mirzo Ulugʻbek” asarlaridagi yosh

yozuvchi uchun ibrat boʻladigan tomonlarini, mahorat sirlarini ezib-ezib gapirdik” – uzoq ezib, rosa ezib) va b.larni ifodalab keladi. Soʻz yasash vazifasini bajarishi ayrim hollarda uchraydi. Masalan, manman, jagʻjagʻ, patpat, tasir-tusir, mingʻir-singʻir, es-es, paqpaq, xola-xola, uycha-uycha va hkz.

Oʻzbek tilida ham reduplikatlarining bolalar nutqida namoyon boʻlishini kuzatamiz. Oʻzbek tilida goʻdaklar nutqida dada - ota, kaka, tata, oh-oh - konfet, mama - sut, nana - non, baba – it, ququ – tovuq, chipchip – joʻja va shu kabi birliklar hosil boʻladi.

Juft soʻzlarning shakllanishiga toʻxtaladigan boʻlsak, juft soʻzlarning semantik xarakteristikikasiga koʻra komponentlarining mustaqil maʼnoga ega yoki ega emasligini koʻra R. Sayfullayeva va b.lar (2010) juft soʻzlarni ikkiga, qismlaridan biri mustaqil holda ishlatilmaydigan, har ikkala qismi ham mustaqil holda ishlatilmaydigan kabi turlarga boʻlgan. A. Hojiyev esa ularni uch turga ajratgan: ikkala komponenti mustaqil maʼnoga ega boʻlgan juft soʻzlar, bir komponenti mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan, ikkala komponenti mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan juft soʻzlar.

Bir komponenti mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan juft soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida juda koʻp uchraydi; bogʻ-roqʻ, nest-nobod, onda-sonda, amal-taqal, koʻcha koʻy, maza-matra, latta putta, meva-cheva, avrab-savrab. Bir komponenti mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan juft soʻzlarda ikki hodisani koʻrish mumkin: ikkala komponenti ham aslida mustaqil maʼnoga ega boʻlib, hozirda bir komponenti oʻz maʼnosini yoʻqotgan juft soʻzlar: qari-qartang, rang-roʻy, gap-gashtak; ikkinchi komponenti birinchi komponentini fonetik oʻzgartirishi orqali hosil qilingan juft soʻzlar: oz-moz, aldab-suldab, chala-chulpa, yarimta-yurimta, amal-taqal, maza-matra, quda-anda, hayot-mamot, yigʻi-sigʻi, latta-putta, irim-sirim; ikkala komponenti ham mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan juft soʻzlar: ashqol-dashqol, ikir-chikir, lash-lush, qalangʻi-qasangʻi, yajuj-majuj, poyintar-soyintar.

Shu oʻrinda, ingliz tilida ham reduplikativ birliklarning tarkibiy qismi haqida soʻz ketganda, olimlar ikki turdagi ajralmas boʻlakni farqlaydilar. Ular replikatung yoki replikan va reduplikant yoki reduplikator. Koʻp holatlarda replikatung/reduplikant birinchi boʻlak - chap tomonda (easy-peasy, child-shmild, puzzled-wuzzled, fifty-fifty) replikan/replikator esa ikkinchi boʻlak – oʻng tomonda (criss-cross, chit-chat, dingle-dangle, dilly-dally, mish-mash) keladi.

Xulosa va takliflar. Demak, oʻzbek tilidagi juft va takror soʻzlarni ingliz tilidagi reduplikatsiya hodisasi bilan solishtirganda ikki tilda ushbu birliklarning shakllanishi deyarli oʻxshash ekanligini koʻramiz. Shunday qilib ingliz tilida reduplikatsiya hamda juft va takror soʻzlar asosan yangi soʻzlarni yaratish yoki soʻzga alohida maʼno berish, emotsional munosabatlarni ifodalash yoki tovushlarga taqlid qilish yoki bolalar tiliga taqlid qilish maqsadida ishlatiladi. Ushbu holatlarning har biri tilni boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A.A. Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar. –T.: 1965. –B.143
2. Hojiyev A.A. Oʻzbek tili soʻz yasalishi tizimi. –T.: Oʻqituvchi, 2007. –B.167
3. Mengliyev B., Xoliyorov Oʻ., Abdurahmonova N. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. –T.: Akademiashar, 2015. –B.505
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Oʻqituvchi, 2003.
5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Abduzalova M.Q., Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2010. –B.403
6. Barbaresi, Merlini Lavinia. Extra-grammatical morphology: English reduplicatives. In Words in Action: Diachronic and Synchronic Approaches to English Discourse. Studies in Honour of Ermanno Barisone, John Douthwaite, and Domenico Pezzini (eds.), 228–241. Genova: ECIG.
Mazkur kiyim nomining deyarli barcha turkiy tillarda bosh kiyimi ma'nosini anglatishi uning vazifasiga ko'ra nomlanish tamoyiliga asoslanganini ko'rsatadi [25]. Xususan, o'zbek tilida bo'rk, qoraqalpoq tilida bórík, qozoqlarda bérík, qirg'iz tilida bérík, bérík, qabardin-balqar tilida byork, qumiqlarda ham byork, no'g'oylarda bork, tatarlarda burek singari [26]. Bérík so'zining turli turkiy tillardagi shakllari uning qadimgi turkiy «qopla», «yop» mazmunidagi bérík fe'lidan k- qo'shimchasi bilan yasalganligini tasdiqlaydi [27]. N.A.Baskakov «Igor polki jangnomasi» da qora + bérík + li tarkibiy qismlaridan tashkil topgan tamg'a yoki kiyimiga ko'ra nomlangan «karabirikli» yoki «karabérógli» urug' nomi ishlatilganligini qayd etib o'tgan [28]. Shógirme qadimgi davrlarda to'q rangli qo'y terisidan tikilgan. Uning juni tashqarisida bo'lgan. Malaqay tulki mo'ynasidan tayyorlanib, quloq va bo'yinni yopib turadigan bo'lgan.

Qoraqalpoq xalqi tomonidan kiyiladigan yana bir bosh kiyim taqiya hisoblanadi. U ham qadimgi, qoraqalpoqlarning o'tmishdagi milliy qiyofasini o'zida aks ettiruvchi, konsept sifatida baholashga sazovor bo'lib, malaqay va sho'girme ga qaraganda ancha yengil, matoda har xil naqshli ranglardan foydalanib, nozik did bilan tayyorlanadigan bosh kiyim sirasiga mansub. Manbada qayd qilinishicha, taqiya «mustahkamlab, kashtalardan har xil naqshlar solib tikilgan, vazni jihatidan ancha yengil bosh kiyim. Arqasida balani taqiyasi ushup tústi (A.Bekimbetov) [29].

O'zbek xalqining milliy bosh kiyimi do'ppi konsept maqomida e'tirof etishga loyiq ekanligi qayd qilindi. Uning xilma-xil ko'rinishlari hozirda ham kiyiladi. Qoraqalpoqlar tomonidan ushbu kunda milliy-madaniyatining azaliy odatlariga sodiq qolgan holda, ayniqsa, keksa yoshdagi kishilar tomonidan kiyiladigan malaqay, sho'girme o'zbeklarning milliy bosh kiyimi hisoblanuvchi do'ppi ga o'xshamaydi. Malaqay, sho'girme teridan tayyorlanadi. Bu bosh kiyimlar teridan tikilishining o'ziga yarasha sabablari bo'lgan, albatta. U shundan iboratki, qoraqalpoq xalqi qadimdan baliqchilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, shuningdek, chorvachilik bilan shug'ullangan. Ayniqsa, qoraqalpoqlar chorvachilikni hayot tarzining ajralmas bir qismi deb bilib, uni yuqori darajaga qo'yishgan. Shuning uchun ular o'z bosh kiyimlarini teridan tayyorlashni afzal bilib, butun umri davomida odat tusiga aylantirgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Qoraqalpoqlarning taqiya si xususida so'z yuritilsa, u teridan emas, balki matodan tayyorlanishiga ko'ra do'ppi ga o'xshaydi. Ammo ularning tuzilishi, shakl-u

shamoyilida farqli alomatlar bor. Bu shundan iboratki, do'ppi ning to'rt qirrası mavjud bo'lsa, taqiya aylanasimonidir.

Qoraqalpoqlarda qora úy (qora uy) konsept maqomida e'tirof etiluvchi tushuncha hisoblanadi. Chunki u qoraqalpoq xalqining qadimgi davrlardan meros bo'lib kelayotgan boshpanasidir. Qora uy mo'g'il, qozoq, qirg'iz, turkman xalqlarida ham bor. Lekin qoraqalpoqlarning qora uylari barcha tug'ishgan xalqlarning o'tovlaridan farqli o'laroq mustahkamroq, turli naqshlardan zeb berib ishlangan, bog'ichlari ko'zni qamashtiradigan darajada bo'lib, ayniqsa, ularni tayyorlashning o'ziga xos uslubi, qora uyning ichidagi dastgohlar ushbu xalq milliy-madaniyatini yorqin aks ettirib turadigan xususiyatlardir [30]. U tashqi shakliga ko'ra o'zbek xalqining qadimgi o'toviga o'xshaydi. O'tov – ochiq maydonda gumbaz shaklida tiklanadigan ko'chma turar joy. Cho'pon o'tovning ichiga kirdi. Bu ot qadimgi turkiy tilda “olov yoq” ma'nosini anglatgan [31].

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da o'tov – Markaziy Osiyo, shuningdek, Janubiy Sibir ko'chmanchilarida; yengil material, kigiz kabilardan konussimon shaklda yasalgan ko'chma uy, turar joy deb izohlangan. Ikkinchi mashinada ketma-ket brezent o'tovlar, qamish devorlar ham yetib kelibdi (Sh.G'ulomov, Qurbonalining dadasi) [32]. Ayniqsa, qoraqalpoqlarning qora uy lari o'ziga xos tarzda qurilgan bo'lib, u avvalo, xalqning milliyiligini o'zida aks ettiradi. Manbada ta'kidlanishicha, qora uy o'tmishda Sibirda yashovchi qavmlar orqali tarqalgan bo'lishi mumkin. Uni quruvchilar uychi deb hisoblanib, uychilik hunari otadan o'g'ilga meros sifatida o'tgan. Shu sababli qora uyni har kim ham qurish salohiyatiga ega emas [33].

Qora uy ni tiklash turli bosqichlarda amalga oshadi. Buning uchun maxsus moslamalar tayyorlanadi-ki, hunarmandlar tomonidan ishlov berilgan bu xildagi jihozlar orqaligina qora uy yanada mukammallik kasb etadi. Bu jihozlar quyidagilardir: 1) keraga – uyning qanotlari. Shu o'rinda qayd qilish o'rinli, qora uylar dastlab olti, shuningdek, o'n ikki qanotli qilib qurilgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, olti qanotli uylar hali to'la-to'kislikka erishmagan, yarim oila mazmunini anglatgan. Shu sababli kishilar farzandiga to'y berganda olti qanotli, nevara, chevaralariga to'y berishi oldidan esa o'n ikki qanotli qora uylarni qurishga odatlanishgan. Undagi olti soni hali to'liq bo'lmagan olti oyni, ya'ni yarim yilni, o'n ikki soni esa to'liq son – bir yilni bildirgan [34]. Yana bir manbada keltirilishicha, qora uy lar, markaziy, kattaroq, shuningdek, uning atrofiga kichikroq shaklda qurilgan. Agar qora uy o'rtaga o'rnatilsa, uning o'ng tomoniga qurilgan boshpana o'g'il farzandning uyi hisoblangan. Chap tomondagi qora uy esa qiz uchun maxsus bunyod etilgan. Tashqaridan kelgan odam so'ramasdan-oq, o'ng tomondagi uyga kirsam, bu uyning yaqinda uylangan yoki uylantirmoqchi bo'lgan o'g'li bor ekanligini, chap tarafdagi uyga kirsam, bu xonadonning balog'atga yetgan qizi borligini his qilgan [35].

Qora uy ni qurish uchun chidamli, baquvvat, egiluvchan yog'och yoki ingichkaroq to'qay tollari tanlangan bo'lib, ular odam bo'yidan balandroq shaklda qirgib, yo'nib chiqiladi. Ular qanot vazifasini bajarib, ishlov berilgan barcha tollar balandligi bir xil shaklda bo'lmaydi; 2) sha'araq – qora uy ning eng ahamiyatli qismi, tepasi. Qora uy ning sha'araq qismi yumaloq gumbaz tarzida, ikki qator yo'g'on va ingichka aylanadan iborat. Bu qoraqalpoq o'tovlarining boshqa xalqlarning qora uylaridan o'zgacha ekanligini bildiradigan asosiy belgilaridan biri bo'lib hisoblanadi» [36]. Qora uy ni isitish maqsadida uning ichiga o'tin yoqilgan-ki, tutun shu sha'araqdan chiqib ketishi mo'ljallangan. Hozirgi kunda ham ushbu «sha'araq, tutun» tushunchalari qoraqalpoqlarda «oila» ma'nosida qo'llaniladi; 3) o'q – keraga hamda sha'araqlarni tutashtirib turadi. U qora uy ning tepasini gumbazsimon

shaklga keltirishda muhim ahamiyatga ega. Shuni ham qayd qilish kerakki, qoraqalpoqlarda qora uy larning bunday aylanasimon va gumbaz shaklda qurilishi kuchli shamollarga bardosh berishni ta'minlagan. Bu xildagi uylar uzoq masofalardan qaraganda ham qop-qora bo'lib ko'rinib turgan. Shu nuqtayi nazardan, uylar nomi qora uy deb nomlangan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Qoraqalpoq xalqida qora so'zi oddiy qora rangni emas, balki ba'zi hollarda unga nisbatan keng tushunchani ifodalashi kuzatiladi. Hatto, millat nomini anglatuvchi «qoraqalpoq» etnonimi tarkibida qora so'zining qo'llanilishi uning konsept darajasiga ko'tarilganligi dalolatidir. Aslida qora salbiy ma'noni anglatadi. Biroq millat nomi – qoraqalpoq tarkibidagi qora so'zi bu xalqning “oddiy, soddadil, samimiy va mehnatkash” ekanligini bildiradi. Bu haqida qoraqalpoq xalqining atoqli shoiri I.Yusupov shunday degan edi: Qora tovon, qora fuqaro, Bobom qaysar kishi bo'lgan. Ko'ngli oq, qalpog'i qora, Yov bilan ko'p ishi bo'lgan. Dastlabki misradagi «qora tovon» iborasi: 1) «mehnatkash»; 2) «bechora, yalang oyoq» mazmunini ifodalaydi [37].

Qoraqalpoq xalqiga doir yana bir manbada ta'rif berilishicha, millat nomidagi qora so'zi qoraqalpoqlarning

oddiy, soddaligini bildiradi. Zero, shu kunlarda ham biz o'zlarimizni “qarapayim qoraqalpoq” deb ataymiz [38]. Qoraqalpoq tiliga oid lug'atda “qarapayim” – “oddiy”, “joy” deb izohlangan. Ana tilegi dunya juzindegi qarapayim xalqlarning dosliq tilegi (J.Aymurzaev). Men Shimbaydun qarapayim bir paxtakeshi (I.Yusupov) [39]. Shuningdek, qoraqalpoq tiliga doir manbada qora so'zining yigirmata ma'nosi izohlangan bo'lib, ulardan biri «oddiy» degan tushunchani anglatishi keltirilgan. Qora puqaras bulardun ishinde de barshiliq (Sh. Seytov) [40].

Xulosa va takliflar. Bunday tillararo va madaniyatlararo umumiylig va xususiylik o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining o'tmishdagi yashash sharoitlaridan kelib chiqib, olamga o'z idroklari nuqtayi nazaridan baho berganligi va anglagan narsa-hodisalari manzarasini tafakkuriga joylagan holda o'z tillarida qayta tasvirlanganligi, shu asosda har bir xalq milliy tafakkurida o'sha narsa-hodisaning konsept darajasiga ko'tarilganligi natijasidir. Konseptni lingvokulturologik jihatdan milliy-madaniy unsurlarga aloqador hodisa sifatida o'rganish muayyan millat til sohiblarining dunyoqarashi, olam haqidagi tushunchalari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Президентимиз Ш.М.Мирзиёвнинг 2019-йил 21-октябрь куни Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 30 йиллигига бағишлаб мухташам “Конгресс-холл” саройида ўтказилган тантанали маросимдаги нуткидан.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. –М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. –С. 29.
3. Арутюнова Н.Д. Логический анализ языка: Культурные концепты. –М.: Наука, 1991. –204 с.
4. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Изд. 2-е, испр.и доп. Академический проект. –М., 2001. –С. 40.
5. Павленис Р.И. Проблема смысла: Современный логико-философский анализ языка. –М.: Мысль, 1983. –С. 101-102.
6. Гвоздарев Ю.А. Описание фразеологии разных языков // Образование и функционирование фразеологических единиц. –Ростов на Дону, 1981. –С. 120.
7. Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари. Маъруза тезислари. –Тошкент, 2008. –Б. 11.
8. Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. –Тошкент: Шарк, 2010. –Б. 143.
9. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультура атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. –Т., 2001. –Б. 53.
10. Махмудов Н. Оламинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015. –№3. –Б. 8.
11. Сафаров Ш. Семантика. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. –Б. 268.
12. Махмудов Н. Тилининг мукамал тадқиқи йўллариини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№ 5. –Б. 9.
13. Воркачев С.Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. –№ 4. –С. 76.
14. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. –Минск: Тетра Системс, 2008. –С. 50.
15. Махмудов Н. Кўрсатилган мақола. –Б. 4.
16. Сафаров Ш.Кўрсатилган манба. –Б. 279.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. –Б. 804.
18. Курбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. фалсафа док-ри дисс (PhD). –Термиз, 2021. –Б. 115.
19. Ўша иш. –Б. 115-116.
20. Қарақалпақ тилининг түсиндирме сөзлиги. 3-том. –Нукус: Қарақалпақстан, 1988. –Б. 265.
21. Қарақалпақ тилининг түсиндирме сөзлиги. 4-том. –Нукус: Қарақалпақстан, 1992. –Б. 542.
22. Мамбетов К. Қарақалпақлардың этнографиялық тарийхы. Нөкис: Қарақалпақстан, 1995. –Б. 40.
23. Қарақалпақ тилининг түсиндирме сөзлиги. 4-том. –Нукус: Қарақалпақстан, 1992. –Б. 121.
24. Ишаев А. Қарақалпоғистондаги ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1977. –Б. 85.
25. Норбаева Ш. Хоразм шеваларидаги соҳавий лексика. –Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2014. –Б. 54.
26. Рахимова Р.К. К изучению татарской профессиональной лексики // Советская тюркология, 1980. –№ 4. –С. 90-91.
27. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент: Университет, 2000. –Б. 77.
28. Баскаков Н.А. Тюркские элементы в “Слове о полку Игореве”. –М.: Наука, 1985. –С. 129.
29. Қарақалпақ тилининг түсиндирме сөзлиги. 4-том. –Нукус: Қарақалпақстан, 1992. –Б. 224.
30. Низанов М. Қарақалпоқлар. Биринчи китоб. –Нукус: “Билим”, 2020. –Б. 233.
31. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. –Тошкент: Университет, 2000. –Б. 494.
32. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. –Б. 193.

33. К.Мамбетов. Қўрсатилган манба. –Б. 96.
34. Ўша манба. –Б. 96.
35. Низанов М. Қўрсатилган манба. –Б. 233-234.
36. Ўша манба. –Б. 241.
37. Пахратдинов Қ, Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилиниң фразеологизмлер сөзлиги. –Нөкис: “Қарақалпақстан”, 2018. –Б. 109.
38. Мамбетов К. Қўрсатилган манба. –Б. 46.
39. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 3-том. –Нукус: Қарақалпақстан, 1988. –Б. 131.
40. Санкибаева Р. Қарақалпақ тилиндеги “ақ” ҳәм “қара” сөзлериниң мәнилери ҳәм қолланылыўы. –Нөкис: “Қарақалпақстан”, 2020. –Б. 7.



Пошшажон КЕНЖАЕВА,

Тошкент давлат шарқишунослик университети Турк филологияси кафедраси доценти, филол.ф.д.

E-mail: umid7780@inbox.ru

ЎзМУ профессори, ф.ф.д. Х. Болтабоев тақризи остида

ARTISTIC EXPRESSION OF THE IMAGE OF TURKISH WOMEN IN THE MONOLOGUE - STORY

Abstract

The article reflects on the image of the spiritual world of women in the works of Naziha Merich, one of the great writers of modern Turkish storytelling. In writer's stories, a gallery of women who observe life, analyse it, think about life problems, human relationships, suffer from the vagaries of life and get wrapped up in their feelings, are taken as heroes. In particular, the article examines the image of women, their spiritual experiences, and the socio-psychological state of the female world depicted in the monologues of Naziha Merich. In the examples of the writer's stories such as "Overcoming hardship", "Hope of the poor", "Teacher", the inner experiences of literate, socially active, hard-working women who have not lost their identity in the midst of life's problems have been analysed.

Key words: Turkish storytelling, monologue-story, psychological analysis, female image, spiritual experience, style, genre, literary process, expression, hero.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ТУРЕЦКИХ ЖЕНЩИН В РАССКАЗЕ - МОНОЛОГЕ

Аннотация

В статье размышляется об изображении духовного мира женщины в произведениях Назихи Мерич, одной из знаменитых писательниц, современного турецкого рассказа. Героями её рассказов является целая галерея женщин, которые наблюдают за жизнью, анализируют ее, думают о жизненных проблемах, человеческих отношениях, страдают от превратностей жизни и погружаются в свои чувства. В частности, в статье исследуется образ женщины, ее душевные переживания и социально-психологическое состояние женского мира, изображенные в рассказах-монологах Назихи Мерич. На примерах рассказов писателя, таких как «Преодоление невзгод», «Надежда бедных», «Учитель», показаны внутренние переживания грамотных, общественно активных, трудолюбивых женщин, не утративших свою индивидуальность среди жизненных проблем.

Ключевые слова: Турецкое рассказ, рассказ-монолог, психологический анализ, женский образ, душевные переживания, стиль, жанр, литературный процесс, выражение, герой.

МОНОЛОГ – ХИКОЯДА ТУРК АЁЛЛАР ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ

Аннотация

Мақолада замонавий турк хикоячилигининг йирик адибаларидан бири Назиха Мерич ижодида аёл рухий оламининг тасвири ҳақида фикр юритилади. Адиба хикояларида ҳаётни мушоҳада қилувчи, таҳлил этувчи, турмуш муаммолари, инсоний муносабатлар йўсини борасида ўй сурувчи, тирикчиликдаги нобопликлардан изтироб чекадиган ва ўз туйғуларига ўралашиб қолган аёллар галереяси қаҳрамон қилиб олинган. Хусусан, мақолада Назиха Меричнинг монолог-хикояларида тасвирланган аёллар образи, уларнинг рухий кечинмалари, аёл оламининг ижтимоий-психологик ҳолати тадқиқ этилган. Ёзувчининг “Машаққатни енгмоқ”, “Умид фақирнинг нони”, “Муаллим” сингари хикоялари мисолида ҳаёт муаммолари қуршовида ўзлигидан кечмаган, хат-саводли, ижтимоий фаол, меҳнатқаш хотин-қизларнинг ички кечинмалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Турк хикоячилиги, монолог-хикоя, психологик таҳлил, аёл образи, рухий кечинма, услуб, жанр, адабий жараён, ифода, қаҳрамон.

Кирриш. XX асрнинг 60-80 йиллари турк насида қатор специфик янгилашлар билан бир қаторда яққол кўзга ташланадиган яна бир муҳим жиҳат аёллар хикоячилиги тараққиётидир. Хусусан, 60-80 йиллар аёллар хикоячилигидаги монолог-хикоялар гуруҳини таснифлашда биз уларнинг монологик баёнлаш услуби ва кўпроқ аёл ботини талқинига қаратилганига таяндик. Турк адабиётшунослигида монолог ва монологик нутққа нисбатан: “Якка шахснинг ўз-ўзи билан гаплашиши, ўзини таништириши ва драматизм кўринишидаги кичик шеърый комедиялар ҳам монолог дейилади. Бугун монолог термини “ички монолог” ёки “ички тил” шаклида ҳам қўлланилиб, улар асосан роман ва хикоя жанрида кузатилади. Бошқача айтганда, “ички монолог” ҳозирда роман ва хикоя жанрида мурожаат этиладиган ифода усули ҳисобланади”, деган таъриф берилади [4]. Монолог якка шахснинг ўз орзу-ўйлари, амалга ошмаган афсус-

армонлари, айни чоғдаги қувончли ёки қайғули ҳолатларини ҳис-ҳаяжон билан ифодалашга ёрдам берувчи энг қулай нутқдир. Монологлар ички (овозсиз) ва ташқи (овозли), ҳажман катта ёки кичик бўлиши мумкин. Одатда қаҳрамонларнинг ички монологи асарда рўй бераётган ғоят кучли драматик ҳодисалар таъсирида мураккаб вазиятга тушиб қолган инсоннинг рухий оламини чуқур таҳлил этишга ёрдам беради. “Персонажнинг рухий ҳолатини унинг ўйлари орқали изҳор этган якка нутқ, одатда ички монолог деб аталади,” [7] - деб ёзади академик И.Султон. Бу икки таъриф ҳам монолог спецификасининг муайян қирраларини ифодалайди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Турк адабиётшунослигида Н.Мерич ижодига бағишланган бир қатор илмий тадқиқотлар олиб борилган. Хусусан, адиба ижодида хикоя жанрининг ўрни, жанр имкониятлари [10]

образлар оламининг ўзига хослиги, ёзувчи услуби [8] ҳақида монографик тадқиқот ва илмий рисолалар нашр этилган. Қолаверса, унинг асарларида 70-йилларда турк ижтимоий муҳитида яққолроқ намоён бўла бошлаган курашчан аёл образи, 80-йиллардан эътиборан эса ўз озодлиги учун масъул, бунинг учун эркалар дунёсида муросасиз кураш олиб бораётган, зиддиятлардан изтироб чекаётган аёл талқини Ф.Андачининг “Адабиётимизнинг адибалари” номли китобида [9] қисман таҳлил қилинган. Бундан ташқари, Н.Меричнинг “Каклик кўшиғи” номли ҳикояси ўзбек тилига таржима қилинган ва ижоди ҳақида ҳам қисқача маълумот берилган [2].

Тадқиқот методологияси. Замоनावий турк ҳикоячилигининг тараққиёти, хусусан, Назиха Мерич ижодини ўрганишда биографик, киёсий-тарихий ва психологик таҳлил методларидан фойдаланилди. Адибанинг “Машаққатни енгмоқ” ҳикоясини тадқиқ этишда психологик таҳлил методидан, “Умид фақирнинг нони”, “Муаллим” ҳикоясидаги аёл образининг ички оламини таҳлил қилишда биографик метод тамойиллари ва усулларидан кенг фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. 60-80 йиллар турк аёллар ҳикоячилигида бадий баённинг юқорида таърифланган монологик шакли етакчилик қиладиган ҳикоялар шаклланди. Бу ҳолат тасодиф бўлмай, ўзининг қатор бадий, ижтимоий, психологик омилларига эга. Булар: а) худди шу йиллардан эътиборан ҳикоя жанри сюжетига аёл бош қаҳрамонлар кириб кела бошлагани; б) ижтимоий турмушда аёллар ролининг ошиши; в) жамиятда аёлларга нисбатан муносабатнинг ижобий томонга ўзгариши; г) турк аёллари психологиясидаги ўзгаришлар билан изоҳланади. Аввало, шуни қайд этиш лозимки, 60-йиллардан эътиборан турк насридаги янги йўналишлардан бири марказида аёл қаҳрамонлар турадиган асарлар пайдо бўлди. Бу асарлардаги муҳим тамойил анъанавий адабиётдаги реал турмуш шароитида бир индивид сифатида ҳаракат қилаётган аёл образи тасвирида фарқ қилади. Эндиликда аёлни ўз ички кечинмалари, қувонч ва изтироблари, муайян мақсадлари ҳамда вазифаларига эга мустақил субъект сифатида тасвирлаш урфга кира бошлади. А.Кулоҳлиўғлининг фикрига кўра, бу давр адабиётида: “Аёл олами, унинг турмуш тарзи ва ёши масалалари аёл ёзувчилар диққатини ўзига жалб этди” [5]. Маълумки, Назиха Мерич 50-йиллар авлоди ёзувчилари сирасига мансуб. Замоनावий ғарб ҳикояларини чуқур ўрганган, улардан ижодий таъсирланган Н.Мерич турк адабиётшунослари томонидан “Жумхурият даврининг илк аёл ёзувчиси” [9] сифатида тан олинади. Н.Мерич ҳикояларига мавзу ва характерлар турфалиги хос. У расм-русумлар олдида ожиз қолган аёл дардини нозик қалб соҳибаларига монанд ҳис этиши баробарида, аёлга хос тасвир ритмида ифодалади. Шу боис адиба ҳикояларида психологик тасвир муҳим ўрин тутди. Қаҳрамонларнинг зоҳири, портрет чизгилари эмас, ботин тасвири, ботинан озод аёл психологиясига кенг ўрин берилади. Адибанинг “Машаққатни енгмоқ” ҳикояси ички монолог усулига қурилган бўлиб, сюжет динамикасини нозик туйғуларнинг психологик тасвири ташкил этади. Қаҳрамон ҳолатининг психологик баёни биринчи шахс - “мен” тилидан олиб борилади. Бу ботин тасвири ва монологик нутққа хос психологизмнинг кучайишига хизмат қилади. Қаҳрамон ички дунёси (хаёли)да кечаётган зиддиятли ҳолат гўёки аёлининг ноқобил эрга эътирозлари тарзида намоён бўлса-да, моҳиятда ботин оламидаги иккиланган ички “мен”лар ўртасидаги мунозаралар. Бунда аёлдаги итоатгўйлик ва кўркув билан норозилик ва исён ўртасида кураш кетади. У реал ҳаётда бажараётган ҳар бир ҳаракат, гап-сўзга ичидаги битта “мен” нейтрал муносабат билдирса, бошқа

бир “мен” ўз эркисизлиги, итоатгўйлиги учун изтироб чекиши баробарида, исён ҳам кўтаради. Ҳикояда қаҳрамон руҳиятида содир бўлган ички зиддиятлар ҳикоя мазмунини субъектив трагизмга томон ўзгаришини таъминлаган. Қаҳрамон ботинидаги психологик кураш унинг реал ҳаётдаги қийинчиликларининг бўртиб кўринишига хизмат қилган. Ёш қаҳрамоннинг оиласи бор, ёнида умр йўлдоши бор, лекин ботин оламида ёлғизлик ҳукмрон.

Ҳикояда яна битта қаҳрамон бор. У кексайиб қолган. Четдан қараган одамга одамови, сирли, ғалати аёл бўлиб кўринади. Ёлғиз ҳаёт кечиради. У одамлардан узокроқда, яъни тепаликда яшайди, одамлар унга озик-овқат келтиришади. Бу қаҳрамон тасвирида муаллиф характер психологиясини ички монолог воситасида эмас, хатти-ҳаракатларнинг психологик тасвири орқали беришга уринади. Ўйлашимизча, бунга эриша олади:

“Çok ihtiyar. Uyur bütün gün. (...) Sokmaz insanı yanına. Yaklaşmaz tepeye. Ne yapar, ne eder bilmeyiz. Soğuk havalarda ocağımı tüter görürüz, deriz daaa ölmemiş ya bu!” Bahar gelince, yukarda, tepede görünür, elini kolunu sallarmış. Hemen koşar, ona yoğurt, süt, peynir götürürlermiş. Yukarı çıkmak yok. Tepenin ortalarında bir yerdeki üç zeytin ağacının altına bırakılacak. O değneğine dayana dayana iner almış.” [6].

Бу кампир характери дафъатан ўзбек ёзувчиси Назар Эшонқулнинг “Шамолни тутиб бўлмайди” ҳикояси қаҳрамони Байна момони эслатади. Эри ва ўғлининг ўлими учун бутун жамиятга душман бўлиб яшаган Байна момо ҳам ҳеч ким билан яқин бўлмайди. Ўз яқинларинида ёнига йўлатмайди.

Адибанинг “Умид фақирнинг нони” ҳикоясида ўз умидларини қалқон қилиб яшаётган қашшоқ бир инсон ҳақида ҳикоя қилинади. “Ҳолсиз, озгин аёл йўл четидан орзу-мақсадларига қафан бичганча кетиб борарди. Бошидаги гулли ёпинчиғи оқарган, устидаги қора кийимининг ранги ўчиб увадаси чиққан”, - деб бошланади ушбу ҳикоя. Тасвирдан кўриниб турибдики, аёл ҳаётда кийналган. Унинг “орзу-мақсадсиз”лиги ҳикоя аввалидан китобхонни ўйга толдиради. Воқеалар ривожланган сари қаҳрамон умиди ҳам уйғона боради. Асар юксак оптимизм руҳи билан тугалланади:

“Annesi ona neler anlatmıştı: Babası iyiymiş... yakında çıkacakmış... Gelecek hafta, inşallah paraları olacaktı, tramvaya binip babasına birlikte gideceklerdi. Annesi ‘Semaat’çığına artık hep pilav pişirecekti. Bir gün de pirzola yapacaklardı. Annesi ona beyaz lastik ayakkabı da alacaktı; beyaz kısa çorap da. Hatta o küçücük aklıyla kendi kendine: ‘Belkileyim bayramda taftadan kurdele bilem alırım’ diyordu.” [6].

Ёзувчи ҳикоячилигининг яна бир ўзига хос жиҳати ундаги автобиографикликда кўринади. Айниқса, ўқитувчи қаҳрамонлар иштирок этган ҳикоялар тасвири ёзувчининг ҳаёт тажрибалари асосига қурилган. Масалан, “Лойқа” тўпламидаги “Муаллим” ҳикоясининг бош қаҳрамони мусиқа ўқитувчиси. Ёзувчи таржимаи ҳолида бевосита шу мавзуга алоқадор маълумотлар учрайди. Адиба 1947 йилда Ҳейбелида мактабида мусикадан дарс берган. Ҳикояга синчиклаб назар солсак, мактаб ўқитувчиси ҳаёти, унга хос профессионализм, тажрибавий хулосалар очик-ойдин намоён бўлади.

Муаллиф ва қаҳрамон ўртасидаги узвийлик, бадий асардаги “муаллиф образи” хусусида адабиётшуносликда турли баҳслар мавжуд. Айрим адабиётшуносларда “муаллиф образи” ва муаллиф ўртасида тенглик аломатини кўйишга мойиллик сезилади. Аммо, бизнингча, бу икки ҳодисани айнанлаштириш мумкин эмас. Ҳаётдаги муаллифга ҳеч қачон асардаги

муаллиф тенг бўла олмайди. Ҳаётдаги муаллиф “муаллиф образи”га кўра анча кенг. Чунки у тирик одам. Бирор бир асар, айниқса ҳикоя жанрида инсонга хос барча хусусий жиҳатларни тасвирлаш мумкин эмас. Рус адабиётшуноси М.Бахтин бу ҳақда шундай ёзади: “Биз муаллифни асардан ташқарида, ўз ҳаёти билан яшаётган биографик одам сифатида биламиз. Аммо у билан муаллиф сифатида асарда ҳам учрашамиз. Фақат унга тегишли бўлган тасвирланмиш хронотопдан ташқарида дуч келамиз. Биринчи навбатда биз уни асар композициясида кўрамиз. У асарни қисмларга ажратади... Бу каби қисмлаштириш турли жанрларда турлича содир бўлади... Юқорида айтганимиздек, муаллиф-ижодкор ўйи тасвир этган дунё ташқарисида туриб шу хронотопларга тегишли бўлади. Муаллиф бу оламни ё воқеликда тасвир этилган қаҳрамон, ё ҳикоянавис, ё сохта муаллиф, ё асл муаллиф ўларок (тўғридан-тўғри муаллиф ички нутки орқали) ўз нуқтаи назарига кўра тасвирлайди” [1]. Н.Мерич ҳикояларида ҳам биз “муаллиф образи”ни турли ҳолат ва вазиятларда

кўрамиз. “Муаллим”га ўхшаган баъзи ҳикоялари эса ёзувчи биографиясидаги муайян нуқталар билан туташар экан, бу асар жозибасини янада оширишга хизмат қилади.

Хулоса ва таклифлар. Кузатганимиздек, Назиха Мерич турк ҳикоячилиги тараққиётига катта ҳисса қўшган ёзувчилардан бири ҳисобланади. Қисқа ҳикоя жанридаги янгиликлардан боғабар ёзувчи ҳикояларида Европа ҳикоячилигига хос турли усуллардан фойдаланади. Аммо уларни янгиллаши, миллийлаштириши билан индивидуалликка эришади. Умуман, турк адабиётида ҳикоя жанрининг янгиланишида адиба ижодининг тақрорланмас ўрни бор, дейишга асослар етарли. Хусусан, Назиха Мерич қаҳрамонлари кўпроқ кучли рухий ғалаёнлар, чексиз маънавий таназуллар исканжасида акс эттирилади. Адиба асарларида ҳаётнинг аччиқ зарбалари, турмушнинг аёвсиз синовлари натижасида шахслиги, маънавий олами имтиҳондан ўтаётган аёллар ҳаётини кўрсатиш асносида турк ҳикоячилигида янги қаҳрамонлар силсиласини барпо этди.

АДАБИЁТЛАР

1. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар. Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси.-Т.: Akademnashr, 2015.
2. Елўқ В.С., Кенжаева П. Кутилмаган меҳмон (турк ҳикоялари таржимаси). -Т.: Академнашр, 2011.
3. İleri S. Türk Öykücülüğünün Genel Çizgileri // Türk Dili. Türk Öykücülüğü Özel Sayısı. Sayı: 286. 2008. -S.23.
4. Karataş T. Ansiklopedik Edebiyat Terimleri Sözlüğü. Sütun Yayınları. İzmir-2014.
5. Külahlıoğlu İ.A. Cumhuriyet Dönemi Türk Hikayesi / Yeni Türk Edebiyatı (1839-2000). Edit. Ramazan Korkmaz. Grafiker Yayınları. Ankara-2015.
6. Meriç N. Toplu Öyküleri – II. YKY. İstanbul – 1998.
7. Султон И. Адабиёт назарияси. Дарслик Т-1986.
8. Tosun N. Nezihe Meriç: Çavlanın İçinde Tek Başına / Öykümüzün Kırk Kapısı. Hece Yayınları. Ankara-2013.
9. Feridun A. Edebiyatımızın Kadınları. Dünya Kitapları, İstanbul-2004.
10. Önder A. Nezihe Meriç’in Öykücülüğü. Yüksek Lisans Tezi. Çukurova Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı. Adana-2006.



Sanobar KULDASHEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: kuldasheva1777@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professori, f.f.d. B.To‘xliyev taqrizi asosida

“SODDA VA QO‘SHMA GAPLAR” MAVZUSINI MUSTAHKAMLASHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili darslarining mavzuni mustahkamlash bosqichlarida, yangi mavzu o‘tilgandan keyingi darslarda multimedia majmualaridan foydalanish, videolavhalar ustida topshiriqlar ishlash metodikasi haqida so‘z boradi. Olimlarning ona tilini o‘qitishda multimedia vositalarining afzalliklari haqida aytgan fikrlari tahlilga tortilgan. “Sodda va qo‘shma gaplar” mavzusida videolavhalar vositasida yaratilgan dars ishlanmasi, turli topshiriqlar metodik tahlil qilingan va tavsiya etilgan. Mavzu doirasida o‘quvchining malaka talablari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: multimedia vositalari, videolavha, malaka talablari, audiovizual vositalar, og‘zaki nutq, lingvistik kompetensiya, anglash.

THE ROLE OF MULTIMEDIA IN STRENGTHENING THE TOPIC OF “SIMPLE AND COMBINED SENTENCES”

Abstract

This article talks about the use of multimedia complexes in the stages of strengthening the topic of the mother tongue lessons, in the lessons after the new topic has been taught, and the methodology of working on assignments on videos. The opinions of scientists about the advantages of multimedia tools in teaching the mother tongue are analyzed. On the subject of “Simple and Compound Sentences”, lesson plans created with the help of videos, various tasks were methodically analyzed and recommended. Within the subject, the student's qualification requirements have been developed.

Key words: multimedia tools, video, skill requirements, audio-visual tools, speaking, linguistic competence, comprehension.

РОЛЬ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В УКРЕПЛЕНИИ ТЕМЫ “ПРОСТЫХ И СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ”

Аннотация

В данной статье рассказывается об использовании мультимедийных комплексов на этапах закрепления темы уроков родного языка, на уроках после изучения новой темы, методике работы над заданиями по видео. Анализируются мнения ученых о преимуществах мультимедийных средств в обучении родному языку. По теме “Простые и сложные предложения” были методично проанализированы и рекомендованы планы уроков, различные задания, созданные с помощью видеороликов. В рамках предмета разработаны квалификационные требования к студенту.

Ключевые слова: мультимедийные средства, видеоролик, требования к навыкам, аудиовизуальные средства, говорение, языковая компетенция, понимание.

Kirish. Bilamizki, o‘quv jarayonida tatbiq etilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat ushbu sohadagi bilim va ko‘nikmalarning shakllanishiga, balki o‘quvchi dunyoqarashining kengayishiga, shaxsiy fazilatlarining takomillashuviga ta‘sir ko‘rsatadi, bilim olish jarayonining o‘ziga nisbatan qiziqishini oshirishga, o‘rganishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko‘plab olimlarning fikriga ko‘ra, multimedia vositalari o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham jiddiy ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Matn, nutq, grafika, animatsiya, musiqa, video va turli xil usullarning kombinatsiyasidan dars mashg‘ulotlarida unumli va o‘rinli foydalanib darsning mazmuni va shaklini ta‘minlash o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi: ma‘lumotlardan tezkor foydalanish, audio va vizual materiallardan istalgan makon va zamonda foydalana olish mumkinligi, ko‘rib idrok qilishni, mustaqil, ongli ravishda xulosa chiqarishni osonlashtiradi. “Ta‘lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta‘limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz”[1]. Boy berilgan imkoniyatlarni joyiga keltirishning yagona yo‘li ta‘lim jarayonlarini tezkorlik bilan jahondagi ilg‘or tajribalar

darajasiga yetkazib borish bilan hal etiladi. Buning eng qulay va ishonchli yo‘llaridan biri esa ta‘lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini kengroq tatbiq qilish bilan ham belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Multimedianing paydo bo‘lishi va uning shakllanish jarayoni uning asosiy texnik ta‘minoti bo‘lgan kompyuterning rivojlanishi bilan bog‘liq. Ye.S.Polatning fikricha, “Multimedia vositalari asosidagi darslar o‘quvchining ongosti reaksiyalariga materialni idrok etish va eslab qolishga yordam beradigan psixologik daqiqalarni yaratadi”[2]. E.G‘oziyev “har qanday faoliyat muayyan motivlar ta‘sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta‘lim jarayonida o‘zlashtirish, egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta‘minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart”ligini ta‘kidlaydi[3]. Bilish motivlari shaxsda bilish, bilim va ko‘nikmalarni egallash maqsadini qaror toptiradi, ya‘ni shaxsni gnoseologik maqsad sari yo‘naltiradi. Multimedia vositalari orqali tashkil etilgan dars mashg‘ulotlarida bilishning ham tashqi, ham ichki omillari yordamida o‘quvchi shaxsida o‘quv motivlarini shakllantirishga erishiladi. Masalan, o‘quvchilarni kichik guruhlarda birlashtirib jamoa tashkil etish, animatsiyalar vositasida bilimni baholash, aniq va to‘g‘ri to‘xtamga kelmaguncha boshqa sahifaga o‘tkazmaslik, sinf xonasiga

zamonaviy kommunikatsiya muhitini olib kirish, o'quvchini yangi g'oyalari sari yetaklash, ijodkorlik, kreativ fikrlashga undash kabilar bevosita multimedia vositalari yordamida o'quv maqsadga nisbatan tashqi omilni vujudga keltiradi. Animatsiyalar harakatlanishi, ranglarning uyg'unligi va o'zgarib har tusga kirishi, ovoznining matn va harakatlarga mutanosibliqi orqali o'quvchi shaxsining tuyg'ulariga (sezish, his qilish, rohatlanishi, kayfiyatining ko'tarilishi) ta'sir o'tkazish mumkinki, bular o'qishga nisbatan individual maqsadni yuzaga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida hosil bo'ladigan ichki omillar hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida vujudga keltirish oson kechadigan bunday omillar bilishga nisbatan qiziqishni vujudga keltiradi. Bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi esa shaxsning ma'naviy darajasini oshirish uchun intilishning yetilishidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz o'z tajribalarimizda "Sodda va qo'shma gaplar" mavzusini mustahkamlashda tayyorlangan multimedia majmuamizdagi videolavha asosida topshiriqlar yaratdik va sinovdan o'tkazdik. Avvalambor, 9-sinfda tahsil olayotgan o'quvchi sodda va qo'shma gaplar doirasida nimalarni bilishi kerak? Sodda va qo'shma gaplar mavzusini tushuntirganda nutqiy va lingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun qanday malaka talablari ustida ishlash kerak? Dastlab belgilangan o'quv dasturi asosida 9-sinfda tahsil olayotgan o'quvchi uchun taklif etayotgan texnologiyamiz orqali erishilishi nazarda tutilayotgan quyidagi nutqiy hamda lingvistik kompetensiya malaka talablarini bir mavzu doirasida belgilab chiqdik.

Nutqiy kompetensiya (og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

| Malaka talab kodi | Og'zaki nutq |
|-------------------|--|
| ON.1 | O'zbek tilining qonun-qoidalariga amal qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta'sirchan va ravon so'zlay olish; |
| ON.2 | Mavzudan chetlashmagan holda fikr va g'oyalarni taqdimot ko'rinishida tayyorlay olish; |
| ON.3 | Ma'lum mavzu yuzasidan nutq namunasini tayyorlay olish va so'zlash; |
| ON.4 | Grafikli chizma va diagrammalarni og'zaki ifodalay olish; |
| ON.5 | Nazm va nasrda ifoda etilgan asar (yoki uning parchasi)ni ijro etishda nutqning verbal yoki noverbal imkoniyatlaridan foydalana olish; |
| OH.6 | Berilgan matn, rasm, audio va videomaterial asosida o'z fikrlarini ifodalash; |
| OH.7 | Nutq so'zlaganda argument va iqtiboslardan o'rinli foydalana olish, notiqlik san'ati me'yorlariga amal qilish. |

| | Tinglab tushunish |
|-------|---|
| ATT.1 | Turli shakldagi nutq va bahsni eshitib tushuna olish; eshitilgan monologik nutq va suhbat haqidagi savollarga javob bera olish, unga munosabat bildirish; |
| ATT.2 | Turli uslubdagi audio yoki videomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish; |
| ATT.3 | Gap ohangidagi uslubiy vositalar (kinoya, piching, kesatiq, istehzo, mublag'a, lof, yumor)ni tushunish; |
| ATT.4 | Eshirilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish; |
| ATT.5 | Tinglangan nutqning ruh(pafos)ini anglash va unga munosabat bildira olish. |

Lingvistik kompetensiya

| Malaka talab kodi | Yozma savodxonlik |
|-------------------|---|
| 9.LK.IM.1 | Imlo qoidalarini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish |

| Malaka talab kodi | Sintaksis |
|-------------------|---|
| 9.LK.S.1 | Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalarni, uning qismlari orasida tinish belgilarining qo'llanishini farqlay olish; |
| 9.LK.S.2 | Bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarni farqlash, nutqda to'g'ri qo'llay olish; |
| 9.LK.S.3 | Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar haqida bilish, ularning tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish; |
| 9.LK.S.4 | Nutq uslublarini o'ziga xos jihatlari bilish va farqlay olish, ulardan nutq amaliyotida foydalana olish |

Internet sahifalaridan mavzuga mos keladigan videomaterial tanlab oldik. U ham bolaning nutqi ustida ishlash, ham nazariy ma'lumot berish samaradorligini ko'rsatishga xizmat qilishi lozim.

Videolavha "Garajda yaratilgan startap: innovatsiya laboratoriyasi" deb nomlanadi (kun.uz).

1-topshiriq. Videoni ko'rish jarayonida tayanch so'z va iboralarni daftarlarigizga qayd etib boring. (O'quvchilar o'zlarini uchun mavhum bo'lgan yoki tayanch deb hisoblagan so'zlarini daftarlariga yozib boradilar).

2-topshiriq. Videolavhani diqqat bilan kuzating. Uning asosiy mazmunini qayta so'zlab bering.

Asosiy maqsad adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda ketma-ketlik asosida izchil, mazmunli, ifodali, ravon, ta'sirchan so'zlab berishga undashdan iborat. O'quvchi o'zini erkin tutishi, nutq so'zlayotganda gavda, qo'l harakatlariga e'tiborli bo'lishi, o'rtoqlarining diqqatini o'ziga qarata olishi, qisqa qilib aytganda, shu asosda ularga notiqlik san'ati ham o'rgatib boriladi. Matnda keltirilgan argumentlar o'quvchi tomonidan boyitilishi mumkin, ya'ni fikrlarni to'ldirishga va qo'shimchalar kiritishga imkon beriladi. "Bola nutqi, agarda u atrofdagilarga tushunarli bo'lsagina ishonchli muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa fikrni so'zlashda izchil, ravon va to'liq ifodalashga, aniq so'zlarni tanlashga, talaffuzning sofligi va to'g'riligiga bog'liq. Qulay shart-

sharoitlarda u yoki bu darajada ushbu xususiyatlar bolada aniq reja asosida o'qitish, turli metodik usullarni qo'llash yo'li bilan hosil qilinadi"[4].

O'qituvchi har bir o'quvchining nutqini diqqat bilan kuzatib boradi, undagi kamchiliklarga e'tibor qaratiladi. Imkon darajasida o'quvchi nutqidagi xato va kamchiliklar, o'z nutqi orqali atrofdegilarini boshqara olishi, omma oldida o'zini tutishi va boshqalar o'z tengdoshlari (sinfdoshlari, guruhdoshlari) ishtirokida muhokama qilinadi. "Ma'lumki, eshitish mashqlari tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi, va ayni paytda, talabalarda tinglab tushunganlarini so'zlab berish ko'nikmalarini takomillashtirishga ham zamin tayyorlaydi"[5]. Talabalar uchun mo'ljallangan mazkur kuzatishlardan, nazarimizda, umumiy o'rta ta'limi tizimida ham foydalanish nojoiz ko'rinmaydi. Ko'rganlari va eshitganlarini anglash, u asosida fikr yuritish va xulosa chiqarish malakalari ham shakllanadi. "Bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi hissiyotlar bilan bog'lanib, olinayotgan bilimlarni nutqiy muloqot ehtiyoji bilan muvofiqlashtiradi, nutqning sintaktik jihatdan boyligi o'quvchida o'z nutqining ta'sir kuchiga ishonch paydo qiladi. Barcha o'qitish metodlari va vositalari o'quvchilarga chuqur va puxta bilim berish, o'quvchi nutqini o'stirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qilishi kerak. Buning uchun o'qituvchi mazkur o'qitish metodlariga ijodiy yondashishi, mavzuga, ta'lim maqsadi va vazifalariga mosini tanlashi, uni samarali holda qo'llashi, ya'ni ularga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishi zarur"[6]. Bevosita topshiriqlar tizimiga o'tishdan oldin ayrim terminologik har xilliklar haqida to'xtab o'tish joiz ko'rinadi. Odatda, matn yoki nutqning tipi haqida gap ketganida ularning uchta turi ajratiladi. Bular rus tilida "povestvovaniye", "opisaniye", "rassujdeniye" shaklida uchraydi. O'zbek tilida ular odatda hikoyalash, tavsif hamda mulohaza tarzida ifodalangani. Amalda ularni turlicha qo'llash ham kuzatiladi[5]. Biz 2-

topshirig'imizda nutqning qayta hikoyalash turidan foydalandik.

3-topshiriq. Qo'shma gaplarni aniqlang.

Videorolik matnining qog'ozda yozilgan varianti o'quvchilar qo'lga tarqatiladi. O'quvchilar matndagi gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratib chiqishadi. Gaplardagi kesimlarni aniqlash hamda qo'shma gaplarni bog'lovchi vositalarga e'tibor qaratiladi. 2-topshiriqni bajarishda nutqiy kompetensiya lingvistik kompetensiya tomonga yo'naltiriladi.

Videolavhaning matni: Dunyodagi eng yirik internet do'kon Amazon hisoblanadi, Disney esa multiplikatsion mahsulotlari bilan butun dunyo bolalari qalbini zabt etdi. Bir kunda millionlab odamlar foydalanadigan qidiruv tizimi – Google va nanotexnologiyani innovatsiyaga aylantirayotgan – Lotus engineering. Ularni nima bog'lab turishini bilasizmi? Ularning barchasi o'z faoliyatini oddiygina garajda boshlagan va yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan. Amazon, Disney va Google dunyoga mashhur, ammo Lotus engineering ham hali o'z yo'li avvalida bo'lishiga qaramay, kўплаб foydali loyihalarni amalga oshirishga ulgurdi.

Lotus engineering – Yevropaning qay bir burchagida joylashmagan, balki o'zimizning Toshkentda joylashgan laboratoriyaning nomi. U shunchaki oddiy tajribalar o'tkaziladigan laboratoriya emas. U yerda nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo uchun ham hali yangi bo'lgan yo'nalish – nanotexnologiya kuchidan foydalanigan holda innovatsiyalar yaratiladi va jamiyatga tatbiq etiladi. Eng qizig'i, u qachonlardir mashina tuzatishga xizmat qiladigan oddiy garajda joylashgan.

Lotus engineering loyihasi rahbari Amir Obidov ilg'or materialshunoslik va injiniring doktori, professor. U Janubiy Koreyada magistratura va doktorantura bosqichlarida tahsil oldi, ilmiy ishini yoqlab O'zbekistonga qaytgan yosh olim faoliyatini yangicha yo'sinda davom ettirish haqida o'ylay boshladi...

| Sodda gaplar | Qo'shma gaplar | Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar |
|--------------|----------------|---|
| | | |

4-topshiriq. Matndagi sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirib.

Ekraning bir tomonida matn, ikkinchi tomonida sodda gaplarni bog'lovchi vositalar chiqarib qo'yiladi. Vaqt ajratiladi, berilgan vaqt davomida matn tarkibidan xohlagan 3 ta sodda gapni topib qo'shma gapga aylantirishi lozimligi aytiladi.

O'quvchi sodda gaplarni qo'shma gapga aylantirganda mavzuga ijodiy yondashadi: sodda gapning davomini o'ylab topish unda tegishli "zo'riqish"ni yuzaga keltiradi, u izlashga, o'ylashga majbur bo'ladi. Buning natijasida esa munosib so'z va so'z birikmalari, aniq javob bo'la oladigan fikr davomini aks ettiruvchi jumla (yoki gap) paydo bo'ladi, demakki, ongli faoliyat, nutqiy rivojlanish, lug'at boyligining ortishi yuzaga keladi.

5-topshiriq. Mazkur topshiriqda Y2 (Matching) ko'rinishidagi topshiriqlardan foydalandik. O'quvchi ikkinchi ustunda berilgan gaplarning mazmuniga mos gaplarni to'rtinchi ustundan topib, uchinchi ustunda raqamini yozadi. Kompyuter xotirasiga to'g'ri javoblar kiritilgan bo'ladi, shuning uchun o'quvchi to'g'ri javobni topmaguncha kompyuter uning javobini qabul qilmaydi. Garchi topshiriqdagi to'g'ri va noto'g'ri javoblar kompyuter xotirasiga kiritilgan bo'lsa-da, go'yoki jarayonni animatsiya boshqaradi. To'g'ri javobni xursand bo'lib qabul qilishi, noto'g'ri javobdan xafa bo'lishi, o'quvchiga avtomatlashtirilgan holda "Barakalla", "Ofarin", "Qayta urinib ko'ring" kabi jumalar bilan reaksiya bildirishlari bolaning kayfiyatiga ijobiy ta'sir qiladi, ruhan qo'llaydi, bilmagan bilimlarini izlanib o'rganish motivlarini oshiradi. Shu bilan

birga o'quvchini baholashda nechanchi urinishda topganligi va sarflangan vaqt inobatga olib boriladi.

Uyga vazifa ham shu videomaterial asosida berildi. Har bir guruh o'quvchilari o'zlari yozib olgan so'z va iboralarning ma'nosini internet qidiruv tizimlari va elektron lug'atlardan foydalanib mustaqil ravishda topib kelishadi.

1-guruh: Disney, startap, injiniring, magistratura...

2-guruh: Google, doktorantura, nanotexnologiya, Amazon...

3-guruh: nanokukun, innovatsiya, materialshunoslik, loyiha...

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bu bilan o'quvchida internet manbalaridan unumli foydalanish, manba va materiallarni qidirish va izlab topish, mustaqil bilimlarini boyitish, o'z ustida ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Shunday qilib belgilangan dastur asosida ishlab chiqqan nutqiy kompetensiya malaka talablarimizning 9.NK.ON.1, 9.NK.ON.3, 9.NK.ON.6, 9.NK.ON.7; 9.NK.ATT.1, 9.NK.ATT.2, 9.NK.ATT.3, 9.NK.ATT.5, 9.NK.ATT.6 qismlari, lingvistik kompetensiya malaka talablarining 9.LK.IM.1, 9.LK.S.1, 9.LK.S.2 qismlari bajariladi. Bolada nutqiy kompetensiya elementlari bilan birga axborot vositalari bilan ishlash, ma'lumotni anglash, saralash, unga munosabat bildirish, xulosalash va dalillash malakalari ham rivojlanib boradi.

Xulosa va takliflar. Ona tili darslarida videolavhalardan foydalanish o'quvchilarda nafaqat nutqiy, balki sotsiologiyistik va pragmatik kompetensiyalarni

shakllantirishga ham xizmat qiladi. Videolavhalar orqali o‘quvchilar lug‘atini boyitish, ko‘rilgan lavhalar asosida fikrlarini erkin va ijodiy bayon etishga sharoit yaratiladi. Duniyoqarashlarini kengaytirilishida yordam beradi. Videolavha tanlanganda o‘quvchining yoshi, qiziqishlari, psixologiyasi inobatga olinishi bilan bir qatorda, uning tarbiyaviy ahamiyatiga ham e‘tibor qaratilishi kerak. Va yana bir muhim jihati videoga ajratilgan vaqt masalasini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim. O‘quvchilarning e‘tibori chalg‘ituvchi lavhalarga qaratilib, asosiy nazariy ma‘lumotlar ikkilamchi bo‘lib qolmasligi kerak. Mashg‘ulot jarayonida

audio-video materiallarga katta vaqt ajratish o‘quvchilarni asosiy faoliyat yo‘nalishidan chalg‘itishi, ularning muhim bo‘lmagan qirralar bilan ko‘proq band bo‘lib qolishlariga sabab bo‘lish xavfini yuzaga keltiradi. Eng yomoni, o‘quvchilarning diqqati bo‘linib, ularda zerikish yoki charchoqni hosil qilish ehtimoli ham yuzaga keladi. Audiovizual materiallardan o‘quvchi tushunishi qiyinroq kechadigan mavzular va bo‘limlarda foydalanish samaralidir. Bunda vaqt masshtabini o‘zgartirilishi, tezlashtirilgan, sekinlashtirilgan holatlarda taqdim etilishini ham inobatga olish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Биз кўп вақт йўқотганмиз. <https://uzreport.news/politics/biz-kop-vaqt-yoqotganmiz-shavkat-mirziyoyev>
2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб.пособие для студ.пед.вузов и системы повыш.квалиф пед. кадров. – Москва, Издательский центр “Академия”, 2003. – С.158.
3. Ғозиев Э. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун дарслик. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Университет” нашриёти, 2002. 167-бет.
4. Бабаева Д. Нутқ ўстириш назарияси ва методикаси. (Дарслик). – Т.: “Баркамол файз медиа”, 2018. – 432б.
5. Салишева З. Ўзбек тили машғулотида талабалар монолик нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гуруҳларида): Дисс. PhD. – Тошкент:, 2019. – 179 б.
6. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 85-б.
7. Muxitdinova X. Til ta'limida videomateriallar qanday uyg'unlashadi? Til va adabiyot ta'limi. – 2015. 8-son. – 15-16-bet.
8. Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2019. – 129b.
9. Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку) Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Москва, 2014. – С.223.
10. Мейер Р.Э. A Cognitive Theory of Multimedia Learning: Implications for Design Principle. Santa Barbara, 1998. P.23-25.



Жасур КУШМАНОВ,
Урганч давлат университети тадқиқотчиси
E-mail: qushmanov@mail.ru

ЎзМУ доценти в.б. PhD Ш.Жалолова тақризи асосида

PRAGMATIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Abstract

Structural and semantic aspects of phraseological units have been studied by many scholars, and currently the topical issue is the study of the pragmatic features of any language unit at the discourse or text level. As a result of the study, it turns out that as a word or phrase is transferred to our speech, its pragmatic, psycholinguistic or sociolinguistic properties are different. The main purpose of studying the pragmatic aspects of phraseological units is to study their place in the text, meaning, interaction of their semantic variants and synonyms.

Key words: Syntax, semantics, pragmatics, speech act, implicature, communicator, phraseosemantics, discourse.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация

Структурно-семантические аспекты фразеологических единиц изучались многими учеными, и в настоящее время актуальным вопросом является исследование прагматических особенностей любой языковой единицы на дискурсивном или текстовом уровне. В результате исследования выясняется что как слово или словосочетание переносится в нашу речь, его прагматические, психолингвистические или социолингвистические свойства различны. Основной целью изучения прагматических аспектов фразеологизмов является изучение их места в тексте, значения, взаимодействия их семантических вариантов и синонимов.

Ключевые слова: Синтактика, семантика, прагматика, речевой акт, имплицатура, коммуникант, фразеосемантика, дискурс.

ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ПРАГМАТИК ЖИХАТЛАРИ

Аннотация

Фразеологик бирликларнинг структур ҳамда семантик жиҳатлари кўплаб олимлар томонидан ўрганилган бўлиб, ҳозирги кунда ҳар қандай лисоний бирликнинг прагматик хусусияти дискурс ёки матн сатҳида тадқиқот этилиши долзарб масалалардан ҳисобланади. Сўз, сўз бирикмаси нутқимизга кўчар экан унинг прагматик, психолингвистик ёки социолингвистик хусусиятлари турлича бўлиши тадқиқотлар натижасида аниқланган. Фразеологик бирликларнинг прагматик жиҳатларини ўрганишдан асосий мақсад, уларнинг матндаги ўрни, аҳамияти ҳамда уларга маънодош вариантлари ва синонимларининг ўзаро муносабатини чуқурроқ ўрганишдан иборат.

Калит сўзлар: Синтактик, семантик, прагматик, нутқий акт, имплицатура, коммуникант, фразеосемантика, дискурс.

Кириш. Нутқимиздаги оддий воқеа-ҳодисаларни, предмет ва инсонларнинг хусусиятларини янада ёрқинроқ ёритиб беришда қўлланилган фразеологик бирликлар экспрессив, эмоционал ва баҳоловчи луғавий бирликлардир. Э.Қиличев таъкилаганларидек, фразеологизмлар алоҳида расмийлашган, таркибининг барқарорлиги билан ажралиб турадиган, яхлитлигича қўлланиш хусусиятига эга, тайёр ҳолда мавжуд, образли, жозибали, семантик қайта шакланган сўзлар боғланмасидан иборат [8]. Бу каби жиҳатлар уларни прагматика билан боғлиқ ҳолда тадқиқ қилинганда кўзга ташланади деб ҳисоблаймиз. Фразеологизмларнинг нутқий фаолиятда қўлланилиши, жараён ҳамда нутқий фаолиятни амалга оширувчиларнинг суҳбатга бўлган муносабатини ўрганиш орқали биз ФБларнинг прагматик жиҳатларини аниқлай оламиз.

Тадқиқот методологияси. Тил ва белгининг ўзаро алоқаси, уларнинг таъсирини тадқиқ қилиш Ф.де Соссюр давридани то бугунги кунгача бир қанча олимлар эътиборини ўзига жалб қилиб келган. Ф.де Соссюр тилшуносликни тил ва нутқга ажратишда лисоний белги муҳим аҳамиятга эғалигини таклиф қилган бўлса, Ч.Моррис семиотика, яъни белгининг учта асосий аспектини яратган: синтактик, семантик, прагматик [5]. Ч.Моррис белгининг референтга бўлган муносабатини

семантика, белгининг шу белгини ишлатувчи система ёки контекстга бўлган муносабатини синтактика ва белгининг интерпретаторга бўлган муносабатини прагматика [5] нуқтаи назардан тадқиқ қилган. Демак, формал гап, фикр ҳамда мулоҳазаларни шакллантириш қоидаларига синтактика доирасида амал қилинса, формал бўлмаган фикр-мулоҳазалар, контекстга мос, кўчма маънодаги гаплар семантика ва прагматика доирасида таҳлил қилиш амалга оширилади. Белгиларни ўрганувчи соҳа семиотика бўлиб, семиотиканинг формал бўлмаган мулоҳазалари билан иш кўрадиган қисми прагматикадир.

Прагматика ва унинг тилшунослик соҳасида тадқиқотларининг бошланиши XX асрнинг 60 йилларига бориб тақалади. ФБларни табиатан прагматик ахборот ташувчи ҳамда гапнинг, матннинг экспрессивлиги ҳамда эмотивлигини оширувчи элемент сифатида қараш мумкин.

Прагматика нутқий акт назарияси, суҳбат имплицатураси (conversational implicature), фалсафа, социология, лингвистика, антропология каби бошқа фан соҳаларининг суҳбат жараёнидаги ўзаро таъсири (talk in interaction) билан боғлиқлигида намоён бўлади.

Прагматика нутқий фаолият эканлигини ҳисобга олсак, контекст хусусиятига кўра ундаги бирликларнинг семантик жиҳатларига олдин тўхталиб ўтиш муҳим

хисобланади. Семантика ҳар бир бирлик маъносини таҳлил қилар экан, бунда луғавий маънодан ташқари айнан контекстуал маъноларни ҳам ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Тадқиқотимиз жараёнида шуни гувоҳи бўлдикки, фразеологик семантика термини дунё олимлари томонидан фразеологик семантика, маданий семантика ва маданий коннотация тушунчалари билан параллел равишда қўлланилади. Фразеологик маъно айнан прагматик ахборотни етказиб бериш учун аҳамиятга эга хисобланади. Бунинг асосий сабабларидан бири, фразеологик бирликларнинг изоҳли луғатларини, ҳар қандай тилнинг мукамал изоҳли луғатларидан жой эгаллаган ФБларни таҳлил қилиб чиқар эканмиз, уларнинг нафақат экспрессивлик ва эмотивликнинг ошишига хизмат қилш вазифаси мавжудлигини, балки контекстга кўчганда айнан прагматик маънони етказиб бериш функцияси мавжудлигини кузатдик.

Семантика ва прагматика ўртасидаги аниқ чегарани белгилаш юзасидан Ж.И.Саднинг фикрларини ўрганиб чиқар эканмиз, Ч.Морриснинг прагматикани аниқ тушунтириш учун семиотиканинг бўлиниши хусусидаги фикрларига мурожаат қилади:

syntax: the formal relation of signs to each other;

semantics: the relations of signs to the objects to which the signs are applicable;

pragmatics: the relation of signs to interpreters [1].

Буни қуйидагича изоҳлашимиз мумкин, синтаксис белгиларнинг бир-бирига бўлган формал муносабати бўлса, семантика эса белгиларнинг объектга бўлган муносабати бўлиб, белгилар уларга нисбатан қўлланилиши мумкин бўлиши шарт, прагматика эса белгиларнинг суҳбатдошимизга тушунарли бўлган планда муносабатидир.

Таҳлил ва натижалар. Ҳар қандай ФБнинг қўлланилиши сўзловчининг суҳбатдошга бўлган муносабатидан келиб чиқиб қўлланилишини прагматик маъно сифатида тушунишимиз мумкин. Сўзловчи ва тингловчи орасида бўлиб ўтган суҳбатдан вазият, сўзловчининг мақсади, тингловчининг сўзловчи билан муносабати, ижтимоий позицияси ҳам муҳим аҳамиятга эгадир, бу эса матн орқалигина аён бўлади. Масалан, инглиз тилидаги матнни оладиган бўлсак:

The young woman pulled the shawl down over her face. Burst into tears. The toddler sitting in her husband's lap started crying too. The husband's face had become as pale as the moon hovering above. He told Karim to ask "Mister Soldier Sahib" to show a little mercy, maybe he had a sister or a mother, maybe he had a wife too. The Russian listened to Karim and barked a series of words [9].

Юқоридаги мисолимиздан кўриниб турибдики, асосан нутқимизда фаол бўлган инсон рангининг оқариб кетишига нисбатан қўлланиладиган ФБ сифатида (As) pale/white/as a sheet/paper; (As) pale/white/as ashes/stone; (As) white as death; (As) pale/white/ as a ghost – вариантлари мавжуд бўлиб, аммо мазкур матнда муаллиф as pale as the moon hovering above иборасини қўллаган, бу эса ўз навбатида контекстга мос, шу вазиятни яхшироқ тушунишга имкон берган.

Ўзбек тилидаги мисолга мурожаат қилсак:

– Наврўзда подшоҳимиз кема сайрига чиқармишларми? – сўради Ҳамида йигитдан.

– Ҳа, бизга фармон берилган. Наврўз куни подшоҳ кемасининг эшқанини биз эшар эканмиз.

– Хонзода бегим мени ҳам кема сайрига таклиф қилганлар. Борсам...сизни яна кўрар эканмен-да. Ана шу саволни Ҳамида бону йигитнинг юзида қалққан

изтиробдан пайқади-да, ўзи ҳам икки ўт орасида қолиши мумкинлигини сизди. [10]

Бу мисолимизда ҳам икки ўт орасида қолмоқ – қийин вазиятда қолганда қўлланиладиган иборадан фойдаланиш айнан мазкур контекстдаги икки хил вазиятдаги мураккабликни ифодалашга хизмат қилганлигини кўришимиз мумкин. Демак, ФБлар алоҳида механизм сифатида идрок қилинади ва у коммуникантнинг коммуникатив-прагматик мақсадини ифодалашга хизмат қилиб, контекстдан янада оидинликка эришишни таъминлайди.

Фразеологизмлар прагматикаси айнан коммуникатив вазиятдаги нутқий актларни ва тилдан фойдаланишни ўрганишга қаратилади. Агар нутқий ҳаракатлар ёзиш ва гапиришга йўнатирилган ҳаракат сифатида идрок қилинса, у фразеопрагматик [2] аспект деб юритилади ва коммуникатив мақсаднинг сўздаги ифодаси ва бажарадиган функциясининг асоси хисобланади.

Фразеопрагматик аспект маданият тизимида ФБларнинг моҳиятини кўриб чиқади, белгилар тизими эса турли даражада тушунилади ва маданий концептлар эса вербализация жараёнида маданий маълумотни етказишга имкон яратади.

ФБларнинг маъноси дискурс билан ҳам боғлиқда ўрганилиши мақсадга мувофиқдир. Дискурс (лот.discursus, фр.discours – нутқ, ҳаракат) у ёқ бу ёққа югуриш, турли томонга тез, тўхтовсиз, айланма ҳаракат қилиш, мулоқот ва суҳбат маънолари ҳам мавжудлиги баъзи луғатларда келтирилган. Г.Эргашева ўзининг дискурсга бўлган муносабатини илмий мақоласида Т.Милевскаянинг дискурс ҳаётга сингиб кетган нутқ деган фикри орқали ифодалайди яъни дискурс халқ руҳиятининг ифодаси [7] деган изоҳни ҳам кўшиб, уни тўлдиришга ҳаракат қилади. Тилшуносларнинг кўпчилиги дискурс ва дискурс таҳлилига ўз муносабатларини билдиришар экан профессор Ш.Сафаров ҳам дискурсни матн билан тушуниш муҳимлигини таъкидлаган ҳолда шундай дейди: "... дискурс инсон онгли фаолиятининг маълум бир тури, туркуми бўлса, матн унинг бир кўринишидир. Бу икки ҳодиса учун маданият бўлиши зарурлигини келтириб ўтадилар. ... Дискурс ва матн ҳодисаларининг ҳар иккаласи ҳам мулоқот иштирокчиларининг онгли фаолияти туташадиган макондир. Онгли фаолият эса доимо маънавий- маданий асосга эга бўлади" [6]. Демак, биз ўрганаётган фразеологизмларнинг прагматикаси масаласи айнан дискурс билан боғлиқ ҳолда тадқиқ этилиши ҳамда диссертациямизнинг асосий мақсади бўлган ФБлар градуонимиясига снафақат семантиканинг, балки синтаксис ҳамда прагматиканинг, дискурс таҳлилининг ҳам алоқаси борлигини англашимиз мумкин. Бунинг асосий сабаби, яна бир бор таъкидлаймиз, алоҳида олинган ФБларнинг семантикасида ташқари контекстдаги вариантлари, синонимлари, маънодошларининг мавжудлиги айнан прагматика, дискурсда намоён бўлади.

ФБлар семантикасидаги образлилик прагматик ахборот ташишга хизмат қилиши хусусида профессор А.Э.Маматов фикр билдиради. А.Кўчибоев эса мазкур фикрни тасдиқлаб, ФБлар семантикасидаги импликация, пресуппозиция, инференция, имплицатура, аллюзия кабилар орқали ифодаланадиган прагматик маънони ёки когнитив-фон ахборотни англаш бир неча омилларга таянилган ҳолда идрок қилиниши хусусида ёзади. Бу омиллар қуйидагилар:

1. Фразеологизм қўлланилган нутқ вазияти. Бунда мулоқот содир бўлган жой, шароит, вақт,

коммуникантларнинг ўзаро муносабатларидаги ижтимоий мавқе (дейктик воситалар).

2. Импликатура.
3. Фон билимлар.
4. Пресуппозиция.
5. Прагматик мақсад аниқлиги
6. Хушмуомалалик [4].

Масалан, 'to take a bullet – денотатив маъноси.

Отилган ўқни ушлаб олмоқ деб тушунилади. Бироқ ушбу фразеологик бирлигининг контекстдаги ва вазиятдан келиб чиқиб тушунадиган бўлсак қуйидагича маъно келиб чиқади: "Karim collapsed on the floor and rolled around fighting for air when Baba finally let go. The room fell silent. Less than two hours ago, Baba had volunteered to take a bullet for the honor of a woman he didn't even know. Now he'd almost choked a man to death, would have done it cheerfully if not for the pleas of that same woman". [9]. Бу контекстдан шуни англаш мумкинки, "у биров учун ўзини қурбон қилишга тайёрлиги", "бирова учун ҳар қандай вазиятга чидашини" ифодалаш учун хизмат қилган.

А.Н.Алефиренко эса фразеологик семантикада когнитив прагматиклик маъно мазмун бўлиши билан бирга лисоний воситалар яъни субъектив баҳолаш, эмотивлик, эстетик, модаллик кабилар лисоний мулоқотнинг мақсад ва натижаларидан ташқари

пресуппозиция ва реалаялар ҳам мавжудлигини кўрсатади [3].

Хулоса қиладиган бўлсак, ФБлар семантикаси прагматик нутқий акт эканлиги билан бирга когнитив прагматик ва образлик жиҳатдан лисоний ва нолисоний билимлар билан бирга ўрганилишини тақозо қилади ҳамда сўзловчи назарда тутган маънони тушуниш учун хизмат қилади. Бунда маънони англаш сўзловчининг прагматик компетенциясига боғлиқлиги ҳамда маълумотни қабул қилувчининг вазият хусусидаги фон билимлари, муносабатга киришувчиларнинг ўзаро муносабатларини ҳам тушунганлиги муҳим роль ўйнайди.

Хулоса ва таклифлар. Ушбу мақоламизда ФБлар прагматикасига тўхталишимизнинг асосий сабаби шундаки, ҳар қандай бирлик семантик маънодан ташқари прагматик маънога эга бўлганлигини инобатга оладиган бўлсак, ФБлар ҳам бундан мустасно эмас. Тадқиқотимиз давомида кўриб чиқилган кўпмаънолилиқ, вариантлилиқ ҳамда синонимлик хусусиятларига эга ФБлар айнан контекстга, вазиятга, нутқий актининг амалга оширишидаги сўзловчи ва қабул қилувчининг муносабатларига боғлигини ҳисобга олсак, ФБлар градуонимияси турли жиҳатлари билан бир қанча градуонимик қаторлар ҳосил қилиш имкониятига эга бўлади.

АДАБИЁТЛАР

1. Saeed J. I. Semantics. 3rd edition, Blackwell Publishing. 2003. – P.17.
2. Lüger, Introduction to Semantics. 1999: – P. 177.
3. Алефиренко Н.Ф. Фразеология в сфере современных лингвистических парадигм. – Москва: ООО Из-во."Элпис", 2008. – С.120с.
4. Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд: 2015. – Б.67-68.
5. Моррис Ч.У. Основания теории знаков // Семиотика. Сборник переводов. Под. Ред. Ю.С.Степанова. - М.: Радуга, 1982
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси", 2008. – Б. 226 -229.
7. Эргашева Г. Гендер ўзбек дискурсида // Современные средства коммуникаций и психоллингвистические проблемы преподавания научно-технической и астронавтико-космической терминологии в вузах Узбекистана – Т.: 2013- С. 282-283.
8. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро, "Бухоро университети", 2005. – Б. 84.
9. Hosseini Kh. Kite runner. P. 95
10. Қодиров П. Хумоюн ва Акбар. Б.17.



Nigora MURODOVA,
NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: nigoramurodova@mail.ru

O'zMU dotsenti I.Usarov taqrizi asosida

LINGVISTIK XARITALARDA IZOGLOSSALARNING BERILISHI

Аннотация

Izoglossa-arealogik tadqiqotning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, o'zaro o'xshash hodisalarning tarqalish nuqtalarini va bu nuqtalarni tutashiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini xaritada belgilovchi belgidir. Trubinskiy ta'kidlaganidek, izoglossa – hodisaning umumiy ma'noda keng tarqalgan hududini ko'rsatuvchidir [11]. Bunday izogloss odatda ma'lum mikrotizمنىng (dialekt) elementi sifatida xaritalangan hodisa nima ekanligini, uning ahamiyati va undagi semantikasini hisobga olmaydi.

Kalit so'zlar: Izoglossa, hudud, dialekt, mikrotizm, chegara, tarqalish nuqtasi, xarita, tekislik, maydon.

ПРИСВОЕНИЕ ИЗОГЛОСС НА ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КАРТАХ

Аннотация

Izoglossa-одно из основных понятий ареологического исследования, обозначающее точки распространения взаимно сходных явлений и линию, соединяющую эти точки, а также границы распространения явления на карте. Как указывает Трубинский, изоглосса – это указание на обширную территорию явления в общем смысле [11]. Такая изоглосса обычно не учитывает, что такое картируемое явление как элемент определенного микротизма (диалекта), его значение и семантику в нем.

Ключевые слова: Изоглосса, территория, диалект, микротизм, граница, точка распространения, карта, плоскость, площадь.

ASSIGNMENT OF ISOGLOSSES ON LINGUISTIC MAPS

Annotation

The isogloss is one of the basic concepts of archaeological research, denoting the points of propagation of mutually similar phenomena and the line connecting these points, as well as the boundaries of the spread of the phenomenon on the map. As Trubinsky points out, the isogloss is an indication of the vast territory of the phenomenon in the general sense [11]. Such an isogloss usually does not take into account what the mapped phenomenon is as an element of a certain microticism (dialect), its meaning and semantics in it.

Key words: Isoglossa, territory, dialect, microtism, border, distribution point, map, plane, area.

Kirish. I.Cheymbers va P.Tradgillning yozishicha "izoglossa" atamasi birinchi marta 1892-yilda latviyalik dialektolog J.Q.A.Bielenstein tomonidan ishlatilgan [12]. Ularning ta'kidlashicha, ehtimol, bu atama haqiqatni ifodalash uchun mo'ljallangan bo'lsa kerak, mintaqa bo'ylab chizilgan chiziq ikkita hududni ko'rsatishi kerak, bu yerda har bir tomon lingvistik qo'llanishning qaysidir jihati bo'yicha bir-biriga mos keladi, lekin bir-biridan farq qiladi va bir-biriga munosabatda bo'ladi. Izoglossa atamasining keng tarqalishiga italyan tilshunos olimi Mateo Julio Bartolli tadqiqotlari sabab bo'lgan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. R.Freudenbergning "Izoglossa" atamasiga bag'ishlangan ishlarida keng ma'noda bu atama bitta til hodisasi chegaralangan va o'z muhitidan ajratilganda geografik jihatdan til hodisasini boshqalardan ajratib turuvchi chiziq sifatida tushunilgan [10]. Turkologiyada "izoglossa" "maydon" tushunchasining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Aslida ham izoglossa termini grek tilidan olingan bo'lib, "isoglosse" isos- "tekislik, maydon" va glosse – "nutq, til" ma'nolaridagi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan.

N.S.Sharafutdinovanning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha: til innovatsiyalari geografik sharoitlar bilan ham ta'minlanishi mumkin. Masalan, turkiy guruhga kiruvchi gagauz tili atrofdagi (slavyan va roman)tillar ta'sirida bo'lib, ular turkiylarning umumiy turkiy so'z turkumi "subyekt – predmet – predmet" so'z tartibidan farqli ravishda "predmet –

subyekt – predmet" so'z tartibini egallagan. Tillar o'rtasida kuzatilgan umumiyliklar an'anaviy ravishda izoglosslar deb ataladi. Demak, izogloss – asosiy so'z tartibi "subyekt – predikat – obyekt" – gagauz, rumin va bolgar tillarini birlashtiradi, lekin ularni turkiy tillardan ajratib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tasniflash, tavsiflash, leksikografik va sintaktik-semantik tuzilishini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hozirga qadar dialektologiya sohasidagi ba'zi tadqiqotlarda izoglossalar to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Masalan: Xorazm viloyatining o'g'uz guruh shevalari mavjud bo'lgan areallar bilan qo'shni Turkmaniston hududining Toshhovuz viloyatidagi umumiyliklar mazkur areallardagi izoglossalarni tashkil etadi. Shuningdek, Tojikistonning Xo'jand viloyatidagi ko'pchilik shevalarning O'zbekistondagi shevalar bilan o'zaro umumiy jihatlari ham mazkur areallarning izoglossalarini belgilaydi. Yoki izoglossalar nafaqat chegaradosh hududlarda, balki ancha uzoq hududlarda ham uchrashi mumkinligi aytib o'tilgan. Jumladan, O'zbek shevalari o'g'uz guruhiga mansub dialektlarning umumiy izoglossalari faqat Xorazm viloyatidagina emas, Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlari areallarida mavjud bo'lgan shevalarda shuningdek, Qoraqalpog'istonning Beruniy va To'rtko'l tuman markazlarida va ayrim qishloqlarida, hatto Qozog'istonning Chimkent viloyati Sayram tumanining Mankent, Qoramurt, Qorabuloq, Qizilqishloq singari areallarida va Turkiston


tumanining Iqon, Qaranoq qishloqlarida ham mavjud ekanligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Albatta, ba'zi izoglossalarning turli hududlarga tarqalishining o'ziga xos sabablari bor. Lingvistik hodisalarning areali o'rganilganda ba'zilar bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Bu holda o'xshash bo'lmagan ba'zi izoglossalar to'plamini tashkil etgan areal aniqlanadi. Izoglossalar faqat qo'shni geografik areallardagina mavjud bo'lmaydi. Agar muayyan bir dialekt faqat o'ziga mansub chegaralarda qolsa, bunday til landshaftini "til orollari" deb qarash mumkin.

Zonadagi orol hodisasi lingvoareal tushunchasi sifatida qaraganda alohida o'ziga xos ma'noga ega. Zonada qaysi quyi tizim ajratilgan bo'lganda ham, uni orol deyish mumkin.

Izoglossalar qarindosh va o'zga tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi. 1) O'zaro aloqadagi izoglossalar. Bunday izoglossalar genetik umumiylikka ega bo'lgan tillarga aloqador bo'ladi. Masalan, o'zbek tili bilan qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman tillari bilan aloqadagi

izoglossalar misol bo'la oladi. Ularni tahlil qilishda qiyosiy genetik tadqiqot usullari qo'llaniladi. 2) Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddatli hududiy aloqalari orqali yuzaga keladi. Bunga o'zbek-tojik tili munosabatidagi umumiy izoglossalar misol bo'la oladi. Konvergensiya izoglossalari tipologik tahlil usullari bilan aniqlanadi. Izoglossani nima asosida o'tkazish (izoglossa mazmuni, tarqalishi, o'rganilayotgan hodisa yoki qonuniyat) areal tilshunoslikda juda katta ahamiyatga ega.

Izoglossalarning xaritalarda berishda turli xil usullardan foydalanilgan. A.Jo'rayev xaritalarda izoglossalar arealini berishda chiziqlardan foydalangan [3,4,5,6,7,8,9]. Bu xaritalar Yuqori Qashqadaryo shevalari misolida quyidagicha izohlangan. Bir biriga bog'liq kartografik modellashirishda (3-4 xaritalarda) -niq dan foydalanmaslik zonasi -dadan foydalanmaslik zonasiga to'g'ri kelishi aniqlangan. Ammo -gə...//də ...ning parallellik maydoni -niq...//ni... parallellik maydoni bilan ustma-ust tushgan. Xaritalardagi ushbu izoglossalar chiziqlar orqali ko'rsatilgan.



3-xarita-sxema. Dialektlarning tarqalish hududi:


1-tojik; 2-o'tish davri; 3-qipchoq; 4-qarluq.

Qaratqich va tushum kelishigining ko'rsatkich areallari

I parallelizmning yuqori chastotal izolyatsiyasi -niq//ni...

II-nksiyali -niq izolyatsiyasi;

III- sporadik parallelizm izolyatsiyasi niq/ni ma'nolarida -niq va -ni...ustunlik qiladi.



4-xarita. Dialektlarning tarqalish hududi:

1-tojik; 2-o'tish davri; 3-qipchoq; 4-qarluq.

Jo'nalish va o'rin-payt kelishliklari ko'rsatkichlarining areallari:

I-parallelizmning yuqori chastotali izolyatsiyasi -gə//də..;

II-oylarning nksional bo'lmagan o'rin kelishigi ko'rsatkichining izolyatsiyasi;

III - niga sporadik qo'llanish izolyatsiyasi

IV - də ning sporadik foydalanishning izolyatsiyasi

Lisoniy hodisaning tabiatiga ko'ra izoglossa har xil: izofonema (fonetik) masalan: O'zbek shevalari fonetik jihatdan o'zining murakkab xususiyatlariga egadir. O'zbek shevalari o'zaro unli va undoshlarning miqdori, sifati, fonetik jarayonlari bilan farqlansada, ayrim jihatlar orqali o'xshash hamdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek shevalarida farqli

tomonlarning mavjudligi shevalar tarqalgan hududning joylashuv o'rne, tarixiy sharoitlari, aholi etnik tarkibining turliligiga bog'liq. Shu bois ham o'zbek shevalaridagi unli va undoshlarning miqdori va sifati ancha murakkab va munozaralidir. Shu o'rinda aytish joizki, o'zbek shevalarini areal yo'nalishda o'rganish orqali bunday masalalar o'z yechimini topishi mumkin.

O'zbek shevalari, turkiy tillar orasidagi o'xshashlik va farqlar juda ko'p. Ammo ularning hammasi ham izoglossa mazmuni (asosi, belgisi) vazifasini o'tay olmaydi. O'zbek shevalaridagi qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil-uyg'ur lahjalarini o'ziga xos xususiyati - so'z boshida y~j, k~g almashinuvi bilan ajrata olish ham shevalar orasidagi muhim belgi sanalishi mumkin.

An'anaviy paradigmadagi tadqiqotlarda juda ko'plab fonologik, fonetik hodisalar o'rganilgan va keng talqin qilingan. Ularning ba'zilari izoglossa mazmunini berishi mumkin.


So'z boshida jarangsiz «t» tovushining jarangli «d» fonemasiga o'tishi to'g'risida turkiyshunosligida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: Jaranglilashish turkiy tillarning o'g'uz guruhiga mansub tarmoqlari uchun xos hodisa sanalsada, umuturkiy t-d hodisasi, birinchidan, o'g'uz guruhiga kiritiladigan turk, ozarbayjon, turkman tillarining juda ko'plarida qadimgi turkiy «t»ni «d»ga o'tmasligi qayd etilgan. Ikkinchidan, umumturkiy «t»ning «d»ga o'tish hodisasini o'g'uzlardan ancha uzoq bo'lgan totor, boshqird, qirg'iz, o'zbek tilining amalda bo'lgan mintaqalaridagi shevalarida ham uchratish mumkin.

Umlaut hodisasi uyg'ur tili va hozirgi o'zbek tilining Namangan shahar, Uychi, Chortoq, Uchqurg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarining ayrim qishloq shevalariga xosligi qayd qilingan. Umlautning uch ko'rinishi: palatal, labial, va lingval kabi turlari umlautli shevalarda uchraydi. Namangan umlautlashgan shevalarida umlautning birinchi va ikkinchi turlari mavjud. Birinchi tur: [tash']-toshь, [qash']-qashь, [mal-mol, mal'm-molьm] kabi; ikkinchi tur: [tonyr]-tandьr, [ado yldy] – ado bo'ldi kabi. Umlautning uchinchi turi uyg'ur tiligagina xosdir: katti-ketdi, kashьsh-kesьsh va b. sh. k.

O'zbek shevalarida diftonglashish hodisasi mavjud bo'lib, qipchoq shevalariga xosdir. Diftong bir tovushda boshqa bir tovushning qatnashishi bilan yuzaga keladi. So'zning boshida o'rta-keng [e (e), ø, o] unililari qipchoq shevalarida [y (e), vø] shaklida diftonglashadi: yechki (echki), yelak (elak), vot'n (o'tin), vosmø (o'sma) kabi Bu diftonglashish hodisasi Janubiy Xorazm, Samarqand viloyati g'arbiy shevalari, Navoiy, Nayman, G'allaorol, Yuqori

Qashqadaryo qipchoq tur shevalarida hamda Janubiy Orolbo'yi shevalarida ham uchraydi. Shuningdek, qoraqalpoq, qozoq tillari uchun ham xosdir. So'z boshida ye, ø, o unililarining diftonglashuvi qoraqalpoq tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Bu hodisa qo'miq, gagauz, qarachay, balqar tillarida ham kuzatiladi. [o], [ø] unililari ham [e] unlisi kabi so'z boshida diftonglashadi. [uo], [uø] kabi. yoyla, yotov (o'yla, o'tov), yerdak, yetk'r (o'rdak, o'tkir). [ɛ] unlisi diftonglashadi. [ɛyt-ɛ: t] – i:t kabi. O'zbek shevalaridagi iyt so'zida uchraydigan i unlisi qozoq va qoraqalpoq tillaridek talaffuz etiladi.

Arealogik tadqiqot o'tkazishdan oldin tadqiqotchi har bir izoglossa mazmunini (asos, belgisi) ning til tizimidagi taksonomik (tasnif etish uchun ahamiyatli bo'lgan) ahamiyatini asoslab bermog'i lozim. Izoleksemalarni lingvogeografik usulda yaratilgan xaritalar orqali quyidagicha izohlash mumkin. Xaritalar N.Murodovning "O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini" mavzusidagi tadqiqotidan olindi. Xaritalarda izoleksema (leksik)larning areali tadqiq etilgan. Odatda izoglossa bitta hodisa asosida belgilanadi. 1-3 xaritalar tadqiqotchining tadqiq etgan areali haqida etnografik ma'lumot beradi. Jumladan, 3-xaritada tadqiq manbai bo'lgan 200 dan ortiq oykonimning aniq joylashuvi va nomlanishi beriladi. 5-xaritada yettita izoglossaning shu mintaqada tarqalishi ko'rsatilgan. Barcha leksik izoglossalar bitta tushuncha og'iz suti qo'shma so'zining ushbu mintaqada qanday berilishiga asoslanadi. Xaritada o'z aksini topgan izoglossalar (gilagay, dalama, uvuz, dalama/palla, palla, qog'onoq/gilagay, jak, palla) ichida gilagay izoglossasining yetakchiligini ko'rish mumkin. U nuqta ko'rinishida ham, alohida bir mintaqada shaklida ham berilishi mumkin.



5-xaritadagi 50 dan ortiq oykonimlarni bir umumiy zonaga-gilagay izoglossasi zonasiga birlashtirish mumkin. Bu usuldan G.Blagova ilmiy asarlarida foydalangan [2]. Izoglossalarni sanab o'tish, ro'yxatda berish, ma'lum bir diagramma, geometrik shakllar, chiziqlar bilan ham ifodalash mumkin. Xaritalashtirilgan izoglossa areali haqiqiy lisoniy manzarani - lingvistik lanshaftni beradi. Mohiyatdan atama bo'lgan landshaft (nemis. manzara, ko'rinish) atamasi areal lingvistikada juda keng qo'llaniladi. Haqiqatdan ham 5-xaritaga diqqat bilan qarasaq, xarita izoglossalari uchun asos bo'lgan yettita so'zdan qay birining qaysi hududlarda qo'llanilishi xaritada ma'lum bir geometrik shakllar orqali o'z aksini topgan.

Izoglossalar yaxlit (lingvistik hodisa muayyan bir mintaqada qo'llanilib, undan tashqarida uchramasa), uzoq (bir-biridan uzilgan turli mintaqalarda uchramasa), yopiq (chegaralangan arealdan boshqa joyda uchramasa), ochiq (turli mintaqalarda uchramasa) bo'lishi mumkin.

Areal lingvistik xarita namunasi sifatida berilgan 5-xaritadan ko'rinib turibdiki izoglossa, albatta, chiziq shaklida berilmasa-da, ular xaritalarda turli xil belgilar, shakllar bilan berilgan.

Leksik izoglossalarning tarqalishi(5-xarita)

Ba'zi tadqiqotlarda, jumladan, G.Blagova xaritalarida izoglossalarni berishda quyidagi qisqartmalardan

foydalanilgan. Masalan: Arab raqamlari (1-6) qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin, chiqish, vosita kelishiklarining tartib raqamlari;

X – ikki kelishikning shaklan mos kelishi;

A – egalik qo'shimchasi bo'lmagan otlarning tuslanishi;

B – I, II shaxs egalik qo'shimchalariga ega bo'lgan otlarning tuslanishi;

V – III shaxs egalik qo'shimchali otlarning tuslanishi;

M – olmoshlarning tuslanishi;

a¹, b¹, v¹ – egaliksiz va egalikli otlarning o'g'uz turlanishi tipi;

a¹¹, b¹¹, v¹¹ – egaliksiz va egalikli otlarning qipchoq turlanishi tipi;

a, b, v – egaliksiz va egalikli otlarning qarluq turlanishi tipi;

daraja (°) belgisi bilan eskirgan, qadimgi forma shakllari berilgan.

Xaritada har bir belgi, jumladan: 1M¹2M, 3abv, 4v5°v bitta izoglossa bo'lib, xaritada bu hodisaning tarqalish hududlari ko'rsatib berilgan. Chunonchi, 1M¹2M ramzi o'z ichiga ikki izoglossani oladi; 1M¹ – olmoshlar turlanishida qaratqich kelishigining o'g'uz shaklida qo'llanishi; 2M – tushum kelishigining olmoshlarda qarluq ko'rinishida

qo'llanishi. Xaritani 1M¹ belgisiga ega bo'lgan joylari shu hodisaning qo'llanilish izoglossasi sanalishi mumkin.

Xulosa. Dialektologik tadqiqotlarda ma'lum bir shevaning chegaralari va o'ziga xos hodisalari aniqlanib kelingan bo'lsa, areal yo'nalishdagi tadqiqotlar shevalar orasidagi hududiy chegaralarni olib tashlaydi. Chunki turli mintaqada iste'molda bo'lgan turli shevalarda qo'llangan bir xil hodisa (qonuniyat) arealogik tadqiqotlarda shevalarning qaysi hududga qarashligidan qat'i nazar bir arealga birlashtiriladi. Dialektologiya sohasida to'plangan faktik materiallardan o'ta ahamiyatlarini til yoki shevaning eng xarakterli xususiyatlarini izoglossa asosida tanlash va o'rganish ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Bartoli M. Introduzione alla neolinguistica (principi – scopi-metodi). – Geneva, 1925, 108.
2. Благова Г.Ф. О несходствах типологически подобных ареалов (-иш- как показатель множественности в среднеазиатских тюркских говорах) // Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 83–91.
3. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадарьи в ареальном освещении: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986. – 16 с.
4. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадарьи в ареальном освещении: Дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986а. – 237 с.
5. Джураев А.Б. Элемент ким – в неопределенных местоимениях узбекских говоров самаркандко-бухарского типа // Коммуникативные аспекты исследования языка. – Москва, 1986г. № 1. – С. 140–146.
6. Джураев А.Б. Ареалогия и исследование узбекских народных говоров // Советская тюркология. 1987г. № 1. – С. 45–51.
7. Джураев А.Б. Методологические регулятивы тюркской ареальной лингвистики и внутренняя совокупность методов на разных этапах ее развития // Типы коммуникации и содержательный аспект языка. – Москва, 1987г. – С. 96–103.
8. Джураев А.Б. Теоритические вопросы ареальной лингвистики // Актуальные вопросы развития науки и техники в Узбекистане: тезисы докладов научной конференции молодых ученых и специалистов АН Уз ССР. – Ташкент, 1987г. – С. 99.
9. Джураев А.Б. Ареальная лингвистика: сущность и структура // Советская тюркология. 1988. № 6. – С. 21–27.
10. Freudenberg R. Isoglasse. Prägung und Problematic eines sprachwissenschaftlichen Terminus // Zeitschrift für Mundartforschung. 1966. Vol. 33, 219-232.
11. Trubetzkoy N.S. Reponse a la question // Actes du Preimer Congress International de Linguistes a la Haye du 10-15 Avril 1928. Leidan, 1928, 17-18.
12. Chambers J., Trudgi 11 P. Dialectology. Cambridge, 1980, 218.



Umida PULATOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti stajyor-o‘qituvchisi
E-mail : umidapulatova71@gmail.com

O‘zMU professori, filologiya fanlari doktori A.E.Mamatov taqrizi ostida

MATN TURLARI VA O‘XSHASHLIKLARI XUSUSIDA

Annotatsiya

Fransuz tilini chet tili sifatida o‘qitishda matnlarga kirish va yaxshiroq tushuntirishning turli metodlar mavjuddir. Matn didaktikasi sohasida o‘qib tushunish yoki qo‘llash uchun yaratilgan matnlarning janr atamasi yoki turlarini ko‘plab uchratish mumkin. Lekin biz matn turi “o‘rgatish mumkin” yoki yo‘qligidan qat’iy nazar matn tipologiyasidan foydalanamiz agar u ma’lum bir janrning bir qismi sifatida qaralsa. Qabul qilish orqali o‘qituvchi tomonidan e’tiborsiz qolishi mumkin bo‘lgan ushbu haqiqatni hisobga olsak, shuni ta’kidlagan holda aytish mumkinki, matn turlari va janrlarining har ikkala tushunchasi orqali o‘qib tushunishni tizimli ravishda o‘rgatish kerak va mumkin. Yozma matnga kirish, uni tushunish berilgan janrning mutanosibligini ta’minlaydi va albatta janr o‘xshashliklari va farqlari haqida ham ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar : Matn turlari va janrlari, tipologiya, tushunish, qo‘llash.

ПОНИМАТЬ РАЗЛИЧИЯ И СХОДСТВА МЕЖДУ ТЕКСТАМИ

Аннотация

В рамках французский иностранный язык, программы обучения пониманию прочитанного или письму, существуют различные методы обучения, позволяющие углубиться в тексты и сделать их более понятными. На дидактическом уровне текста мы легко видим термины жанров или типов текстов, которые используются либо для понимания, либо для производства. Но мы часто используем типологию текста, не принимая во внимание тот факт, что тип текста “обучаемый” при условии, что он рассматривается как часть определенного жанра. Принимая во учитывая этот факт, который учитель может упустить из виду, мы подчеркнем, что понимание письменности должно и может преподаваться более систематически с использованием обоих понятий жанров и типов текстов. Вхождение в письменный текст предполагает регулярность данного жанра и, следовательно, разницу между жанрами и, возможно, сходство между ними.

Ключевые слова : Тип текста, типология, понимание, производство.

UNDERSTAND THE DIFFERENCES AND SIMILARITIES BETWEEN TEXTS

Abstract

As part of the FLE, that of teaching reading comprehension or reading, there are various teaching methods to bring in in the texts and make them better understood. On the didactic field of the text it is easy to see the terms of genres or types of texts that are exploited either for understanding or for production. But we often use the typology of the text without taking into account that the type of text is “teachable” provided that it is treated as a part of a given genus. By taking into consideration this fact, which may be overlooked by the teacher, we will emphasize that reading comprehension must and can be taught more systematically by the two notions of genres and types of texts. Enter the written text assumes the regularity of the given genus and therefore the difference between the genera and possibly the similarities between them.

Key words: Type of text, typology, understanding, production.

Introduction. It seemed to us that the didactics of the text tends to use the characteristics of each type of text without taking into account the relationship between genres or types of texts. One should not neglect in the didactics of the text the fact that the text is always 'dialogical' in Bakhtin's sense and intertextual. Knowing how to recognize both the differences and the similarities between genres would allow the learner to become familiar with the rules of the text and to use a strategy of reading comprehension, adapted to each genre. So why genres and types of texts? Because genres being, according to B. Schneuwly (2001: 83), a “teaching object” of the language, native or foreign, they are linked to learners' reading or writing skills as much as the types of texts which “constitute heuristic models, instruments of knowledge and analysis of the acquisition-development of competence discursive and textual which practitioners would be wrong to deprive themselves of” (K. Canvat: 1996: 25). Because while genres are the “expectation horizon” for reading and serve as an “integral unit of teaching-learning” (K. Canvat: 156 1996), text types

are controlled by a genre to which they belong, and can serve as sub-units of teaching-learning.

Main part. The types of texts are therefore only valid pedagogically through specific genres. Also, when you think about progression, problem “typically didactic” (J.-L. Chiss: 2000), we will wonder in what logic we are going to present a series of texts to be read. The teacher would feel, as pointed out by F. Cicurel (2000: 108), having great difficulty in proposing a rational organization in the presentation of the texts to be read. But in order to make learners recognize the differences and similarities between texts through criteria of generic membership or textual architecture, we can line up, with F. Cicurel (2000: 108), behind a principle of grouping of texts according to their textual scheme (narrative, descriptive, etc.) or their genre (business letter, editorial, etc). Can we then directly teach a genre in general? As for what is teachable, B. Schneuwly (2001: 92) explains on the teaching of oral and written production, “these are cultural techniques in which materialize, according to various situations, these capacities general, namely genres and their multiple dimensions”. For

these concrete 'cultural techniques' can be identified by the clues linguistics, it would require gender analysis (enunciative or pragmatic, etc.) depending on the purpose of the lesson. Teaching can use the types of texts insofar as "the type differs from the genre in that it implies a possibility of identification on the basis of its linguistic properties" (J.-P. Bronckart: 1996: 45). The type(s) of text represented by the given genre can therefore be used as a language unit so that it is teachable at the level of the language properties that can be identified in a text. For enter heterogeneous writings.

Discussion. It will be assumed that the learners have already learned a certain grammar, vocabularies and that they are not beginners. The proposed sequence is composed of four stages which could be divided into sub-sessions. We begin by examining which representations about the genres to be used have the learners. Then the session will be devoted to teaching the heterogeneity of the text whose aspects can be approached in multiple ways. Despite a large textual heterogeneity, learners should recognize the law of genre and the reading contract pre-established and imposed by the genre. They should finally get to grasp the interdiscursivity between genres. It is by comparison and contrast of texts that learners would appropriate the differences and similarities between texts. We did a survey on journalistic gender recognition among our students, an activity was offered to students in the form of comparison between the written press of French and Arabic expression, and finally emerge with a result concerning the content of the two genres. For which concerns the criteria for gender recognition, they are not identical between two respondents. It is about the difference in the cultural representation of a genre that is rooted in a given society. For the teaching of reading the text in a foreign language, it is therefore necessary to observe the gender representation of the learner and to transpose the representation, attached to his mother tongue and preventing him to accept the cultural difference of the text. In this step, we could observe the difference of same-gender mariality in the mother tongue and in a foreign language or that of the paratext, which characterize the genre from a point of 'visual' view. If we use the journalistic genre, we could examine in 158 what position he stands in discussing the social importance of this genre in the given company. Not all genres are written the same way, which means they are not read the same way. To point this out, the teacher will use, in this step, various types of texts belonging to the genres different from each other. For text typology, we could use that of J.-M. Adam (narrative, descriptive, argumentative, etc.).

Results. For classroom activities that aim to recognize the heterogeneity of the text, we present some examples: a) The heterogeneity of the organization of the text. The narrative develops according to time (ex.: news items in the newspaper) whereas in the description in general one cannot find the chronology (ex.: advertisement of clothes in a women's magazine).

b) The heterogeneity of the function of the text A type of text can play a different role depending on the genre to which it belongs. The explanatory type (e.g. scientific report) published in a journal specialist, which deals with the danger of tobacco, can have the argumentative function insofar as he convinced the receiver to quit smoking. In general he has a function either to solve a problem or to answer a question posed.

b) The enunciative heterogeneity of the text In a newspaper where there are many genres, the teacher can choose, for example, the news item and the comparison between 03 different articles dealing with the same theme: speech by the President of the Republic. By offering the articles to learners who would discover that the understanding

is not always the same among our learners, the clear differences in the manifestation of the subjectivity of the writer.

In this step, we emphasize that reading can be learned more systematically and facilitated by learning the rules of the genre. It's not about yet no strict regularity like syntactic rules but recognition of the "atmosphere" of the text (F. François: 1994) as "A text, like a person or a landscape, is manifested by a certain atmosphere in respect of which we feel ourselves to be agree or disagree. There is no irrationality in saying that the essential of the influence of a text can be its atmosphere, as a meaning linked to the materiality, to the way of saying and not to the translatable part of the message, to its content" (F. François: 1994: 40). One could therefore say that the "atmosphere" of the text is determined by the dominant language characteristics. The text chosen was that of Bachir Derais. For class practice, it is necessary to analyze the genre to be used and its "atmosphere".

The teacher can establish directories of gender characteristics. For the presentation of these characteristics in class, we will start with the text which represents the central core of the characteristics of the genre, and then we will use the one that has the variation in dosage of each language feature and the misfit. This is how the learner would know that the gender to the variation of the "atmosphere". Let us take as an example the editorial in the written press whose one of the characteristics is to teach a lesson or "moral" to the recipient(s). Learners will say "too many morals as a fabulist! or "little lesson here", this may change depending on the political position of the newspaper or depending on the event treaty. The universe of discourse being always interdiscursive, it would be necessary in the teaching of written comprehension take into account the competence "interdiscursive" by which the learner can distinguish one genre from another.

This interdiscursive competence would allow him to choose a strategy of reading that is pre-established and therefore demanded by the genre. It could be here sorting texts belonging to different genres so that learners arrive at select the same genres among them. Activities can start with genres that are clearly distinguished, such as advertising and report in a newspaper. Learners will identify the characteristics of each genre. Then we can use the genres that are less distinct from each other. others like the ticket and the editorial. Thus the learners would arrive, at the end of the sequence, to recognize the transition from one genre to another or the similarity between genres. This important step should not be overlooked!

Conclusion. Reading is not a simple decoding but a communicative act, an interaction between text and reader. The learner as reader should know how to act appropriately in the face of various texts and 'navigate' freely in a space inter-textual. To do this, it would be necessary above all to master the genre and the types of texts as navigation rules in the textual space. Teaching centered on the learner and aimed at his autonomy in acquisition of language knowledge, skills and attitudes and general can no longer disregard the importance of strategies of learning. This is especially true for reading. Indeed, even if we have entered the era of the image par excellence, the text/document is always an essential means of obtaining information, training and quite simply function in society, whether at school, in their professional environment or in his private environment. The pupil will find it all the more easy to study at school and later in higher education as he becomes a skillful reader/processor of information. The level of "literacy" demanded by society is increasingly high and many adults and young people no longer reach it in their mother tongue and all the more less in a foreign language. This is why it is essential to read a lot and to promote the

implementation of reading strategies that contribute to comprehension. In addition, it is important to give the FLE student a taste for reading. We therefore offer you a summary

inventory of the essential strategies and then a example of a reading activity carried out with a few excerpts in the next points.

LITERATURE

1. Cornaire: La compréhension orale, Ed. Clé international Paris, 1998, p 54.
2. Cuq. J.P; Gruca I: cours de didactique du français langue étrangère et seconde, Ed Pug, Grenoble, 2002. – P.117.
3. DÉCURÉ, Nicole, Françoise FRAGER & Elizabeth ALI. Help! Exercices et Jeux pour la classe d'Anglais. Toulouse: CRDP. 1985
Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб айтганда, маълум соҳага оид контекст таржимасини амалга оширишда бир томонлама ҳаракат қилиш, яъни таржима тури танланиши керак. Таржима тури ва усули аслият матни мазмунининг таржимон томонидан идрок этилиши ва уни қайта яратишда етарлича салоҳиятга эга эканлиги билан боғлиқ. Матнда ифодаланган терминни тасвирловчи маълумотларни тўлиқ ва тушунарли тарзда етказиш таржимондан сўзамолликни талаб этади. Танланган усул қўлланган натижани бериши учун матн тузилишини ташкил этган тил бирликларининг вазифасига эътибор қаратиш лозим. Таржимоннинг вазифаси ҳар қандай мураккаб жараёнда ҳам таржима матнидаги сўзларни китобхонага тушунарли бўлган, стоматологияга оид матнда қўлланилган термин мазмунини ифодаловчи эквивалентлар билан алмаштиришдан иборат. Яъни, 1) танланган матнга тегишли терминнинг адекватликини сақловчи тўғри эквивалент билан таъминланиши керак; 2) ҳар бир таржима қилинган термин аслият ва таржима тилида акс эттирувчи мазмун терминлар тизими қисмида тўғри ифодаланганлигини текшириш зарур; 3) аслият ва таржима тилида ифодаланган маъноларнинг ўзига хослиги инобатга олиниши керак. Шунингдек, стоматология терминологиясида терминлар: а) аслият тилидаги терминнинг таржима тилидаги эквивалентини “аниқлаш”; б) семантик конвергенция (ўхшаш хусусиятларидан келиб чиқиб таржима қилиш); в) семантик ва структур калька; г) ўзлаштириш; д) юнон-лотин интернационал воситаларидан фойдаланиш; е) дискриптив каби таржима усуллари орқали ўгирилади.

Дарвоқе, стоматологик терминлар семантик категория нуқтаи назаридан таҳлил қилиб ўрганилади. Терминлар тизими шуни кўрсатдики, инглиз, рус ва ўзбек тилидаги стоматологияга оид терминларнинг кўп қисми от сўз туркуми орқали ифодаланган. Таҳлиллардан аниқландики, сифат сўз туркумига оид терминлар кўпроқ рус тилига хос. Феъл сўз туркуми орқали ифодаланган терминлар ҳар уччала тилга ҳам тегишли бўлиб, сифатдош-терминлар эса инглиз, рус, ўзбек тилларида кам ҳолларда учрайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Касарес Дж. Введение в современную лексикографию. – М.: Прогресс, 1958. – С.69.
2. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М.: Высшая школа, 1972. – С.267.
3. Paul D.Deane Polysemy and cognition // *Lingua*. Volume 75, Issue 4, August 1988. – P. 325-361.
4. URL: <https://www.sciencedirect.com/journal/lingua/vol/75/issue/4>
5. Ullmann St. Words and their use. – London. 1951. – P.48.
6. Прошина З.Г. Теория перевода (с английского языка на русский и с русского языка на английский): Учебник на англ. яз. – Владивосток: Изд-во Дальневост. ун-та, 2008. – С.126.
7. <http://www.translatos.com/ru/ru-uz>
8. Collins Cobuild Advanced Learner's English Dictionary. New Digital Edition. – Oxford: © Harper Collins Publishers, 2008. The Universal English-Russian Dictionary. © ABBYY, 2011. 100,000 entries.
9. John Lyons. Structural Semantics: An Analysis of Part of the Vocabulary of Plato. – Oxford: Blackwell, 1963. – P. 237.
10. Боярская М.М. Проблемы многозначности и методы её определения в современном английском языке. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-mnogoznachnosti-i-metody-eyo-opredeleniya-v-sovremennom-angliyskom-yazyke> John Lyons. Language and Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – P.144.

11. Казак Н.А., Васильева Н.А. Явление полисемии и ее виды в терминологии // Universum: Филология и искусствоведение: электрон. научн. журн. – М., 2018. – №10(56).
12. URL: <https://7universum.com/ru/philology/archive/item/6438>
13. Ullmann St. Words and their use. – London. 1951. – P.48.
14. <https://www.ada.org/en/publications/cdt/glossary-of-dental-clinical-and-administrative-terms>
15. <http://www.lingvo.ru>



Завқиддин СУВОНОВ,
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
E-mail: suvanovzavqidin86@gmail.com

ТошДўТАУ доценти, филол.ф.д. И.Исломов тақризи асосида

БАДИИЙ МАТНДА БАҲСЛИ МАТЕРИАЛЛАРНИ АНИҚЛАШ

Аннотация

Иркий камситиш ва таҳқирлаш, диний камситиш ва таҳқирлаш, айирмачлик (сепаратизм), жинсий тажовуз тарғиби, тарихий ҳақиқатни бузиш, ғайриилмий қарашларни илгари суриш, диний ҳукмларнинг нотўғри талқини, ғайриқонуний ҳаракатларнинг оқланиши ҳолатлари, нотўғри таржима ҳолатлари, мантикий хатоликлар, ноўрин ифодалар, илмий хатоликлар, яширин ғояларни аниқлаш назарда тутилади.

Калит сўз: Бадий матн, лингвистик экспертиза, ғайриқонуний ҳаракат, оқланиши ҳолатлари, нотўғри таржима, мантикий хатоликлар, ноўрин ифодалар, илмий хатоликлар, яширин ғояларни аниқлаш.

IDENTIFYING CONTROVERSIAL MATERIAL IN A LITERARY TEXT

Abstract

Racial discrimination and insults, religious discrimination and insults, separatism, promotion of sexual assault, violation of historical truth, promotion of non-scientific views, misinterpretation of religious rulings, cases of justification of illegal actions, cases of incorrect translation, logical errors, inappropriate expressions, scientific errors, is intended to identify hidden ideas.

Key words: Literary text, linguistic expertise, illegal act, cases of justification, mistranslation, logical fallacies, inappropriate expressions, scientific errors, detection of hidden ideas.

ВЫЯВЛЕНИЕ СПОРНОГО МАТЕРИАЛА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

Расовая дискриминация и оскорбления, религиозная дискриминация и оскорбления, сепаратизм, пропаганда сексуальных посягательств, нарушение исторической правды, пропаганда ненаучных взглядов, неверное толкование религиозных предписаний, случаи оправдания незаконных действий, случаи неправильного перевода, логические ошибки, неуместность выражений, научных ошибок, предназначен для выявления скрытых идей.

Ключевые слова: Художественный текст, лингвистическая экспертиза, противоправное деяние, случаи оправдания, неправильный перевод, логические ошибки, неуместные выражения, научные ошибки, выявление скрытых мыслей.

Кириш. Методологик нуқтаи назардан, матнга лингвофеноменологик ёндашув (Е.Гуссерл, Г.Шпет ва бошқалар) асосида етарли даражада ривожланган кўринади. Унда сўзловчининг мақсадли маънолари у ёки бу компонент белгилар, тажриба объектлари, уларнинг алоқалари ва муносабатлари таркибига мослаштирилади. Шу билан бирга, бу ёндашув ахборот-мантикий матнларни таҳлил қилишда адабий матнларга қараганда кўпроқ адекват эканлиги эътиборни тортади.

Бадий матнни унинг муаллифи субъектив дунёсининг акси сифатида тушуниш экспериментал эстетика (Г.Фехнер, Т.Липпс) ва гесталт эстетикаси (Г.Ейзенк, Р.Анхайд) ҳамда ҳиссий формализм (К.Пратт, Р.Портер) каби соҳаларга хосдир. Л.А. Новиков “Художественный текст и его анализ” (Бадий матн ва унинг таҳлили) асарида рус адабиётида мавжуд асарлар матнларини лингво-стилистик таҳлил қилиш хусусида гап боради. Ҳар бир матн керакли маълумотнома билан таъминланган. Унда асосий эътибор бадий матн ичидаги баҳсли манбаларни турли ва ўзаро боғлиқ даражалари: ғоявий мазмун, жанр-композицион тузилма ҳамда эстетик жиҳатдан ташкил этилган тизим сифатида тил бирлигида яхлит таҳлил қилишга қаратилган. Талқин этувчи тил материали, шунингдек, адабий-тарихий-маданий хусусиятга эга бўлган маълумотлар таҳлилни ўқувчиларга қулай қилиш учун хосланган [1].

Кейинги йилларда, бундан ташқари, сезги тизимлари физиологияси соҳасида ҳам тадқиқотлар пайдо бўлди. Нейроэстетика соҳаси доирасидаги ифода

психофизиологиясининг когнитив таркибий қисми тавсифининг эстетик тажрибаларни бадий матнни биологик омиллар билан боғлиқ ҳолда таҳлил қилиш имконини беради. Унда гўзал (уйғун, ёқимли ва ҳоказо) нафақат ижтимоий-маданий, миллий ёки тарихий меъёрларни ўрнатиш натижаси, балки миядаги умуминсоний фаолиятнинг намоён бўлиши ҳам таъкидланади. Шундай қилиб, матнни тилнинг энг олий бирлиги сифатида эмас, балки инсон тафаккурининг энг юқори бирлиги деб ҳисоблаш тенденцияси мавжуд эди [2]. Айниқса, баҳсли матнга бўлган қизиқиш ортида эса лингвистик белгилар ёрдамида ташқи фаолиятни режалаштириш ва тартибга солишнинг ички жараёни бўлган нутқ моҳияти муаммоларига қизиқиш ётади [3]. Бадий матнга бўлган қизиқиш жараёнида тил шахси муаммосига ҳам муносабат сезилади. Чунки “Тилнинг ўзини ундан четга чиқмасдан, унинг яратувчисига, ташувчисига, фойдаланувчисига – шахсга мурожаат қилмасдан билиш мумкин эмас [4]. Тил шахсини биринчи навбатда матн орқали билиш мумкин. Чунки “Ҳар бир матн ортида тил тизими эга бўлган тил шахси туради” [5]. Тил шахси ҳақидаги фикрлар тил ва нутққа психолингвистик ёндашувга яқин жараён. Инсон нутқи ва тафаккур фаолияти натижасида нутққа ёндашиш психолингвистикага матнни инсон нутқий фаолияти ходисаси, тил тизими элементларидан фойдаланган ҳолда муаллифнинг нутқ онгида воқеликни акс эттириш усули сифатида қараш имконини беради. Масални, бу ҳолатни таҳлил қилиб, А.А.Потебня шундай деб ёзган эди: “Масал

– бу кундалик муносабатларни, инсоннинг характерини, бир сўз билан айтганда, одамлар ҳаётининг ахлоқий томони билан боғлиқ бўлган ҳамма нарсани тушуниш усулларидан бири” [6]. Очиғи, юқоридагиларни умуман ҳар қандай санъат асарига боғлаш мумкин. Агар шахсларо мулоқотда одамлар ҳар доим ҳам ўзлари ўйлаган нарсаларини айта олмасалар ва бундан ҳам кўпроқ улар ўйлаган ҳамма нарсани айта олмасалар, унда бадий матнда шахсиятнинг намоён бўлиши учун кўпроқ эркинлик мавжуд.

Инсоннинг ички дунёси, одамлар дунёси ва уларга муносабати бадий матннинг энг муҳим вазифасидир. Бу ерда Г.В.Степановнинг бадий матн нафақат воқеликнинг инъикоси, балки инсоннинг оламга муносабатини табиий тил воситасида ифодалашдир, деган фикри мутлақо тўғридир [7]. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, бадий матндаги баҳсли ўриннинг вазифалари ҳам кўп қиррали кўринади. У алоқанинг асосий бирлиги, маълумотни сақлаш ва узатиш усули, маданиятнинг мавжудлиги шакли ҳамда маълум бир тарихий давр маҳсули, шахс ҳаётининг акси в. б. сифатида ишлайди. Бу матннинг кўп қирралигини англатади.

Л.В.Шчербадан келиб чиққан психолингвистиканинг муҳим постулати “Матн ва унинг ишланиши ёки идрок этилишидан ташқарида мавжуд эмас” деган фикрдир [8]. Ўз фикрида матннинг ўз проекциясини яратадиган ўқувчи учун рағбат сифатида, бу проекция муаллифнинг, яъни матннинг маъноси ҳақидаги ғоясидан фарқ қилиши мумкинлигини кўрсатади. Бадий матнни идрок этиш натижасини психолингвистик таҳлил қилиш учун интеллекларнинг ўхшашлиги ҳақидаги қоида асос бўлиб хизмат қилади. Бундан келиб чиқадики, матн Рубакин гипотезасига [9] мувофиқ, психологик хусусиятлари муаллифниқига энг яқин бўлган ўқувчи томонидан энг адекват идрок қилинади.

Кўрсатилган ёндашувлар билан бир қаторда бадий матнга, унинг қаҳрамонларига ва муаллифига психологик, психоаналитик ва психиатрик ёндашувлар самарали кўринади.

Тўлиқ деб ҳисобланиши мумкин бўлган ва терминологик хусусиятга эга бўлган баҳсли матннинг таърифи ҳали ишлаб чиқилмаган. Бошқа фанлар сингари, тилшунослик ҳам кўпинча тўлиқ тушунтиришга эга бўлмаган тушунчалар билан ишлаган. “Сўз” ва “гап” тушунчаларини аниқлашга кўп асрлик уринишлар маълум. Ҳозирги вақтда уларга “бадий матн”, “баҳсли матн” тушунчаларини ҳам киритиш мумкин. Бироқ, матн тушунчасини 60-йилларнинг иккинчи ярми 70-йилларда энг тез ривожланган тилшуносликдаги ушбу йўналиш доирасида кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ деб ўйлади. Бу йўналиш матн лингвистикаси деб аталади.

Хориж тилшунослигида ушбу лингвистик йўналишнинг ривожланиши ҳозирги кунга қадар биринчи навбатда Америка структурализми доирасида ва, айниқса, тилшунослик назариясини қуришда тасдиқланган тилшунослик тадқиқотларидаги айрим усулларнинг чекланганлиги ҳамда идеализмга нисбатан табиий реакция эди. Бу эса генератив трансформацион грамматикада ўз акс кўрсатди.

Матн, одатда, муаллифнинг умумий нияти доирасида бир-бири билан боғланган жумлаларнинг тўлиқ кетма-кетлиги сифатида тушунилади. Бундай таклифларнинг ўзаро боғлиқлиги ёки изчиллигини аниқлаш энг муҳим мезонларидан бирига айланади. Демак, К.Бринкер матн бир-бири билан маъно жиҳатдан боғланган гапларнинг изчил кетма-кетлиги ёки бошқача айтганда, гаплар кетма-кетлиги эканлигини таъкидлайди

[10]. Бундай таърифдан тадқиқотчи дастлаб матнни ўқувчи томонидан нотўғри талқин қилишига йўл қўймаслик учун ушбу боғланиш турларини ва уни узатиш қоидаларини аниқлаш вазифасини олади. Шу билан бирга, ҳар хил турдаги матнли тақрорларга, айниқса, номиналларга катта эътибор берилади. Лотманга кўра, тақрорлаш ва матн алмаштиришга қизиқиш билан бир қаторда матн ичида гапдан каттарок узунликдаги бирликларни излаш ва бундай бирликларни таҳлил қилиш – мураккаб синтактик яхлитлик, супер фразеологик бирлик, параграф характерли бўлади, [11] дейди.

Бу саволларга жавоб топиш масаласида рус тилшунослигида сезиларли ютуқларга эришилди. Бу вақтда ибораларо муносабатлар ва алоқаларни, шунингдек, жумла ва матн ўртасидаги оралик бирликлар муаммоларини бутун матннинг тузилиши ва хусусиятларига оид масалаларни ўрганувчи кўплаб асарлар пайдо бўлди. Бундай таҳлил қилишининг турли бирликлари ўртасида пайдо бўладиган анафорик муносабатлар ғояси муҳим рол ўйнади

Таъкидланганидек, аналогия асл ном нуқтаи назардан анафорик боғлиқликни юзага чиқариш учун иккинчи даражалиликни талаб қилади. Биринчи навбатда тилга олинган ва иккинчи даражали, анафорик номларнинг бундай графикли тақсимланиши бош банд ибораси, унинг тузилиши ҳамда тилга олинган номларнинг матн моҳиятига катта қизиқиш уйғотади. Олдиндан эслатиб ўтилган матн элементларига қарши ўларок муҳолифат (баҳсли матнга кўра) матннинг пайдо бўлиши, уни олдиндан эслатиб ўтиш ғояси билан чамбарчас боғлиқ бўлган бошқа ҳодисаларга ҳам эътиборни қаратади. Сўз таркиби ҳақиқий артикуляция ҳодисаси. Аниқ ва ноаниқ артикларнинг тақсимланиши баёнда намоён бўлади. Бунда аниқлик категориясини ифодалашнинг бошқа воситалари ҳам бор. Иборанинг ишланишига қизиқиш параграфнинг тузилиши бўйича кўплаб асарларнинг пайдо бўлишида ифодаланади.

Бироқ, тилшуносликдаги матнга бўлган эътиборнинг ортиши, тез орада маълум бўлишича, уларнинг нафақат назарий жиҳатдан анча содда ва янги, балки матндаги уйғунлик, яъни ички боғлиқлик ҳамда анафора ҳақидаги ғояларга қизиқиш билан англашдилади. Матн тилшунослигининг барча ғоялари ва муаммолари дастлаб изчил матн тушунчаларининг ушбу тор базасида пайдо бўлиб, сезиларли даражада кенгайиб бормоқда ва пайдо бўлган матн лингвистикаси аста-секин онтологик урғуни ўзгартирмоқда. Бундай янги йўналиш сари биринчи қадам сифатида матн лингвистикасининг “тилни ҳаракатда” ўрганувчи фан сифатида таърифини кўриш мумкин. Ушбу таърифга мувофиқ, матн тилшунослиги ёзма нутқда лисоний бирликларнинг қўлланилишини, уларнинг моҳиятини ўрганиш билан шугулланади. Матн тилшунослиги дастлаб шундай тушунилган. Бироқ, “тил – нутқ” дихотомияси нутққа индивидуалликда намоён бўладиган хусусиятларнинг маълум бир тасодифийлигини белгилайди. Унинг қиймати тил тизимини келажақда бойитишида намоён бўлади. Матн лингвистикаси эса индивидуал қўлланишларни таҳлил қилиш билан эмас, балки “умумий қолипларни, нутқнинг умумий шакллари, уни бойитишнинг асосий йўналишларини излашга интилади. Матн лингвистикасининг вазифаси – шу аниқ соҳанинг субстантив ва формал бирликлари билан матннинг грамматик категориялари тизимини топиш ва қуриш.

Ҳозирги босқичда бадий матннинг лингвистик экспертизасида коммуникатив режа масалалари, ишланган матн бирликларининг бир маъноли талқинини таъминлайди. Унда алоқа шароитларини ўрганиш

вазифалари гапларнинг семантик ва расмий ўхшашлиги муаммоларига эмас, балки кетма-кет жойлаштирилишини таъкидлайди, дейилади, Домашневга кўра [12]. Бадий матн концепциясини баҳолашнинг муҳим жиҳати сифатида коммуникатив йўналишида матн – муаллиф томонидан бир хил идрок этиш ниятида яратилган нутқ асари қоида тариқасида, индивидуал коммуникаторга эмас, балки бир нечта ва ҳатто кўплаб мулоқотчилар учун хосдир. И.Р.Гальперин эса матн мазмунини тушунишда нафақат маъно(инглиз тилида meaning, русчада значение) ва моҳият (инглиз тилида main point, русчада смысл), балки матн мазмуни (инглиз тилида content, русчада содержание) ҳам муҳим эканини қатъи уқтиради.

Хулоса. Тадқиқотчилар, асосан, бадий матн таркибидаги баҳсли матннинг лисоний бирликлар орқали боғланиш турларини ўрганиш билан шуғулланганларида матн лингвистикасига хос бўлган шу ва шунга ўхшаш кузатиш ҳамда хулосалар умумлаштирилади. Шу муносабат билан бу соҳа боғланган матн сифатида англашилади. Матн тилшунослигини тубдан янги соҳа деб бўлмайди. Қадимги риторикада гапларни боғлаш қоидалари, сўз тартиби қоидалари, артиклардан фойдаланиш ва ҳоказолар муҳокама марказида бўлган. Грамматика ва услуб дарсликлариди ҳам кўп муносабат билдирилган.

АДАБИЁТЛАР

1. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. 2003. <https://obuchalka.org/20220204140884/hudojestvennii-tekst-i-ego-analiz-novikov-l-a-2003.html>
2. Новиков Л.А. Лингвистическое толкование художественного текста. 1983. 19-33
3. Тарасов Е.Ф. Проблемы теории речевого общения: Научный доклад по опубликованным трудам, представленный к защите на соискание ученой степени доктора филологических наук. М.: Институт языкознания РАН, 1992. 56 с.
4. Караулов, Ю.Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов; Отв. ред. Д. Н. Шмелев; АН СССР, Отд-ние лит. и яз. - М.: Наука, 1987. – Б. 8. (261).
5. Караулов, Ю.Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов; Отв. ред. Д. Н. Шмелев; АН СССР, Отд-ние лит. и яз. - М.: Наука, 1987. – Б. 8. (261).
6. https://studme.org/216141/literatura/aleksandr_afanasevich_potebnya
7. Степанов В.В. Справочник сварщика. 1974.
8. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. А. А. Леонтьев. - Москва : Просвещение, 1969. - 211 с.; 20 см. - (Вопросы советского языкознания). – С.15.
9. Рубакин Н.А. Психология читателя и книги. Краткое введение в библиологическую психологию. - М.: 1977. <https://psyfactor.org/hist/rubakin-psiologija-chitatelja-i-knigi-1.htm>
10. Филиппов К. А. Лингвистика текста. Курс лекций. издательство С.-Петербургского университета. <https://lektii.org/6-59819.html>
https://vk.com/doc12780981_586871158?hash=7vg2si4Zq2gSETqWsjIWSiEMnGwM7eIWGFXgWMGOdMD. С.32.
11. Домашнева С.Г. Выделяются: Краткое описание русских стихотворцев. – М., 1763. –с. 41.
12. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 139 с.



Умида Тўраева,
Қариш халқаро университети ўқитувчиси
E-mail: turayevaumida1973@gmail.com

ҚарДУ профессори, ф.ф.д Т.Жумаев тақризи асосида

АБДУЛЛА ОРИПОВ ИНТЕЛЛЕКТИНИ ИФОДАЛАШДА «ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ»ДА ҚАЙД ЭТИЛМАГАН СЎЗЛАР ТАСНИФИ

Аннотация

Ушбу мақолада ўзбек тили лексикаси сатҳини бойитишда Абдулла Орипов шеърятда қўлланган, бироқ «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»да қайд этилмаган лексик бирликларнинг лингвистик моҳияти баён этилган. Унда келтирилган далиллар ўзлашма этимологик қатламга оид бўлса-да, шоир индивидуал нутқининг эмоционал-экспрессивлик қийматини оширишдаги аҳамияти кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Семантик, поэтик таҳлил, координатив, иллюстратив, окказионал, тавтология, эмоционал-экспрессив, изоҳли луғат.

КЛАССИФИКАЦИЯ СЛОВ, НЕ УПОМЯНУТЫХ В "ТОЛКОВОМ СЛОВАРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА" В ВЫРАЖЕНИИ ИНТЕЛЛЕКТА АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Аннотация

В статье описывается лингвистическая сущность лексических единиц, используемых в поэзии Абдуллы Орипова для обогащения уровня узбекской лексики, но не упомянутых в «Толковом словаре узбекского языка». Хотя представленные в нем свидетельства относятся к этимологическому слою ассимиляции, они показывают важность индивидуальной речи поэта в повышении эмоционально-выразительной ценности.

Ключевые слова: Семантик, поэтический анализ, координатив, иллюстратив, окказионал, тавтология, эмоционал-экспрессив, изоҳли луғат.

CLASSIFICATION OF WORDS NOT MENTIONED IN THE "EXPLANATORY DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE" IN THE EXPRESSION OF THE INTELLECT OF ABDULLAH ORIPOV

Abstract

The article describes the linguistic essence of the lexical units used in the poetry of Abdulla Aripov to enrich the level of the Uzbek vocabulary, but not mentioned in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language". Although the evidence presented in it belongs to the etymological layer of assimilation, they show the importance of the poet's individual speech in increasing the emotional and expressive value.

Key words: Semantics, poetic analysis, co-ordinate, illustrative, occasional, tautology, emotional-expressive, explanatory dictionary.

Kirish. Етакчи иждокорлар бадий нутқида қўлланган тил ифодаларини чуқур ва атрофлича ўрганмай, давр тилига, тилининг муайян даврдаги ҳолатига муносиб баҳо бериб бўлмайди. Муаллифнинг ўз ижодида айтмоқчи бўлган фикри, воқеа-ҳодисага бўлган муносабатларини тушунишда у қўлланган сўзларнинг мазмун-моҳиятини англаш муҳим. Айниқса, изоҳли луғатларда қайд этилмаган сўзларнинг поэтик мазмуни ва вазифаларини англашда, биринчидан, матннинг умумий мазмунидан келиб чиқиш, яъни контекстуал ёндашиш ҳамда иккинчидан, сўзларнинг луғавий маъноларини кидириб топиш ва англаш зарур бўлади. Абдулла Орипов асарларида қўлланган бундай сўзларга қўлаб мисоллар келтириш мумкин. Қуйида ана шундай сўзларнинг айримларини семантик, услубий ва поэтик таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Абдулла Орипов ижодида қўлланган арвона сўзи форс тилида қуйидаги маъноларни англатади: арвона (ф) 1 айёр; 2 – қадимий форс дарёсининг номи.

Сўз қўлланган сатрларни таҳлил қилсак, ҳар икки маъно ҳам тўғридек:

Кўп қадимман,
Карвон билан замонлар кечдим,
Нор туянинг норлиги ҳам афсона экан.

Бир кун туя айронини шифо деб ичдим,

Она туя номи эса арвона экан. («Ўзбек тили»)»

Шу ўринда қайд этиб ўтиш керакки, сўзнинг қўлланишида учта заруратни таъкидлаш лозим: биринчидан, арвона сўзи афсона сўзига қофия танлаш нуктаи назаридан қўлланган ва бунда афсона сўзи таянч, арвона эса қўмакчи мақомида; иккинчидан, аксинча, арвона сўзини қўллаш зарурати афсона сўзини такозо этган. Бунда энди арвона етакчи мавқеда туради; учинчидан, арвона сўзининг афсонавий мазмуни кейинги сўзнинг қўлланишига сабаб бўлган ва бунда ҳар икки сўз орасида координатив семантик боғланиш мавжудлиги ҳақида гапириш мумкин бўлади.

Бадий адабиётда айтилмоқчи бўлган фикрнинг эмоционал таъсирчанлигини оширишда окказионал сўзнинг ўрни бекиёс. Масалан, шоирнинг қуйидаги мисраларини кузатганимизда устоз сўзини форс тилидаги фаҳмосо («тушунтирувчи») сўзи билан бирга қўлаши лирик матннинг ўзига ҳослигини таъминлашга хизмат қилаётганлигига амин бўламиз. Масаланинг яна бир томони шундаки, сўз фақат лирик асар таъсирчанлигини оширишга хизмат қилишдан иборат дейиш хато бўлади. Матннинг санъат асари сифатида тан олиниши учун бетакрорлик ҳам зарур омиллардан. Бунга тасвирланаётган воқеа-ҳодиса, уни ифодалаш услуби

хамда қўлланаётган сўзлар семантик ва поэтик кўламнинг кенлиги билан эришилади:

Шундоқ жавоб этди устоз фаҳмосо:

“Рухинг маҳкам бўлсин бу ерда фақат,

Энгмасин таҳлика, бўл буткул огоҳ. (Данте Алигьери. «Илоҳий комедия»)

Чет тилидан ўзбек тилига кириб келган сўзларни қўллаш билан боғлиқ айрим хатолар мавжуд эканлигини оғзаки ва ёзма нутқда кузатиш мумкин. Масалан, араб тилида олим сўзининг кўплиги уламо, кўплаб ўринларда бу сўзнинг уламолар шаклида қўлланиши билан боғлиқ хатоларни кўрамиз. Масалан, “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” 3 жилдида уламо сўзи қуйидаги маъновий кийматга эгаллиги таъкидланади:

УЛАМО [а. – “олим” с. кўпл.] Ислом илоҳиётчилари ва ҳуқуқшунос (факих)лари, шунингдек, диний муассасаларга, суд (козилик) маҳкамаларига, ўқув юртларига мутасадди бўлган барча ислом дини олимлари.

Бироқ иллюстратив мисоллар берилган изоҳ билан унчалик ҳам мос тушмаган. Чунки изоҳда сўзнинг кўплик маъносига эканлигига урғу берилган (“...олимлари”). Мисолда эса кўплик кўшимчаси қўшиб қўлланган ҳолатни ҳам кўрамиз. Қиёсланг: – Дуруст, миянг тўлибди, – деди кулиб Тангибойвачча, – яқин ўртада унча-мунча уламони бир чўқишда қочирасан. Ойбек, Танланган асарлар. Маъдалихон [Муҳаммад Алихон]га фатво ёзиб берган Кўкон уламоларидан бир нечалари.. қочиб кутулдилар. А.Қодирий, Меҳробдан чаён. – Ёшларга ҳомийлик қилиш, йўл-йўриқ кўрсатиш исломнинг, уламоларнинг ишидир, – деди қалтираб, бўзариб мунофиқлардан бири. Ойбек, Нур кидириб.

Қуйидаги мисраларда ишлатилган марқад сўзи араб тилидаги қабр сўзининг кўплик шакли, шеърнинг вазн ва қофия талаби билан сарҳадлар, марқадлар тарзида қўллаш билан боғлиқ хатolik юзага келган:

Ўртада дарё бор –жўшқин ва асов,

Узала тушганди нотинч сарҳадлар.

Замонлар орага содди турфа ғов,

У ёнда интизор не-не марқадлар. (Хирот. 6/171)

Назаримизда, мантқ ёки поэтик мазмун эмас, балки поэтик шакл – қофия эҳтиёжи сўзни шу шаклда истифода қилишга олиб келган.

Тадқиқод методологияси. Маълумки, бошқа тиллардан сўз олиш ҳисобига бойиш ҳодисаси барча тилларга хос. Абдулла Орипов ҳам ўз ижодида ушбу ҳолатдан унумли фойдаланганлигини кўплаб ўринларда кузатиш мумкин. Қуйида берилган муҳаммасида қўлланган арабий қатламга мансуб мақдам сўзи “келиш жойи” ва “қадам қўйган жой” маъноларини аңглатади ва вазн талабига кўра қадами, оёғининг ости ифодаларидан кўра устунлиги ҳамда арабий сўзлар кўплиги бадий меъёр бўлган Навоий ижоди лексикасига яқинлашиш эҳтиёжи сабабли ҳам ўринли:

Танимни бўйла зах айлағон қон бири, бири ашк,

Не эрди билмам, аё жононки, ғалат сир ашк,

Мени қилурким ғарики дарё, нетай, охири ашк,

Кўзум ҳақини биҳил қилдим, эй жавоҳири ашк,

Ки бори ҳам онгинг-ўқ мақдамига сочиласиз

(Алишер Навоий ғазалига муҳаммас.)

Сўзларни қўллашда маълум меъёрларига амал қилиш нутқнинг ҳамма учун тушунарли бўлишини таъминлайдиган воситалардан бири. Лексемалар қўлланишига кўра чекланмаган ва тор қўлланишга эга бўлади. Шу жиҳатдан ўзбек тили лексикаси икки қатламга бўлинади: а) қўлланиши чегараланмаган лексика; б) қўлланиши чегараланган лексика. Қўлланиши чегараланмаган (умумистеъмол) лексика ўзбек тили луғат

таркибининг асосий қисмини эгаллайди. Бундай лексемаларни шу тилда сўзлашувчи кишилар, қандай шева, ҳудуд, касб ёки соҳага мансуб бўлишидан қатъи назар тушунади ҳамда эркин ишлатади. Бундан ташқари, тилимизда қўлланиш доираси чегараланган, ҳамма ҳам ишлатавермайди диган сўзлар мавжудки, бундай сўзлар ҳам қўлланиш даври ҳамда қўлланиш доирасига кўра чегараланган бўлади. Шоир Абдулла Ориповнинг ижодида ҳам бунга даҳлдор ҳолатлар талайгина. Масалан, шоирнинг қуйидаги мисрасида қўлланган муқарраб (“яқин”) сўзи эътиборимизни тортди. Араб тилидан кириб келган ушбу сўз асосан мумтоз адабиёт намуналарида ислом динига оид қарашларни ифодалашда қўлланган: ва шайх ул-ислом муқарраби Ҳазрат Борий Хожа Абдуллоҳ Ансорий. Ҳозирги кундаги диний адабиётларда Аллоҳ субҳанаҳу ва таолонинг даргоҳидан энг ишончли ва энг муқарраб фаришта олиб тушган илоҳий калом... каби қўлланишлар мавжуд. Абдулла Орипов ижодида ҳам ушбу сўз “Жаннатга йўл” достонида қўлланган. Жаннат сўзи ҳам ислом динидаги энг муҳим тушунчалардан бири, демак, бу ўринда шоир сўзни шунчалик қофия ва вазн талабига кўра қўлламаётганлигини кўриш мумкин:

Неча замон бу хилқатда кездим тентираб,

Қолгани йўқ мен кирмаган биронта пучмоқ,

Ҳатто жаннат қошига ҳам бордим муқарраб,

Учратмадим, тополмадим, мен сени бироқ.

(«Жаннатга йўл»)

Таҳлил ва натижалар. Шоир бадий матнларида қўлланган (арабча уламо, муқарраб, муқаввас, мутақаллиф, муракка, мутаббақ; форс-тожикча омода, орад, устурлоб, зағизғон, чолдевор, варракбоз; русча апокалипсис; русча-туркча павликчи ва форсча-туркча худайчи) сўзларнинг «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»да қайд этилмаганлиги уларнинг қўлланишидаги мавзуга мослиги, халқ ичида машҳур маънога эгаллиги, бадий таъсирчанликни ошириш мақсадида қўллаш билан боғлиқ. Бу эса айрим морфологик “хато”ларни, бадийлик талабига кўра тавтологияларни келтириб чиқарганлиги оташнафас ижодкорнинг сўз қўллаш маҳоратини янада юқори чўққига олиб чиқиш учун хизмат қилган.

Ўзбекистон Қаҳрамони, халқ шоири Абдулла Орипов асарлари тилини ўрганиш жараёнида таҳлил қилинган сўзлардан келиб чиқиб қуйидаги хулосаларга келинди:

а) Абдулла Орипов ҳар бир сўзни қўллашда қадимий манбаларга мурожаат қилган;

б) танланган сўзларнинг мавзуга мослигига эътибор қаратилган;

в) сўзнинг халқ ичида машҳур маъносини олишга ҳаракат қилинган;

г) “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да учрамаса-да, илмий асарлар, шунингдек, оммага маълум ва машҳур сўзлардан фойдаланилган;

д) бадий таъсирчанликни ошириш учун айрим сўзларни қўллашда морфологик “хато”ларга йўл қўйган;

е) бадийлик талабига кўра тавтологияга йўл қўйилган ўринлар ҳам мавжуд.

Хулоса. Албатта, адиб ижодини тадқиқ этишда илмийликка асосланган, мўътадиллик билан ёндашиш, тил билан боғлиқ ҳақиқатларнинг тез ва аниқ очилишига, келажакда олиб бориладиган илмий ҳамда ижодий ишларда хато ва камчиликларнинг олдини олишга хизмат қилади. Шоир шахсига бўлган муҳлислик ёки бошқа инсоний омиллар билан хатолардан кўз юмиб фақат оригиналлик, бетакрорлик, матндаги мукамаллик каби ютуқларни кўрсатишга бўлган бирёқламалик илмда ривожланишга эмас, балки ортага қайтишга сабаб бўлади.

АДАБИЁТЛАР

1. Афоқова Н. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар: Филология фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 26 б.
2. Орипов А. Йиллар армони. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. - 586 б.
3. Раҳмонова М. Абдулла Орипов шеърлятида бадий бутунлик: Филология фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.
4. Қўшжонов М., С. Мели. Абдулла Орипов. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 136 б.
5. Раҳмонова М. Абдулла Орипов шеърлятида бадий бутунлик: Филология фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.
6. Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърлятининг лингвопоэтик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида) Филология фанлари бўйича фалсафа доктори ... дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 26 б.



Мўмин ТУРДИБЕКОВ,

Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети доценти, ф.ф.н

E-mail: mominjonturdibekov@mail.ru

ТошДУТАУ профессори ф.ф.докт.Б.Менглиев тақризи асосида

ШИМОЛИЙ ТОЖИКИСТОН ТОПОНИМЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛЕКСИКОГРАФИК ТАЛҚИНЛАР

Аннотация

Ушбу мақолада топонимларнинг жаҳон тилшунослигида ўрганилиши, уларнинг лексикографик талқини атрофлича таҳлилга тортилган. Шимолий Тожикистон топонимларининг лексикографик талқини монографик планда махсус ўрганилмаганлиги, баъзи топонимларнинг изоҳи Ўзбекистонда яратилган топонимик луғатлардагина экскурсив тарзда мавжудлиги фактик материаллар ёрдамида очиб берилган.

Калит сўзлар: Топонимика, Олатов, Қорабулоқ, Қизилбулоқ, Денов, Навқат, этимология.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ, СВЯЗАННЫЕ С ТОПОНИМАМИ СЕВЕРНОГО ТАДЖИКИСТАНА

Аннотация

В данной статье тщательному анализу подвергается изучение топонимов в мировой лингвистике, их лексикографическая интерпретация. Лексикографическая интерпретация топонимов Северного Таджикистана отдельно не изучается в монографическом плане, объяснение некоторых топонимов раскрывается только в топонимических словарях, созданных в Узбекистане с использованием фактических материалов.

Ключевые слова: Топонимика, Олатов, Карабах, Кызылбулак, Денов, Навгат, этимология.

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATIONS RELATED TO TOPONYMS OF NORTHERN TAJIKISTAN

Annotation

In this article, the study of toponyms in world linguistics and their lexicographic interpretation is thoroughly analyzed. Lexicographic interpretation of toponyms of Northern Tajikistan is not studied separately in monographic terms, the explanation of some toponyms is revealed only in toponymic dictionaries created in Uzbekistan using factual materials.

Key words: Toponymy, Alatov, Karabakh, Kyzylbulak, Denov, Navgat, etymology.

Ҳар қандай давр тилида унинг бутун борлигини деярли ўзида акс эттира оладиган луғатларнинг ўрни ва аҳамияти бекиёс. Хусусан, топонимик тадқиқот ва тарихий, этимологик кузатишларда луғатлар муҳим тарихий, лингвистик, маданий воқеликнинг ҳолис тавсифини тақдим этиш жиҳатдан алоҳида мавқе эгаллайди.

Топонимика ҳам бошқа фан, соҳалар каби ўзининг лексикография тармоғига эга. Топонимик бирликларнинг лингвистик хусусиятлари тадқиқи пировардида уларнинг лексикографик талқини ва тавсифини юзага келтириш учун хизмат қилиши табиий. Ҳар қандай лингвистик тадқиқотларнинг натижа ва хулосалари лексикографик адабиётларда акс этади, бу ҳолат эса соҳага доир муаммо ва масалаларнинг кейинги босқич тадқиқида муҳим аҳамият касб этади. Топонимия масалаларининг лингвистик, географик жиҳатдан талқинида соҳа луғатларининг ўрни ва вазифасини топонимик луғатлар тарихига назар ташлаш орқали ҳам кузатиш мумкин.

Ўзбек луғатчилиги тарихида ономастик бирликларга бағишланган луғатлар ҳам алоҳида аҳамият касб этади, халқимиз тарихи, маданияти, тили ва адабиётида муҳим ўрин туган жой номлари билан боғлиқ билим, ахборот ҳамда маълумотларнинг ҳолис ва ҳаққоний талқини, тавсифини яратишнинг бош омили бўлиб хизмат қилади.

Ўзбек ономастик бирликлари, хусусан, топонимларнинг лексикографик талқини тарихи узок даврларга бориб тақалиши бизгача етиб келган луғатлар орқали ойдинлашади. Ўзбек топонимик бирликлар луғатининг илк намунаси сифатида “Девону луғотит турк”

асари қайд қилиниши лозим. Маҳмуд Кошғарийнинг ушбу асари ҳудуд жой номлари маъноси билан боғлиқ айрим маълумотларни акс эттирганлик жиҳатидан илк ўзбек топонимик луғати намунаси бўла олади. “Девон” муаллифи географик номлар таркибида қўлланувчи бир қатор сўзларнинг маъносини очиб берган эди. Унинг топонимлардан у ёки бу атаманинг қўлланилиши ва келиб чиқиши ҳақида айтилган мулоҳазалари кўпинча у ёки бу топонимнинг маъносини аниқлашда ягона ишончли манба бўлиб хизмат қилади”. Венгриялик олим А.Вамберининг “Бухоро тарихи” асари ҳам Ўрта Осиё топонимларининг луғати сифатида ўз ўрнига эга. “Марказий Осиёнинг географик номлари” деб сарлавҳа қўйилган ва 2 босма тобоқдан сал ортиқроқ бўлган бу асар қисқача кириш сўзи билан бошланган. Луғат алфавит тартибида бўлиб, 600 тача ном ва термин берилган. Терминлар икки хил - жой номлари таркибида учрайдиган турдош сўзлар ва этнонимлар. Сўз маъноси айтилиб, шу сўз қўшилган номлардан мисоллар келтирилади. Масалан: Ala - “ола, була”. Қор қоплаганлиги учун ола-була бўлиб кўринади. Олатов, Олақўл ва б. Bulak - “булоқ, чашма”. Қорабулоқ, Қизилбулоқ, бурун, бутуқ, бўз, давон, жар, эски, ички, қок, қўш, қориз, қўқ, қичи, хўжа, янги ва ҳоказо сўзларга шу тахлит изоҳ берилган”. Кўринадики, ушбу луғат маълумотлари сўз сифатидаги атоқли отларнинг маъноси, этимологик хусусиятларини ёритишда илмий манба вазифасини ўтай олади.

Шунингдек, ўзбек тили атоқли отларининг турли хусусиятларини ўзида акс эттирган луғатларнинг кўплаб намуналари яратилган, уларнинг айримлари нашр қилинган, баъзилари қўлёзма ҳолида сақланиб келмоқда.

Жумладан, “Худуд-ул олам” асари ҳам ўзбек топонимияси тарихига доир қимматли маълумотларни акс эттириш жиҳатдан нодир топонимик луғатдир.

Топонимик луғатларнинг соҳага оид тадқиқот натижаларини оммалаштиришдаги ўрни ва аҳамиятига жаҳон тилшунослиги тажрибасидаги луғатлар орқали ҳам амин бўлиш мумкин. “Уларнинг айримларини эслатиб ўтамиз. Масалан, В.А.Никоновнинг “Краткий топонимический словарь” (М., 1966), Э.М.Мурзаевнинг “Краткий топонимический словарь Синьцзяна // В кн.: “Природа Синьцзяна и формирование пустынь Центральной Азии” (М., 1966), Н.Коков ва С.О.Шахмурзаевнинг “Балкарский топонимический словарь” (Нальчик, 1970), Г.Гайджарининг “Топонимические названия гагаузов” // “Гагаузско-русско-молдавский словарь” (М., 1973), Е.Койчубаевнинг “Краткий толковый словарь топонимов Казахстана” (Алма-ата, 1974); “Словник гидронимов Украины” (Киев, 1979), О.Т.Молчановнинг “Топонимический словарь горного Алтая” (Горно-Алтайск, 1979), Ф.Г.Гарипованин “Татарстан гидронимлари сузлеге” (Казан, 1984) каби луғатлар шулар жумласидандир”.

Куйида рус топонимиясининг лексикографик талқинига доир айрим луғатларга назар ташлаймиз. Е.М.Поспеловнинг “Географические название мира. Топонимический словарь” луғати беш мингга яқин алоҳида объектларни: давлат, шаҳар, денгиз, дарё, тоғ ва кўплаб тарихий маданий жой номларини изоҳлайди. Шунингдек, жой номларида тарихий жараёнлар туфайли содир бўлган ўзгаришлар юзасидан ҳам кенг маълумот берилган бўлиб, жой номлари қайси халқ томонидан ва қачон қўйилган, нима учун шундай номланган каби саволларга ҳам жавоб олиш мумкин.

Тўрт мингга жой номи изоҳланган В.А.Никоновнинг “Краткий топонимический словарь” китоби ҳам алоҳида топонимик бирликларнинг лексикографик талқини масаласида алоҳида ўрин эгаллайди. Ушбу луғат орқали йирик давлатлар, шаҳарлар, денгиз, дарё, қўл, тоғ кабиларни номловчи топонимларнинг аталиши ва келиб чиқиши тарихига оид маълумотларни тақдим этиши билан қимматли. Луғатда жойлар тасодифан номланмаслиги, ҳар бир жой номида қандайдир тарихий жараён ёки шу жой вакилларининг қандайдир урф одатлари, қадриятлари яширинганлиги тўғрисида фикр-мулоҳазалар ҳам илгари сурилади.

А.М.Комиков масъул муҳаррирлигида тайёрланган “Словарь географических названий зарубежных стран” луғати қирқ минг топонимни ўз ичига олган; унда давлатлар, тарихий жой номлари ва йирик дарё, қўл, тоғ, чўққи кабиларнинг номи алифбо тартибида берилиб, изоҳланган.

Топонимлар луғати сирасида А.Н.Сесёлкиннинг луғати ҳам ўзига хос аҳамиятга эга. 2808 та топонимни ўз ичига олган бу луғатда 1637 та оқим, 700 та тоғ, 88 та бурун, 85 та сой, 68 та чўққи, 48 та қоя, 42 та сойча, 19 та дарё, 18 та қўлтиқ, 21 та темир йўл станцияси, 9 та темир йўл разъезди номи лексикографик талқинини топган.

Машхур топонимист Е.М.Мурзаевнинг “Словарь народных географических терминов” номи луғати ҳам топонимик бирликларни географик термин сифатида изоҳлаганлиги билан алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу луғат 1999 йилда қайта нашр қилинган бўлиб, тўрт мингга яқин географик атаманин лексикографик тавсифини ўзида мужассамлаштирган. Эътиборлиси шуки, ушбу луғат орқали Ўрта Осиё худудига тегишли кўплаб географик объектларни номлаган атоқли отларнинг этимологик маъноси тўғрисида қимматли маълумотларга эга бўламан.

Шунингдек, Марказий Осиё худуди топонимиясининг лексикографик тадқиқида Ш.Койчибаев, Г.К.Конкашпаевнинг луғатлари ҳам муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Луғат мақолалари алифбо тартибида жойлаштирилган ушбу луғатларда Қozoқистон худудидаги икки мингга яқин топонимга қисқача изоҳ берилган.

Ўзбек тили лексикасидаги топонимик бирликларнинг лексикографик талқини ва тавсифида куйидаги манбаларни алоҳида таъкидлаш жоиз. С.Қороевнинг “Географик номлар маъносини биласизми?” номи луғати Ўзбекистон худудидаги кўплаб тарихий жой номлари тўғрисида маълумотни ўзида жамлаган ва топонимларнинг изоҳи берилган дастлабки луғатлардан биридир. Таникли топонимист-лексикограф Т.Нафасовнинг “Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати”да Жанубий Ўзбекистон худудига тегишли бўлган тарихий жой номларининг келиб чиқиши, этимологияси тўғрисида қимматли маълумотлар мавжуд. Шунингдек, З.Дўсимов, Х.Эгамов ҳаммуаллифлигида тузилган “Жой номларининг қисқача изоҳли луғати”да ҳам Ўзбекистон худуди билан боғлиқ жой номларининг маъноси, келиб чиқиши, аталиш сабаблари тўғрисидаги маълумотлар ўрин олган. Луғатда жой номларининг кўпчилиги мазкур жойнинг географик тузилиши билан боғлиқ ҳолда вужудга келганлигига урғу берилган. Масалан, Шахрисабз кўк шаҳар, яшил шаҳар. Сибир ботқоқлик, зах жой каби.

“Бугунгача топонимик луғатларнинг куйидаги турлари нашр этилган: 1) энциклопедик топонимик луғатлар; 2) тавсифий характердаги топонимик луғатлар; 3) таснифий характердаги топонимик луғатлар; 4) изоҳли топонимик луғатлар; 5) таъбир шаклидаги топонимларнинг изоҳли луғатлари”. Кўринадики, ўзбек топонимлари бўйича турли луғат намуналари яратилган, уларнинг таснифи масаласи ҳам кун тартибига қайд қилинмоқда.

Топонимик луғатнинг изоҳли тури таснифланган луғатлар сирасида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Ўзбек топонимларининг изоҳини ўзида акс эттирган луғатлар сифатида “Географик номлар маъноси”, “Географик номлар маъносини биласизми?” (С.Қороев), “Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати” (Т.Нафасов), “Бухоро вилояти жой номларининг қисқача изоҳли луғати” (С.Наимов), “Жой номлари таъбири” (Н.Охунов), “Жой номларининг қисқача изоҳли луғати” (З.Дўсимов), “Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи” (Б.Ўринбоев) кабиларни қайд қилиб ўтиш лозим. Ушбу луғатлар тартибида ўзбек тили топонимияси тизимига мансуб макро ва микротопонимлар семантик, этимологик хусусиятлари лингвистик-тарихий-топонимик аспектда изоҳланган. Шимолий Тожикистон топонимларининг кўпчилиги топонимик изоҳли луғатларда изоҳланган жой номлари билан шаклий ва маъновий, этимологик жиҳатдан ўзаро боғлиқ. Шу боис ўзбек топонимларининг лексикографик талқинларини Шимолий Тожикистон топонимларига ҳам тегишли лексикографик изоҳ сифатида қабул қилиш мумкин. Ана шу боғлиқлик ва алоқдорлик муносабатини эътиборга олган ҳолда ўзбек тили топонимларининг лексикографик изоҳи ва тавсифларига диққат қаратамиз.

Ўзбек топонимларининг лексикографик изоҳи, талқини ва тавсифини ўзида акс эттирган топонимик луғатлар сирасида Т.Нафасовнинг “Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати”, Т.Нафасов, В.Нафасованин “Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати”ни ҳам алоҳида қайд қилиш лозим. Топонимларни халқ ижоди ва маънавиятининг бир ёки икки сўзда ёзилган тарихи, энг қисқа тарихий манбаси

сифатида таърифлаган ушбу луғат, ўз навбатида, халқ тарихи, маданиятининг ўзига хос ўтмиши ҳақида қисқача маълумот берувчи амалий қўлланма мақомидаги таълимий луғатдир. Луғатда камраб олинган топонимларнинг изоҳида Ўзбекистон топонимикаси бўйича яратилган барча манбалардан ижодий фойдаланилган, изоҳлар содда тарздаги этимологик баён шаклида берилган. Бир топоним бир неча вилоят, туман, шаҳар, қишлоқ худудида такрорланганлиги сабабли айрим топонимларнинг тумани кўрсатилмаган, этнонимдан юзага келган топонимларнинг тарқалиш худудини тўлиқ кайд қилиш имкони бўлмаганлиги боис айрим туманлар номини кўрсатиш билан чекланган. Луғат мақолалари изоҳли ва изоҳсиз (ҳавола) тарзда тузилган.

Изоҳли мақолалар тузишда куйидагиларга амал қилинган. Масалан, топоним асосидаги сўз ва қўшимчалар аниқлашиб, уларнинг қадимий шаклини тиклашга ҳаракат қилинган: Денов қишлоқ, туман. Деҳ и нав янги қишлоқ; топоним асосидаги сўз, қўшимча ва бошқа шаклларнинг қайси тилга мансублиги кўрсатилган: НОВҚАТ қишлоқ. Сўғдча нав кат. Янги қўрғон каби. Бу луғатнинг ўзига хос аҳамияти қайд қилинган топонимларнинг лексикографик изоҳи этимологик маълумотлар билан бойитилгани билан ҳам белгиланади.

Ўзбек тили топонимлари лексикографик талқини акс этган луғатлардан яна бири З.Дўсимов, Х.Эгамов ҳаммуаллифлигида тузилган “Жой номларининг қисқача изоҳли луғати” дир. Бу луғат Тошкент шаҳрида “Ўқитувчи” нашриётида 1977 йилда нашр этилган. Луғат

сўзбошисида географик номларнинг келиб чиқиши ҳақида муаллифлар куйидагиларни қайд қилишади: “Ҳар бир жойнинг ўз тарихи бор. Улар халқ ҳаётининг турли томонларини ўзларида акс эттирадилар. Номлар кўпинча шу территорияда яшаган халқ ҳаёти, шарт-шароити билан боғлиқ ҳолда содир бўлади... Ёки Ўзбекистоннинг деярли барча областларида учрайдиган Дўрмон номини олайлик. Бу топоним ҳам ўзбек халқининг бир уруғи номи билан боғлиқ бўлиб, мўғулча “тўрт” демакдир. Қадимда шу уруғ қабилаларининг кўчиб юриши натижасида уларнинг номи билан аталадиган жойлар вужудга келган. Номларнинг аксарияти мазкур жойнинг географик тузилиши билан боғлиқ ҳолда вужудга келади. Масалан, Шаҳрисабз “қўк шаҳар”, “яшил шаҳар”, “боғи кўп шаҳар” деган маънони берса, Сибирь топоними “ботқоқлик”, “зах жой” демакдир. Кўпинча, номлар шу жойда яшайдиган халқнинг касби, машғулот, хунари қабиларни ҳам маълум даражада акс эттиради. Шунинг учун кўп шаҳарларда Дўппичи, Темирчи, Заргарлар, Дарбозлар каби ўнлаб маҳалла номлари учрайди. Бинобарин, шундай экан, географик номлар “ўлик” сўзлар эмас, балки замирида халқ ҳаёти, тарихи, тили ва шунга ўхшаш бошқа кўплаб сирларни асраётган хазинадир”. Бундан яна шу нарса аён бўладики, халқ тарихи ва қарашлари билан ҳамоҳанг бўлган жой номлари узоқ ўтмиш билан келажак даврни боғловчи “кўприк” вазифасини ҳам бажаради. Уларнинг лексикографик талқинини ўрганиш натижасида бунга янада амин бўламиз.

АДАБИЁТЛАР

1. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. I т. – Тошкент: Фан, 1960. – 500 б. II т. – Тошкент: Фан, 1961. – 428 б. III т. – Тошкент: Фан, 1963. – 464 б.; Индекс луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 544 б.
2. Махпиров В. Тюркские топонимы в “Дивану луғотит турк” // Советская тюркология, 1983, 1. – С. 34.
3. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 35.
4. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 74.
5. Поспелов Е.М. Географические название мира. Топонимический словарь. / Отв. ред. к.ф.н. Агеева Р.А. – Москва: Русские словари, Астрель. АСТ, 2002.
6. Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. Государства, города, моря реки, озера, острова, горы, исторические области.
7. Словарь географических названий зарубежных стран / Отв. ред. А.М.Комиков. – М.: Издатель. Недра, 1986. Вып. 04.10.1986. – 459 с.
8. Мурзаев Е.М. Словарь народных географических терминов. – М., 1984.
9. Конкашпаев Г.К. Словарь казахских географических названий. – Алма-Ата, 1963. – 186 с.; Койчибаев Ш. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. – Алма-Ата, 1974.
10. Кораев С. Географик номлар маъносини биласизми? – Тошкент, 1970.
11. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1988.
12. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 176 б.



Нигора УМАРХАНОВА,
Наманган давлат педагогика институти тадқиқотчиси
E-mail: nigora.umarkhanova@mail.ru

НамДУ доценти, ф.ф.д. Наргиза Досбаева тақризи асосида

ВТОРИЧНАЯ НОМИНАЦИЯ И ЕЁ ПРОЯВЛЕНИЯ В ИНТЕРНЕТ ЛЕКСИКЕ

Аннотация

В статье описаны взгляды и научные факты о феномене вторичной номинации и метафоры. Вторичная номинация — это ресурс языковой экономии, способ привлечения уже известных единиц плана выражения для обозначения новых значений и оттенков знаний. Метафора активно используется в научной терминологии, языке СМИ, в рекламе, политике и т.д. Одной из сфер человеческой деятельности, где метафора имеет большое значение, является сфера информационных технологий. В статье рассмотрено интернет лексика которые наименования метафорически.

Ключевые слова: Вторичной номинации, метафора, рассматривать, наименованные, формирование, термин, коммуникативный.

SECONDARY NOMINATION AND ITS MANIFESTATIONS IN THE INTERNET VOCABULARY

Annotation

The article describes the views and scientific facts about the phenomenon of secondary nomination and metaphor. Secondary nomination is a resource of language economy, a way of attracting already known units of the expression plane to designate new meanings and shades of knowledge. Metaphor is actively used in scientific terminology, media language, advertising, politics, etc. One of the areas of human activity where the metaphor is of great importance is the field of information technology. The article deals with the Internet vocabulary which are named metaphorically.

Key words: Secondary nomination, metaphor, consider, named, formation, term, communicative.

IKKILAMCHI NOMINATSIYA VA UNING INTERNET LUG‘ATIDA NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya

Maqolada ikkilamchi nominatsiya va metafora fenomeni haqidagi qarashlar va ilmiy faktlar tasvirlangan. Ikkilamchi nominatsiya - bu til iqtisodiyotining resursi, yangi ma'no va bilim soylarini belgilash uchun ifoda tekisligining allaqachon ma'lum bo'lgan birliklarini jalb qilish usuli. Metafora ilmiy terminologiyada, media tilida, reklamada, siyosatda va hokazolarda faol qo'llaniladi. Inson faoliyatining metafora katta ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan biri axborot texnologiyalari sohasidir. Maqolada metafora bilan atalgan Internet lug'ati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ikkilamchi nominatsiya, metafora, ko'rib chiqish, nomlash, shakllantirish, atama, kommunikativ.

Традиция присваивать чему-либо имя собственное возникла в глубокой древности и дошла до наших дней, о чем свидетельствуют имена многих мифологических героев, запечатленные в исторических, астрономических, географических, медицинских, химических, биологических и иных названиях: Венера, Геркулес, Атлас, Сфинкс, Зефир, Гелий, Флора и др. В Древней Греции бог, герой или человек, имя которого было присвоено какому-либо объекту, назывался эпонимом (греч. *Eponymos* <epi 'после' и *onoma* 'имя'), т. е. лицо, от имени которого произошло название местности, объекта природы, термин и пр. В более позднее время наряду с классическими эпонимами античности (Август, Меценат) появляются новые, отразившие этапы развития человеческой культуры, истории, религии и науки [1].

Сущность вторичной номинации — в использовании уже имеющихся лексических средств в новой для них функции наречения. Ни один язык не был бы в состоянии выражать каждую конкретную идею самостоятельным словом или корневым элементом. Вторичная номинация — это ресурс языковой экономии, способ привлечения уже известных единиц плана выражения для обозначения новых значений и оттенков знаний. По мнению А. В. Суперанской, собственные имена являются неисчерпаемым резервом для терминов и номенклатурных слов, так как с их помощью достигаются

конкретизация и уточнение более общих понятий и положений [2].

Как называет вторичную номинацию повторной и даёт такое описание: повторная номинация – повторная обозначения в тексте уже обозначенного объекта, признака, действия, целой ситуации – связана с первичным обозначением того же денотата отношениями кореференции. Наиболее разнообразны повторные обозначения объектов и среди них – обозначения лиц одушевленных существ.

Повторная номинация может быть 1) идентичной, если денотат во втором случае получает то же обозначение, что и в первом, или вариативной, когда новое наименование отличается от предыдущего; 2) смешанной, при которой в номинационной цепочке чередуется вариативные и идентичные обозначения. Промежуточное положение между идентичной и вариативной номинациями занимает идентичная номинация с транспозицией: явления обозначается словами, семантически идентичными, но различающимся по принадлежности к части речи. Например:- при отце живешь али сам?- Нет, теперь сам живу. Отделился. В этом месяце после Петрова дня оженился. Женатый теперь!...нынче восемнадцатый день как обзаконился (Чехов). Здесь «гражданское состояние» персонажа обозначается дважды, причем словами, относящимся к одной и той же основе, но разным частям речи. Близкие

синонимии, если они в данном контексте не различаются оттенками значения, также могут рассматриваться как промежуточные явления между идентичной и вариативной номинациями (например, возможно, в данном примере-оженился и обзаконился). В этом случае вариативность касается внешней формы номинации, но не ее семантической стороны.

Также Гак делит номинации на два типа прямые и косвенные. К прямым относятся те, что являются естественными при данном уровне знания объекта собеседниками и самодовлеющими. Косвенные обозначения опираются на предыдущие прямые обозначения или на ситуацию. К прямым обозначениям относятся имена собственные и конкретные лексические обозначения при неизвестности или отсутствии имени собственного. К косвенным номинациям относятся местоимения и оценочные обозначения. Относительные, абстрактные и функциональные номинации могут выступать в обеих функциях. В целом различие между прямым и косвенным обозначением нередко определяется самой структурой текста. В этом отношении особенно показателен зачин произведения [3].

Повторное номинация – важное средство достижения стилистической правильности и выразительности речи. Как известно, одно на основополагающих правил хорошего стиля состоит в необходимости избежать монотонности, однообразия в изложении. Это достигается именно за счет варьирования обозначений при повторной номинации. В каждом языке проявляются в этом отношении свои тенденции. Например, французский язык избегает словесных повторов, но охотно мирится с повторными местоименными обозначениями. В русской речи мы сталкиваемся с обратным явлением: большая допустимость словесных повторов и нежелательность местоименных [4].

Вторичная лексическая номинация – это использования уже имеющихся в языке номинативных средств в новой для них функции наречения. Вторичная номинация может иметь как языковой, так и речевой характер. В первом случае результаты вторичной номинации предстают как принятые языком и конвенционально закрепленные значения словесных знаков, во втором – как окказиональное употребление лексических значений в несобственной для них номинативной функции. При этом в самих процессах вторичной номинации – языковой или речевой – нет существенной разницы. Однако в языке закрепляются, как правило, такие вторичные наименования, которые представляют собой наиболее закономерные для системы данного языка способы именования и восполняют недостающие в нем номинативные средства.

В отличие от первообразных наименований, для которых характерно «простое» отношение, связующее понятие, отражающее элементы действительности, и звукоряд, выполняющих функцию имени, все вторичные наименования формируются на базе того значения слова, чье имя используется в новой для него функции названия. Однако в сфере вторичной номинации различаются два принципиально различных способа отображения действительности и отнесения смыслового содержания наименований к обозначаемым объектам.

Серебрянников тоже делит вторичную номинацию на два типа и объясняет таким способом: первый способ вторичной номинации, достаточно простой и прозрачный, состоит в том, что здесь имеет место не прямое отображение внеязыкового объекта, опосредуемое «предшествующим» значением слова, те или иные

признаки которого играют роль внутренней формы, переходя в новое смысловое содержание. Сформировавшийся таким образом смысл соотносится с внеязыковым рядом автономно. Второй способ вторичной номинации осложняется подключением к процессу наименования комбинаторно – синтезирующей деятельности сознания и соответствующей языковой техники. Вследствие этого в отношении именования здесь участвует еще одно или несколько других наименований, уже существующих в языке [5].

Для изучения вторичной номинации равно интересны и принятые языком и окказиональные наименования. Чтобы постичь способы словопреобразования, необходимо выявить общие закономерности переосмысления, формирования и функционирования номинативных средств. И хотя теория номинации имеет дело с непрогнозируемыми по своей природе процессами, а потом – не формализуемыми с точки зрения конкретных результатов, какие то, пусть самые общие, закономерности, несомненно, регламентируют и речевую деятельность, предвещая смысловую правильность номинативных решений, а также выбор и комбинацию единиц номинации в ходе формирования высказывания.

Именно в процессах реального функционирования языка его номинативные средства, отражая элементы структуры обозначаемого в предложении события, приспособляются к выполнению определенного коммуникативного задания, которое вдыхает новые смыслы в значения слов, способствуя их переосмыслению.

Один из видов вторичной номинации это метафора. Метафора – универсальное явление в языке. Ее универсальность проявляется в пространстве и во времени, в структуре языка и в функционировании. Она присуща всем языкам и во все эпохи, она охватывает разные аспекты языка и обнаруживается во всех его функциональных разновидностях. Всеобщий и частотный характер метафоры издавна привлекал к ней внимание наблюдателей и исследователей человеческой речи. Онтология метафоры не раз была предметом анализа [6]. При изучении метафоры постоянно обращалось внимание на две ее функции: с одной стороны, она служит средством обозначения тому, чему нет названия, с другой – средством создания художественной речи. Традиция, установившаяся еще в эпоху античности, подчеркивала в особенности вторую функцию метафоры. Это ярко выразил Цицерон: «Вначале одежду придумали, чтобы украсить и благородить тела, так же и метафора, порожденная недостатком, получила развитие ради наслаждения» [7]. Таким образом укрепилась тенденция рассматривать метафору в телеологическом аспекте, в зависимости от ее цели. Но такой подход не определяет всех употреблений метафоры. Перенос значения слова имеет место и в том случае, когда нет особой задачи создания художественного образа. Метафора возникает в силу глубинных особенностей человеческого мышления. Если выразит мысль несколько иначе, намеренно заостряя ее, то можно оказать, что метафора возникает не потому, что она нужна, а потому, что без нее невозможно обойтись, она присуща человеческому мышлению и языку как таковая.

С точки зрения соотношения формы и значения следует различать два типа метафоры – полную, при которой формирование переносного значения не связано ни с какими изменениями структуры слова (ср. Он ест мясо – дым ест глаза; Сердце бьется – в сердце Африки) и частичную, когда образование нового значения связано с морфологическим изменением слова, с добавлением

аффиксов к основе, используемой в переносном значении (Ржавчина разъедает металл; сердцевина, сердечник, середина).

Ключом понимания любой мысли может быть только личный опыт человека. Элементы прошлого опыта выступают в роли посылок для умозаключений в процессе восприятия и освоения нового. Таким образом, обучаясь чему-то новому, мы связываем новый материал с тем, что нам уже известно, с тем, что мы уже видели, слышали, чувствовали ранее. Метафору можно рассматривать как «крючок», который «зацепляет» и «выуживает» из памяти человека всё, что может ассоциироваться с понятием, обозначенным данным словом. Указывая на знакомый элемент в «базе данных» человека, метафора помогает воспринимать новое как нечто знакомое и позволяет предугадывать характеристики нового объекта или действия путём проведения аналогии между новыми и знакомыми объектами или действиями [8].

Современные тенденции исследования метафоры подтверждают её значимость как инструмента познания и открывают перспективы применения метафоры во всех областях знания и сферах деятельности человека. Метафора активно используется в научной терминологии, языке СМИ, в рекламе, политике и т.д. Одной из сфер человеческой деятельности, где метафора имеет большое значение, является сфера информационных технологий [9].

Мы изучили термины из Интернет лексики которые наименованы с помощью метафоры. Термины были изучены из словаря «Dictionary of computer and internet terms. John C. Rigdon». Active area - область разговора, где активные разговоры и связанные с ними информация отображается; active color - цвет, отображаемый в центральном квадрате цветовой поля, которое появляется в большинстве рабочих панелей. Активный цвет используется при создании нового объекта и при добавлении заливки и узоры для выбранного объекта; active sheet - лист, над которым вы работаете в книге; conflict - неспособность выполнить два или более

действий, потому что они были запланировано на тот же период времени и с тем же ресурсом или ресурсами; density - степень затемнения изображения; disabled - относится к состоянию элемента управления, в котором нормальная функциональность не доступна пользователю; drawing brush - мозаичная кисть, которая закрашивает область фигурами, текстом, изображениями и видео; engagement - реакция пользователей на продукт или услугу, которые воспринимаются как ценные. Когда продукт или услуга привлекает пользователей, они хотят взаимодействовать с ними и продолжать делать это так; event - действие или событие, на которое может реагировать программа. Примеры включают изменения состояния, передача данных, нажатия клавиш и движения мыши; face - набор символов, которые имеют общие характеристики, такие как ширина штриха и наличие или отсутствие засечек (коротких линий у верхнего и нижнего края символов); family - ряд аппаратных или программных продуктов, обладающих некоторыми свойствами в общие, такие как серия персональных компьютеров одной компании; family member - владелец счета, который является родителем или ребенком; feedback - возврат части выходных данных системы в качестве входных данных для той же системы. Часто обратная связь намеренно встроена в систему, но иногда она нежелательна; geography - абстрактный тип данных, являющийся базовым для всех типов геопространственных данных в эллипсоидальные системы координат; gesture - быстрое движение пальца или пера по экрану, интерпретируемое компьютером как команду, а не как движение мыши, письмо или рисование; ghost - для создания дубликата, например дублирования приложения в памяти.

Интернет лексика новая явления в лингвистике и многие лингвисты уже изучили некоторые аспекты. Метафора неразделимая часть наименования этой сферы. И можно сказать что лексика интернета во многом становится понятным с помощью метафоры.

ЛИТЕРАТУРА

1. Доржиева Г.С., Щербакова А.А. Ономазиология vs ономастика проблемы номинации. Улан –Уде 2019. – 68 с.
2. Доржиева Г.С., Щербакова А.А. Ономазиология vs ономастика проблемы номинации. Улан –Уде 2019. - 68 с.
3. Гак В. Г. Языковые преобразования. Москва : Языки русской культуры, 1998. - 536 537 с.
4. Гак В. Г. Языковые преобразования. — Москва : Языки русской культуры, 1998. - 540 с.
5. Серябриков Б.А. «Языковая номинация» Москва 1977. - 129 - 130 с.
6. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - 288 с.
7. Гак В. Г. Языковые преобразования / В. Г. Гак. — Москва : Языки русской культуры, 1998. -481с.
8. Галкина О.В. Метафора как инструмент познания: на материале терминов-метафор компьютерного интерфейса: Дис...канд. филол. наук. - М., 2005.-141 с
9. Обукова Оксана Вячеславовна. Социокультурные факторы формирования лексики интернета (на материале английского языка). Москва – 2007. -108 с.



Аҳмад ҲАСАНОВ,

Самарқанд давлат университети ўқитувчиси,

E-mail: ahmadhasanov23@gmail.com

СамДУ профессори, филология фанлари доктори А.Пардаев тақризи остида

С.АЙНИЙ АСАРЛАРИДА ҚЎЛЛАНГАН ДИНИЙ ТЕРМИНЛАР ТАҲЛИЛИ (“СУДХЎРНИНГ ЎЛИМИ” ҚИССАСИ АСОСИДА)

Аннотация

Чегараланган лексик қатламга мансуб луғавий бирлик сифатида терминологиянинг асосий объекти бўлган термин сўзи терминологик тадқиқотларнинг асосий объекти, улар терминологик луғатлар яратишнинг асосий манбаи ҳисобланади. Муайян соҳага пайдо бўлган терминларни тадқиқ этиш, уларнинг метафорик тарзда кўчма маънода бир соҳадан иккинчи соҳага олиб кирилишини ўрганиш терминология фанининг тараққиётига хизмат қилади. Хусусан, диний терминларни ўрганиш халқнинг менталитети, урф-одаглари, ўзига хос қарашлари ҳақида маълумот берибгина қолмай, оламнинг миллий тасвирини янада яққолроқ идрок этилишига кўмак беради. Мақолада С.Айнийнинг “Судхўрнинг ўлими” қиссида қўлланган диний терминларнинг семантик таҳлили амалга оширилган.

Калит сўзлар: Атама, термин, истилоҳ, диний термин.

РЕЛИГИОЗНЫЕ ТЕРМИНЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ С. АЙНИ АНАЛИЗ (НА МАТЕРИАЛЕ ПОВЕСТА “СМЕРТЬ РОСТОВЩИКА”)

Аннотация

Термин слово, являющийся основным объектом терминологии как словарная единица, принадлежащая к переводному лексическому слою, является основным объектом терминологических исследований, они являются основным источником создания терминологических словарей. Изучение терминов, возникших в определенной области, изучение их переноса из одной области в другую в метафорически переносимом смысле, служит развитию терминологической науки. В частности, изучение религиозных терминов не только дает информацию о менталитете, традициях, специфических взглядах народа, но и способствует более яркому восприятию национального образа мироздания. В статье был проведен семантический анализ религиозных терминов, использованных в повести “Судхўрнинг ўлими”.

Ключевые слова: Термин, терм, профессия, религиозный термин.

RELIGIOUS TERMS USED IN THE WORKS OF S. AYINIANALYSIS (BASED ON THE STORY “DEATH OF A USURER”)

Annotation

The term word, which is the main object of terminology as a vocabulary unit belonging to the translatechegarated lexical layer, is the main object of terminological research, they are the main source of creating terminological dictionaries. The study of the terms that have arisen in a particular area, the study of their importation from one area to another in a metaphorically portable sense, serves the development of terminology science. In particular, the study of religious terms not only provides information about the mentality, traditions, specific views of the people, but also contributes to a more vivid perception of the national image of the universe. In the article semantic analysis of religious terms used in the story "Sudxo'ring o'limi" was carried out.

Key words: Term, term, occupation, religious term.

Кириш. Маълумки, мустақилликдан сўнг юрти-мизда ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳалари катори тилимизда жиддий ислохотлар олиб борилди. Социоллингвистика, этнолингвистика, когнитология, лингвокультурология каби тилшунослик соҳалари тили замонвий йўналишда ўрганмоқда. Кейинги йилларда фан-техника тараққиёти натижасида юзага келаётган тилимиздаги турли ўзгаришлар терминологик тизимларни тилшунос-ликнинг янги илмий парадигмаларига ёндашиб, турли жабҳаларда илмий тадқиқ этиш заруратини ҳам юзага келтирмоқда.

Дастлаб термин таърифи хусусида. Термин таърифи ҳақида соҳага оид адабиётларда турлича фикр ва мулоҳазалар билдирилган. Жумладан, тилшунос олим О.Винокурнинг фикрича, термин ҳамиша аниқ ва равшан. Терминлар системаси жамиятнинг эҳтиёжи туфайли онгли равишда яратилади[2]. О.С.Ахманованинг мулоҳазасига кўра, терминология муайян фан ўз тараққиётининг олий даражасига етишганда юзага чиқади[1]. В.Г.Гак эса терминга луғавий бирликларнинг алоҳида тури сифатида қаралишига қарши чиқади ва термин-функция, лексик

бирликлар қўлланишининг бир кўриниши деган фикрни олға суради [3]. Рус олими О.А.Саприкина шу масалада тўхталиб, “терминологияда термин умумий маънода сўз ёки сўз бирикмадан ташкил топган махсус маънодаги сўз ёки махсус маънони номлаш функцияси” эканлигини ёзади[9]. Шунингдек, тилшуносликда терминологик тизимларни ифодалайдиган лексик бирликлар интеллектуаллашуви тилда терминларнинг коммуникатив ролининг ортиши билан изоҳланади ҳамда тилда махсус тушунчани ифодалайдиган махсус лексик бирликларнинг кенг тарзда қўлланиши билан ифодланади. Мазкур ҳолат терминологик тизимларнинг ўзгарувчан эканлиги, яъни бирон бир умумистеъмолдаги сўз терминлашиб, термин детерминлашиб, доимий равишда янгилиниб борувчи лисоний ҳодиса ҳисобланади.

Кўпинча термин ва атама бир-бирига синоним тушунчалар сифатида изоҳланади. А.Ҳожиев термин сўзни атама ясамаси билан бир тушунча эмаслигини асослаб берган[11]. А.Мадвалиев тўғри таъкидлаганидек, термин илм-фан, техника соҳалари ёки тармоқларида қўлланувчи сўз ёки сўз бирикмаларидир, атама эса шартли

кўйилган номлар, географик объектлар, жой номлари (топонимлар)идир, истилоҳ эса тарихий терминология аспектидаги изланишлар, тарихий манбалар матнидаги тушунчалар ҳисобланади[.]

Маълумки, терминлар тилдаги соҳавий лексика тараккиёти жараёнида умумтил лексикаси таркибига сингиб кетиб, унинг ажралмас қисмига айланиб боради. Илм-фан доирасида юзага келган тушунчалар тилда махсус лексиканинг муайян тури – соҳавий терминлар сифатида шакллана боради. Сўнги йилларда тилшуносликда соҳавий терминология масалалари қатор тадқиқотларнинг ўрганиш объекти бўлди.

Тилшуносликда терминларнинг муайян соҳага оид мавзуй гуруҳларга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқлиги бир қанча тадқиқотларда исботланган. М.Муҳамедованинг фикрича, маълум бир соҳага оид сўзлар терминологик система ташкил қилиши учун: 1) салмоқли микдорда бўлиши; 2) умумистеъмол сўзлар ва бошқа система терминларидан фарқ қилувчи хусусий маъноларга эга бўлиши ва ўз соҳаси учун муомала воситаси сифатида хизмат қилиши; 3) маълум мавзуй гуруҳларга бириктириши; 4) мазкур системанинг бошқа элементлари билан турли шакл ва маъно муносабатларга киришиши; 5) умумий тил системаси ва бошқа система элементлари билан муносабатга киришиши; 6) соҳа терминларини ва тараккий эгитрувчи усул ҳамда манбаларга эга бўлиши лозим [6].

Биз мақолада С.Айнийнинг “Судхўрнинг ўлими” қиссасида қўлланган терминларнинг семантикасини диний терминлар мисолида таҳлил қилишга ҳаракат қилдик. Маълумки, ўзбек тилида диний терминлар, хусусан, исломий-диний масалалар ҳам система сифатида бир қатор ўзбек олимлари томонидан ўрганилган. М.Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида теологик тушунчаларга берилган мукамал изоҳлар туркий тилшуносликда мавзу доирасида олиб борилган кузатишларнинг ғоятда қадимий эканлигини тасдиқлайди. Н.Улуқовнинг “Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси” мавзусидаги номзодлик диссертацияси, А.Д.Ўрозбоевнинг “Огаҳийнинг “Риёз уд-давла” асарида ижтимоий-сиёсий лексика” номли номзодлик ва “Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси” мавзусидаги докторлик диссертацияларида ҳам диний лексика ҳақида сўз юритилган. Профессор М.Э.Умархўжаевнинг диний услуб тўғрисидаги бир қатор илмий ва илмий-публицистик мақолалари ва диний терминларнинг қисқача луғати, шунигдек, Ш.Т.Махмараимованинг оламнинг миллий тасвирида теоморф метафоранинг когнитив аспектини ўрганишга бағишланган тадқиқоти, Ш.М.Султонованинг “Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданый хусусиятлари”ни тадқиқ қилган диссертацион иши, М.Р.Галиеванинг “Дунёнинг лисоний тасвирида диниймифологик тафаккурнинг акс этиши” мавзусида ёқланган докторлик диссертацияси бу борада қилинган кўзга кўринган ишлардандир.

Тилшунос олим Н.М.Улуқовнинг “Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси” деб номланган номзодлик ишида ўзбекча диний матн экзотизмларининг мавзуй гуруҳлари ва маъно хусусиятларига кўра экзотик сўзлар, экзотик атоқли отлар, экзотик фразеология гуруҳларига бўлиб ўрганади. Ўзбекча диний матн экзотизмларининг турлари, семантик жиҳатдан ўзига хосликлари ва функционал вазифаларининг мукамал тадқиқини олиб боради, муаллифнинг таъкидлашича, “шу тарзда мавзуй гуруҳларга бўлинганда экзотик лексика ҳақидаги тушунчалар, уларнинг маъноси, лексик-семантик хусусиятлари, функционал вазифалари ҳамда бошқа лингвистик хусусиятлари” [9] яққолроқ кўринади.

Профессор М.Э.Умархўжаев “Ўзбек тилининг диний атамалари луғати қачон тузилади?” [10] деган сарлавҳа остида ёзган мақоласи кенг жамоатчилик оммасига ҳавола қилинди.

С.Айнийнинг “Судхўрнинг ўлими” қиссасида қўйидаги диний терминларни учратиш мумкин: шайтон, мачит, шайх, кофир, худойи, қози калон, тобут, шаъфилик, жойнамоз, мурид, хонақоҳ, азон, пешин намози, йиртиш, сўфи, муфти, мударрис, қози калон, масжид, охунд, таҳоратхона, шаърий бой, бомдод, назр, назрхўр, шаккок, тасбеҳ каби. Тил луғат таркибининг бойишида ички манба имкониятлари ғоят муҳим. Дунёда ҳеч бир тил йўқки, у бошқа тиллардан сўз ўзлаштирмаган бўлсин. Қиссада қўлланган диний терминлар арабча луғавий бирликлардир. Уларнинг кўпчилиги миллий колоритни сақлаган ҳолда таржимасиз қўлланган.

Диний фразеологизмларни ўрганган Ш.М.Султонова ўзининг бир мақоласида диний фразеологизмлар таркибидан иштирок этувчи диний лексикани қуйидагича таснифлашни таклиф этади:

Яратувчининг номлари.Пайғамбарлар, уларнинг сафдошлари, ғайритабиий кучга эга бўлган мавжудотлар номлари

Ёвуз кучларни англаувчи персонажлар номлари.

Мифологик персонажлар номлари.

Нариги дунё билан боғлиқ жой ва воқеалар номлари.

Диний-конфессионал терминлар.

Кишиларнинг эътиқодига кўра номланиши.

Ибодат, диний маросимлар, диний байрамлар ва бошқалар билан боғлиқ лексика [8].

Кишиларнинг эътиқодига кўра номланишини икки семантик тоифага бўлиш мумкин: а) мусулмонлар: мусулмон, мўмин, пайғамбар, устоз, шайх, муаллим, аллома, олим, сўфи, мулла, валий, шаҳид каби б) мусулмон бўлмаганлар: ғайридин, кофир, иймонсиз, мальун, муртад ва х.к.

Маълумки, диний терминларда ислом дини қонуниятлари, араб халқининг моддий ва маънавий ҳаёти, шу халқнинг ўзига хос удумлари, урф-одатлари ўз аксини топади. Қиссада юқоридаги эътиқодга кўра номланишининг биринчи тоифасига мансуб сўфи, шайх, қози калон, муфти, мударрис, қози калон, охунд каби араб тилидан ўзлашган шахс отлари асосида шаклланган диний терминлар ислом динида мавжуд бўлган бошқарув тизими вакиллари, хон саройидаги мансаб ва унвон номларини ифодалаш мақсадида қўлланган. Иккинчи тоифага, эъни мусулмон бўлмаган термин сифатида қиссада кофир, шаккок лексемалари кўштирноққа олиниб қўлланган: Шайхларга ва уларнинг «қароматлари»га ишонмайдиган одамлар билан «шаккок», «кофир» деб ошналик қилмас эди.

Ислом динида мавжуд қози мансабининг хонликларда қўйидаги турлари мавжуд бўлган: қози аскар, қози калон, қози ул-қўзот, қози урду каби. Қиссада синтактик йўл билан ҳосил қилинган қозикалон унвони қўлланган. Қози калон айрим вақтларда қози ул-қузот ҳам дейилади. Қози ул-қузот (қози калон) – мусулмон ҳуқуқи ва қонунлар бажарилишини шариат асосида назорат қилувчи шахсдир. Қози калон пойтахтда ўз девони ва маҳкамасига эга бўлган. Вилоят марказларида ҳам вилоят қозиси бўлган. Улар маҳкамаларининг номи Дор ул-қазо деб аталган. Лашкарлардаги қонун-қоидалар кетидан қозии аскар (аскар қозиси) назорат қилиб, шаърий масалаларни ҳал этиб турган: Ўн беш кнуга қамалиб чиқиб, кейин қозихона эшигига қатнай-қатнай бу жанжал тугаган бўлса ҳам ўн беш кунда қозихонада бўлган беш юз танга

жаражатни юз танга жаражатни қозикалон менинг бўйнимга юкледи.

Ислом динида мадрасаларда муллаларга таълим берувчи мударрис, охунд, муфтиларга нисбатан хурмат баланд бўлган. Мадраса ўқитувчиси, муайян илоҳиёт фанидан дарс берувчи кишилар мударрис дейилган. Ваъзхон, нотик, дин тарғиботчиларига нисбатан эса охун (охунд) термини қўлланган. Ўша даврдаги мударрис ва охунлар ўзлари таълим берган мадрасанинг вақфидан маош олиб турганлар. Шунингдек, мадраса уларга хужра ҳам берган. Илоҳи ҳаммаларингиз мударрис бўлинглар, муфти бўлинглар, охунд бўлинглар, раис бўлинглар, қози бўлинглар, қози калон бўлинглар! - деб муллавакчаларнинг ҳақларига дуо ҳам қилди.

Адабий тилди шайх сўзи ёши улугъ ёки молдавлати, илми сабаб бошқаларга таъсир ўтказадиган кишиларга нисбатан қўлланади. Диний унвон сифатида эса шайх ул-ислом қўлланади. С.Айнийнинг “Судхўрнинг ўлими” қиссасида шайх сўзи қўлланган: Раҳими Қанд умрининг охирида шайхга мурид, эшонларнинг жар ва суҳбатларига юрайдиган бўлди.

Ибодат, диний маросимлар, диний байрамлар ва бошқалар ўтказиладиган жой маъносини ифодаловчи мадраса, масжид, таҳоратхона каби диний терминлар қиссада фаол қўлланган. Мадраса – арабча «дараса» («ўрганмоқ») сўзидан олинган бўлиб, «ўрганиш жойи» деган маънони англатади. Илк ислом давриданок масжидлар бунёд этила бошланди. Дастлаб илм мажлислари масжидларда олиб борилган бўлса, кейинчалик мадрасаларда таҳсил олиш йўлга қўйилди. Қиссада Бухородаги “Мағок” масжиди тилган олинган: Кунлардан бир кун Қори Ишқамба Бухоронинг Мағок мачитида бомдод намозини ўқиб, намоздан кейин бўладиган маснавийхонликни эшитди, сўнгра мачитдан чиқиб, эшик олди- да супачага олириб, қандайдир дуоларни ўқиб тасбех ўтира бошлади.

“Судхўрнинг ўлими” қиссасида ёвуз кучларнинг маъносини англатувчи шайтон; нариги дунё билан боғлиқ жой ва воқеалар номларини англатувчи жаннат, дўзах; диний-конфессионал терминлардан дуо, маснавий, тасбех, жойнамоз, назр, бомдод, пешин, тобут, азон, жаноза кабилар ҳам фаол қўлланган.

Биз қиссада қўлланган диний лексикага оид сўзларнинг тузилиш жиҳатдан куйидаги турларга ажратдик:

Содда сўз шаклидаги диний терминлар: дуо, маснавий, тасбех, назр, бомдод, пешин, тобут, азон, жаноза каби.

Ясама сўз шаклидаги диний терминлар: муллавакча, маснавийхонлик, назрхўр каби.

Қўшма сўз шаклидаги диний терминлар: жойнамоз, қозикалон, қуръонхатм, таҳоратхона каби.

Сўз бирикмаси шаклидаги диний терминлар: пешин намози, шариат бўйраси, мурофа вақти каби.

Назр арабча сўз бўлиб сўз бермоқ, ваъда қилмоқ маъноларини англатади. Ислом қонуншунослигида бирор савобли ишни бажаришга аҳд қилиш ёки муайян нарсани дин йўлида ҳада қилиш ҳақида диндорнинг ўз-ўзига ваъдаси назр деб юритилади. Исломда Назрга ташвиқот йўқ. Аммо назр қилган одам уни бажариши шарт ҳисобланади. Агар бажармаса бир вожиб амални тарк этган ҳисобланиб, оғир гуноҳкор бўлади. Кейинчалик халқўртасида Назр сўзи ҳайр-садақа, эҳсон қилиш маъноларида ҳам ишлатила бошлаган [12].

Ёзувчи қиссада Қори Ишқамбага хос феъл-атворни ёритар экан, назр, назрхўр терминларини келтириш орқали унинг назр ундиришга ўч одам эканлигини кўрсатиб беради: Қори Ишқамба у одамни Мағок мачитга назр атаган ва ўзини мачитнинг назрхўр гумон қилган бир деҳқон деб ўйлади ва ундан кўпроқ назр ундириш учун бир неча дақиқа яна ҳам баландроқ овоз билан дуо ўқиб, ташбех доналарини ҳисоб чўтидай шақирлатиб ўтиргандан кейин қўлини юзига суртиб, унинг саломига жавоб қайтарди ва унга: - Хўш, назр-ниёзингиз бўлса чиқаринг, ука! - деди.

Хулоса ва таклифлар. Чегараланган лексик қатламга мансуб луғавий бирлик сифатида терминологиянинг асосий объекти бўлган термин сўзи терминологик тадқиқотларнинг асосий объекти, улар терминологик луғатлар яратишнинг асосий манбаи ҳисобланади. Муайян соҳада пайдо бўлган терминларни тадқиқ этиш, уларнинг метафорик тарзда кўчма маънода бир соҳадан иккинчи соҳага олиб кирилишини ўрганиш терминология фанининг тараққиётига хизмат қилади. Хусусан, диний терминларни ўрганиш халқнинг менталитети, урф-одатлари, ўзига хос қарашлари ҳақида маълумот беришга қолмай, оламнинг миллий тасвири янада яққолроқ идрок этилишига қўмак беради. С.Айнийнинг “Судхўрнинг ўлими” қиссасида қўлланган диний терминларнинг семантик таҳлили буни исботлади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2. – М: Советская энциклопедия, 1969;
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Сборник статей по языковедению. – М, 1939. – Т.5. – С.3-54;
3. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. - М.: МГУ.1972. - С.68 -71.
4. Галиева М.Р. “Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши”, Фарғона, 2019. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Б.6.
5. Мадвалиев А.Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари.Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси.2017.- Б.28-30.
6. Мухамедова С, Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологияси система сифатида. Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Тошкент, Академнашр, 2013. 131-бет.
7. Сапрыкина О.А. Термин как феномен языка и культуры (к истории слов и понятий) // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – Москва, 2017. Vol. 8 No 1. – С. 33-39.
8. Султонова Ш.М. Диний лексика диний фразеологик бирликларнинг таркибий қисми сифатида // Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқиқотлар, 2020, № 5(49). 116-119 бетлар.
9. Улуков Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси., Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация, Тошкент, -1997. www.disnatlib
10. Умархўжаев М.Э. Диний атамалар ва иборалар. изоҳли луғати. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-маъбаа ижодий уйи, Тошкент, 2016 й.
11. Ҳожиев А. Термин танлаш мезони.-Тошкент, 1996. 22-25 бетлар.
12. <https://qomus.info/>



Fotima XASANOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti, PhD
E-mail: ismoilova_fotimahon@mail.ru

Andijon davlat universiteti professori, f.f.d D.Nabiyeva taqrizi asosida

МЕТОДЫ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ РЕЧЕВОГО ЖАНРА “МОЛИТВА”

Аннотация

В данной статье рассматриваются социолингвистические исследования речевого жанра молитвы. При выборе языковых форм, относящихся к речевому жанру молитвы, выделяют основные и второстепенные социальные факторы, влияющие на эту форму: возраст, пол, культура, уровень образования, раса, национальность, религия, социальное происхождение, личное и общественное положение, уровень учитываются социальная близость, социальный коллективизм и индивидуализм, профессия, социальный статус, социальное положение, социальный слой, этнос и этническая группа.

Ключевые слова: подбор языковых форм, молитва, жанр, социальные факторы, возраст, пол, социальное положение, профессия, целостность речи.

METHODS OF SOCIOLINGUISTIC RESEARCH OF THE SPEECH GENRE “PRAYER”

Annotation

This article discusses sociolinguistic studies of the speech genre “prayer”. When choosing language forms related to the speech genre “prayer”, the main and secondary social factors that affect this form are distinguished: age, gender, culture, level of education, race, nationality, religion, social origin, personal and social status, level, social distance, social collectivism and individualism, profession, social status, social position, social stratum, ethnos and ethnic group.

Key words: selection of language forms, prayer, genre, social factors, age, gender, social position, profession, integrity of speech.

DUO NUTQIY JANRINI SOSIOLINGVISTIK TADQIQ ETISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada duo nutqiy janrini sociolinguistic tadqiq etish haqida fikr yuritiladi. Duo nutqiy janriga oid til shakllarini tanlashda ushbu shaklga ta'sir qiluvchi katta va kichik ijtimoiy omillar: muloqotga kirishuvchilarning yoshi, jinsi, madaniyati, bilim darajasi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ijtimoiy yaqinlik darajasi, ijtimoiy kollektivizm va individuallik, kasbi, ijtimoiy holati, ijtimoiy maqomi, ijtimoiy o'rnidan tortib ijtimoiy qatlam, etnos va etnik guruh kabilar inobatga olinadi.

Kalit so'zlar: lingvistikshakllartanlovi, duo, janr, ijtimoiyomillar, yosh, jins, social o'rni, kasbi, nutqiybutunlik.

Kirish. Bugungi kunga qadar jahon tilshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga tayanib, tilni jarayoniy lisoniy hodisa sifatida o'rganuvchi, tilda inson omili (so'zlovchi, tinglovchi va unga tegishli milliy-madaniy, sosial, psixologik, kognitiv va hokazo axborotlar) kabi bir qator nolishtir vositalar bilan qorishiq holda o'rganish haqidagi ilmiy nazariy qarashlarni kommunikativ tilshunoslikka tegishli o'ziga xos identifikatorlar, ya'ni ko'rsatkichlar sifatida e'tirof etish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarga asoslangan, ya'ni kommunikativ tilshunoslik identifikatorlarini o'zida mujassam etgan bir qator zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari bo'lgan pragmalingvistika, antropolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika, diskursiv tilshunoslik, kognitiv lingvistika, sociolingvistika kabilar kundan kunga yangidan yangi ilmiy axborotlar, tadqiqotlar va ilmiy natijalar bilan jahon lingvistik tadqiqotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Til tizimini inson va jamiyat bilan bog'liq tarzda ilmiy tadqiq etuvchi sociolingvistika yo'nalishi ham tilni ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etish bilan boshqa tilshunoslik yo'nalishlari bilan ajralib turadi. Sociolingvistik nuqtai – nazaridan nutqiy janrlarga oid til hodisalari tahlil qilinganda til va nutqdagi turli lingvistik hodisalarning, masalan, nutqiy janrlarning, ijtimoiy jihatdan shakllanish, rivojlanish, o'zgarish, birining yo'qolib ikkinchisining vujudga kelishi kabi bir qator ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oluvchi

yo'qolgan ijtimoiy omillar ta'siridan nutqiy janrlarda turli xil til shakllarining paydo bo'lishi kabi masalalarga oydinlik kiritish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus tilida duo qo'shiqlari Xristian diniy muqaddas qo'shoqlari sanalib, rus liturgik qo'shiqlarining asosiy turi sanaladi. Diniy qo'shiqlar ijrosi orqali qilinadigan ibodat turi bo'lgan mahsus diniy duolar mazmunida insonning Xudoga, xudolarga, azizlarga, farishtalarga murojaati tushuniladi [7]. Rus adabiyotshunosligi, musiqa kabilarda [6;5] duo nutqiy janrining esthetic va adabiy hususiyatlari keng o'rganilgan. Ingliztilida duo nutqiy janrining diniy-sociolingvistic, cognitive registr xususiyatlariga urg'u berilgan [2,3,4].

Tadqiqot metodologiyasi. So'nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar nutqiy janrlar sociolingvistikasining qamrovi keng ekanligini isbotlab bormoqda. Nutqiy janrlarda til va jamiyat munosabatlari, nutqiy janrlar shakllarining individual variantlilik va mikrojarayonlar (shaxslararo muloqot, kichik guruhlar muloqoti va hokazo), muayyan jamiyat a'zolarining nutqiy janr shakllaridan qanday foydalanishlarini, to'g'rirog'i, muayyan nutqiy janrga tegishli til shakllarini qanday tanlashni, nutqiy janrlarda til shakllari tanlovi, ayniqsa, til shakllarini tanlashda ta'sir qiluvchi katta va kichik ijtimoiy omillar: muloqotga kirishuvchilarning yoshi, jinsi, madaniyati, bilim darajasi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ijtimoiy

yaqinlik darajasi, ijtimoiy kollektivizm va individuallik, kasbi, ijtimoiy holati, kommunikativ salohiyati, ijtimoiy maqomi, ijtimoiy o'rnidan tortib ijtimoiy qatlam, etnos va etnik guruh kabilari inobatga olinib, tahlilga tortilmoqda. Umuman olganda, nutqiy janrlar sosiolingvistikasi muayyan nutqiy janrlarga oid til shakllarining ijtimoiy tabiatini o'rganar ekan, nutqiy janrlarning til tizimidagi ijtimoiy kommunikativ funksiyasini to'lig'icha tushunishga yordam beradi. Shunday ekan, sosiolingvistik tahlillar orqali nutqiy janrlarning muayyan lingvistik shakllari va ularda mavjud xabar, ya'ni so'zlovchi va tinglovchi kim bilan (bir yoki bir nechta kishi), qanday ijtimoiy muhitda, ya'niqulay/noqulay sharoitda, rasmiy/norasmiy muhitda va qanday maqsadda (muloqot, xabar, ta'sir etish) gaplashayotganligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, nutqiy janrlar sosiolingvistikasi nuqtai nazaridan qaralganda har bir nutqiy janrning o'ziga xos shakllari lisoniy kodlanadi, muayyan ijtimoiy jarayonda uslubiy shaklga kiradi va shu orqali o'ziga xos lingvistik qolip, ya'ni lingvistik shakl oladi. Lingvistik shakllarda esa amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmui: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalari yoshi, ijtimoiy mavqei, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlaro'z aksini topadi.

Demak, nutqiy janrlar sosiolingvistikaning maqsadi sifatida til shakllarining jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy omillarning tilga bo'lgan ta'sir mexanizmi bilan bog'liq masalalarni o'rganish deb belgilash mumkin. Bir so'z bilan aytganda, sosiolingvistik nuqtai nazaridan nutqiy janrlar til tizimida ijtimoiy hodisa sifatida muayyan ijtimoiy guruhlarning tomonidan muayyan mazmun asosida shakllantirilgan o'ziga xos lingvistik shaklga solingan nutqiy butunlik sifatida namoyon bo'ladi. Muayyan nutqiy janrda mavjud qoliplangan lingvistik shakl muayyan ijtimoiy qonuniyatlar asosida boshqariladi.

Nutqiy janrlarning sosiolingvistik xususiyatlarini tahlili muayyan nutqiy janrga tegishli qoliplangan lingvistik shakllarning ijtimoiy lingvistik (verbal: duo so'zlari, gaplari va nonverbal: milliy hatti-harakatlar, duoga qo'l ochish kabi) kodlar, ijtimoiy nolingvistik kodlar, jumladan, ijtimoiy kinetik kodlar (maxsus kiyimlar: gadoylar, diniy xoji kiyimlar, imomga tegishli ust boshlar, bosh kiyimlar) kabi ijtimoiy omillar asosidagi berilishining asosidir. Shundan kelib chiqib aytish zarurki, nutqiy janrlar sosiolingvistikasida nutqiy janrlarning lisoniy (til: verbal va nonverbal) va nolisoniy (sosiolingvistik, psixolingvistik, pragmalolingvistik kabi) belgilari ham o'ziga xosdir. Nolisoniy belgilar haqida gap borar ekan, avvalo, belgi so'zining ma'nosi bilan tanishish o'rinlidir. Ensiklopedik lug'atlarda byelgi so'zi orqali moddiy, hissiy ravishda idrok etiladigan predmet, voqea yoki harakat tushuniladi [5]. Bu harakat ko'rsatmalar, ishoralar sifatida boshqa predmet, xususiyat, munosabatlarda namoyon bo'ladi. Demak, belgi so'zi inson ongida moddiy va hissiy idrok etiladigan predmet, voqea, harakat va shu kabilarni ifodalaydi hamda turli vaziyatlarda bu belgilar ko'rsatma, ishora vazifasini ham o'taydi. Bu belgilar o'ziga xos ishoralar orqali boshqa bir predmetni, xususiyatni va munosabatni ham ifodalashi mumkin. Bundan anglashiladiki, byelgining ikki funksiyasi mavjud bo'lib, birinchi funksiyasi bu predmet, voqea, harakatni bevosita ifodalash, ikkinchi funksiyasi esa boshqa predmet, xususiyat, munosabatlarga ishora sifatida namoyon bo'lishidir. Byelgining boshqa predmet, xususiyat, munosabatlarga ishora qilishi xarakteri nutqiy janrlarni pragmalolingvistik, sosiolingvistik, psixolingvistik kabi tildan tashqari belgilarga asoslanib tadqiq qilishning asosidir. Ensiklopedik lug'atda byelgi til yoki g'ayritil belgilarga bo'linadi [5]. Til belgilari bu o'z o'zidan lisoniy vositalarni

ifodalab keladi. G'ayritil belgilar esa belginushalar, belgialomatlar, belgisignal va hokazolarni ifodalab keladi. Demak, kinetik belgilarda ham o'ziga xos mazmunning mavjud bo'lishi g'ayritil vositalari ishtirokini anglatadi.

Tahlil va natijalar. Ensiklopedik lug'atda byelgining axborot uzatish jarayoni bilan aloqasi muhim va byelgining predmet ma'nosini, mazmun ma'nosini, ekspressiv ma'nosini aniqlamasdan turib belgini tushunish mumkin emas, deb yoziladi. Ushbu tadqiqotimizda byelgi nuqtai nazaridan yondoshsak, nutqiy janrlarning muayyan lingvistik shakllari ortida yashiringan xalqning milliy qadriyatlarini, qiziqishlari, g'oyaviy fikrlari, me'yorlari, tamoyillari, an'analari va milliy-madaniy o'ziga xoslik kabilarni yoritish mumkin. Ushbu o'ziga xosliklarni aniqlash nutqiy janrlarning ijtimoiy lingvistik identifikatsiyasini belgilash demakdir. Nutqiy janrlarda ijtimoiy lingvistik identifikatsiyani (sociolinguistic identity) ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash esa nutqiy janrlar sosiolingvistikasi oldida turgan dolzarb masalalardir. Masalan, duo nutqiy janrida muayyan ijtimoiy lingvistik shakllar mavjudki, ushbu shakllar o'ziga xos ijtimoiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, duo nutqiy janrida gender o'ziga xoslik (gender identity) haqida gapirilganda, duo vaqtida ayolning so'zlash va harakatlanish manerasi, stereotipning o'ziga xosligi, erkak manerasing o'ziga xosligi kabilari, o'zbek mentalitetida erkak duosi, masalan, qizning to'yida ota duosining ulug'ligi, o'g'il farzandlar uchun ona duosining ustunligi kabilari, irq jihatdan o'ziga xoslik (race identity): oq va qora tanlilar duosidagi ijtimoiy mavzularning asosiy, ya'ni birinchi o'ringa qo'yilishi, masalan, ozodlikdagi oq tanlilar duosi, ozodlik uchun kurashayotgan qora tanlilar duosi kabilarning farqlanishi, etnik kelib chiqishi (ethnic identity) yashash sharoiti chorvachilik bilan rivojlangan xalqlarda to'yda "kelin-kuyovlar qo'ydek qo'zilasini", ta'ziyada "orqasi yog'li sutli bo'lsin" kabilarni misol qilish mumkin. Bundan tashqari duo nutqiy janrida ijtimoiy lingvistik identifikatsiyasini belgilashda dini (religion identity), ijtimoiy kelib chiqishi (social background identity), ijtimoiy mavqei (status identity), jamiyatda shaxsiy mavqei (personal position in society), qadri, axloqiy fazilatlarini kabilari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni aytish kerakki, ushbu ijtimoiy o'ziga xosliklar o'sha jamiyatning ijtimoiy mezon, ya'ni ijtimoiy tarozisi asosida aniqlanadi. Masalan, ahloqiy buzuvchi erkak va ayollar duosining olinmasligi yohud bunday kimsalarga duo berishdan bosh tortish kabi ijtimoiy cheklovlar mavjud. Lekin bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, ijtimoiy cheklovlar jamiyatning ijtimoiy kollektivizm va individualizm shakllarining qaysi biriga amal qilinishida ko'rinadi. Ijtimoiy kollektivizm g'oyalari asoslangan jamiyatda o'sha xalqning muayyan ijtimoiy ideologiyasi mavjud bo'lib, ushbu ideologiya o'sha xalq madaniyatining milliy taomili hisoblanadi. Sosiologiya fanining ijtimoiy harakat nazariyasiga ko'ra agar o'sha madaniyat iyerarxik jihatdan siyosiy va diniy tizimga bog'liq bo'lsa, bunday madaniyat vakillari individual yashashdan ko'ra guruh bo'lib yashashga moyil bo'ladi va bu madaniyat o'z o'zidan kollektiv madaniyat hisoblanadi [1]. Duo nutqiy janrining ijtimoiy kollektivizm va individualizmga oid til shakllarini o'rganish alohida sosiolingvistik masala hisoblanadi. O'zbek duolariga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kollektivizm g'oyalari asoslangan jamiyatda duo nutqiy janrida ijtimoiy tengsizlik masalasi ham kuzatiladi: duo orqali ijtimoiy qadrsizlantirish, o'zbek madaniyatida duoga qo'l ochmaslik, qisqa duo qilishlik, qadrlashlar sonining pasayishi yoki kimnidir ismini yohud qilgan yaxshi hayrli ishlarini duoda tilga olmaslik, jamoada xalqning duosiga sazovor bo'lishlik, jamiyatda man qilingan odatlarni bajarish, o'g'rilik, vatanga xoinlik qilish kabilarda mahalla oqsoqollari, ya'ni erkaklar tomonidan jamoaviy duo mazmunida yomon tilaklarga

asoslangan qarq'ishlarning tashkil qilinishi, bu yerda mahalla oqsoqollarining ijtimoiy qadr-qiyamati ijtimoiy me'yorlarni buzmagani, jamoa foydasiga mehnati singanligi sababli ham hammaga o'rnak bo'la olganligi inobatga olinadi va shu kabi ijtimoiy mezonlar asosida aniqlanadi.

Bundan tashqari duo nutqiy janrida ijtimoiy lingvistik identifikatsiyani aniqlashda ijtimoiy yaqinlik darajasi: uzoq yoki yaqin tanishi, neytral, qarindoshlik, birodarlik, aka uka, opa singil, er-xotin, ota-ona va bola kabi, masalan, ona duosi, ota duosi, ota-ona vafotidan keyin kattalar duosi, masalan, xola, amma, tog'a, amaki, katta aka yoki opa duosi va hokazo, so'zlovchining ijtimoiy-ma'naviy darajasi (social-spiritual degree): masalan, o'qigan insonlarning duosi, o'qimagan insonlarning duosi kabi, ijtimoiy sinfiy mansubligi: (social class): prezident duosi, xalq duosi kabi, ijtimoiy vaziyat (social situation) masalan, turli tadbirlarda: bayram, ta'ziya kabilarda o'ziga xos duolar kabilarni ham aniqlash imkoni mavjud. Duo nutqiy janri orqali so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar (social attitudes)ni aniqlash imkoni mavjud. Bunda duo berish so'zlovchining tinglovchiga yaxshi munosabatda ekanligi, duo bermaslik so'zlovchining

tinglovchiga yomon munosabatda ekanligini anglatishi mumkin. Duo nutqiy janrida so'zlovchining yoshi, o'rni (place and power), ijtimoiy e'tiqod (faith, beliefs), adresat, duo oluvchi, ya'ni tinglovchining maqsadi va o'rni ham muhim ahamiyatga ega. Demak, bu o'rinda duo nutqiy janrining tarbiyaviy vosita ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Kollektiv jamiyatda xayrli ishlar bilan shug'ullanish, xayrli ishlar oldidan duo olish duo nutqiy janrining tarbiya quroli ekanligidan darak beradi. Kollektivism jamiyatida duo orqali ijtimoiy guruh duoibadlari kelajakda ushbu jamiyatda yashovchi shaxsni o'g'rilik, giyohvandlik, jinoyatchi bo'lib qolishini oldini oladi. Shu sababli ham kollektivism jamiyatida duo orqali xayrli ishlar amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Xulosa va takliflar. Demak, duo nutqiy janrining sosiolingvistik tahlili misolida keltirilgan ushbu ijtimoiy ko'rsatkichlar orqali ham nutqiy janrlarning o'ziga xos identifikatsion belgilarini topish imkoni mavjud. Nutqiy janrlarni sosiolingvistik tadqiq etish esa, o'z navbatida, nutqiy janrlarning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq lingvistik tabiatini to'laonli ochib berilishida muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Adrian Holliday. Intercultural communication and Ideology. London, 2011, p 59
2. <https://academic.oup.com/book/12438/chapter-abstract/162063947?redirectedFrom=fulltext>;
3. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1218416.pdf>;
4. <https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/9783110214284.7.523/html>
5. [Qomus.info/encyclopedia](https://qomus.info/encyclopedia)
6. О.А.Перевалова. Теория жанра молитвы в современном литературоведении. (УрФУ) https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/25415/1/avfn2_2013_54.pdf;
7. Презентация по музыке для 6 класса «Молитва в музыке русских композиторов. <https://infourok.ru/material.html?mid=41943>



Ғайрат ҲАФИЗОВ,
Ўзбекистон Миллий университети ўқитувчиси
E-mail: gayrat.khafizov@mail.ru

ТошДАУ, PhD Г.А.Тиловова тақризи асосида

SOME ISSUES OF TRANSLATION OF WORKS OF ART FROM GERMAN INTO UZBEK

Annotation

The art of translation is such an art that it not only serves as a bridge between nations, but also serves to convey to each other the emotional experiences of two different language speakers living in the same country, expressed in different languages. This article is devoted to the field of translation studies, the works translated from German to Uzbek are analyzed grammatically, lexically and stylistically, and some issues encountered during the analysis are discussed.

Key words: Direct translation, indirect translation, grammar, lexicon, originality, word, meaning.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ С НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ

Аннотация

Искусство перевода является таким искусством, что оно не только служит мостом между народами, но и служит для передачи друг другу эмоциональных переживаний двух иностранцев, живущих в одной стране, выраженных на разных языках. Данная статья посвящена области переводоведения, произведения, переведенные с немецкого на узбекский язык, анализируются грамматически, лексически и стилистически, а также обсуждаются некоторые вопросы, возникшие в ходе анализа.

Ключевые слова: Прямой перевод, косвенный перевод, грамматика, лексика, оригинальность, слово, значение.

НЕМИС ТИЛИДАН ЎЗБЕК ТИЛИГА БАДИИЙ АСАРЛАР ТАРЖИМАСИНИНГ БАЪЗИ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация

Таржима санъати шундай бир санъатки, у нафақат миллатлар ўртасида кўприк воситасини ўтайди, балки бир юрда яшаб турган икки нотанишнинг турли тилларда ифодаланган дил кечинмаларини бир-бирига етказишга ҳам хизмат қилади. Ушбу мақола таржимашунослик соҳасига бағишланган бўлиб, мақолада немис тилидан ўзбек тилига таржима қилинган асарлар икки тилнинг грамматик, лексик ва стилистик жиҳатдан таҳлил қилиниб, таҳлил жараёнида учраган баъзи бир масалаларга тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: Бевосита таржима, билвосита таржима, грамматика, лексика, аслият, сўз, маъно.

Кириш. Таржимашунос олим Санжар Сиддик “Таржима – асарнинг бошқа тилдаги тўлиқ нусхасидир” деб таъкидлаб ўтган[7]. Сўнги йилларда таржима соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар олим томонидан илгари сурилган фикр тўғри эканлигидан далолатдир. Ҳақиқатдан ҳам таржима тил билан боғлиқ бўлиб, айниқса бадий адабиётда ўз ифодасини топмоқда. Дунё адабиёти дурдоналарининг бадий таржима воситасида халқимиз ҳаётига кириб келиши, таржимашунослик фанининг ютуқларидан бири ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Таржима ҳақида илк назарий фикрлар дастлаб қадимги Римда юзага келган. Юнон ва лотин тилларини мукамал билган Аристотел, Цицерон ва Горатсий таржима жараёнида сўз кетидан қувиш ярамайди, уларнинг маъно ифодаларини аввал тарозида ўлчаб, кейин таржима қилиш маъқул, деган фикрни билдирганлар[8]. Кейинчалик Италияда Бартоломео ва Манетти, Францияда Дю Белли ва Малерб, Англияда Бекон ва Драйден, Германияда Гёте ва Гумбольд, Россияда Ломоносов ва Сумароков таржима хусусида ўз назарий фикр ва ғояларини билдириб ўтганлар. Таржиманинг асосий қоида ва принциплари дастлаб машҳур адабий танқидчи В.Г. Белинский томонидан аниқланиб, кейинчалик бошқа таржимашунос олимлар томонидан такомиллаштирилган.

Таржимашунослик соҳасига назар ташлайдиган бўлсак, бевосита таржиманинг аҳамияти ва салмоғи

билвосита таржимага нисбатан анча юқори туради. Билвосита таржима жараёнида учрайдиган камчиликлар бевосита таржима жараёнида камроқ учрашиги билан аҳамиятлидир. “Таржимоннинг вазифаси – бошқа бир тил воситалари ёрдамида асарнинг асл нусхасини тўлиқ ва аниқ ҳолда етказиб беришдан иборат. Асар ўзига хос бўлган услубий ва экспрессив хусусиятларини сақлаб қолиши шарт. Бошқачароқ ифодаляйдиган бўлсак, асарнинг таржимаси унинг асл нусхаси моҳиятини очиб беришдан ташқари, аслиятдаги асарнинг мазмуни, эмоционал ҳолати, таржима қилинган асарда худди ўша ҳолатда сақланиб қолган бўлиши лозим. Бу каби талаблар, асарнинг нафақат ўзига, балки унинг таркибий қисмларига ҳам тегишлидир [7]. Айнан шу жиҳатлари билан таржимашуносликда бевосита таржима қимматли аҳамиятга эга ҳисобланади.

Мукамал таржима қилиш маҳоратини эгаллаш учун, нафақат умумий тайёргарликка эга бўлиш, балки таржима асосларини ҳам эгаллаш лозим. Аниқ таржима асосида адекват таржима қилинаётган матннинг асл матнга мос келиши муҳимдир, яъни чет тилидаги матнни она тилига асл матннинг стилистик, грамматик, лексик ва бошқа хусусиятларини максимал сақлаган ҳолда аниқ бера олиш лозим бўлади.

Тадқиқот методологияси. Бевосита таржима қилинган асарларга мисол тариқасида мутаржим, олима, ўз соҳасининг етук билимдони Янглиш Эгамова томонидан немис тилидан ўзбек тилига таржима қилинган

“Андижон шахзодаси” (BABUR, der Tiger) асарини келтириш мумкин, чунки мазкур асар австриялик немис олими ва ёзувчиси Фриц Вюртленинг қаламига мансуб бўлиб, асар ўтган асрнинг 1947 йилида Вена шаҳрида нашр қилинган. Фриц Вюртле ушбу асарини буюк бобокалонимиз Захриддин Муҳаммад Бобур қаламига мансуб “Бобурнома” асаридан таъсирланиб, ўз давридаги ёшлар учун ёзган. Ёзувчи “Бобурнома” асаридан шунчалик таъсирланганидан ўзининг асарида қисқагина лекин жудаям таъсирчан муқаддима ҳам битган.

Дарҳақиқат Захриддин Муҳаммад Бобур ҳақида, Бобурийлар сулоласи ва салтанати, буюк бобокалонимиз шеърнати ва машхур асари “Бобурнома” тўғрисида нафақат миллий адабиётимизда, балки жаҳон адабиётида ҳам кўп фикрлар берилган. Япон олими Эйжи Манонинг “Бобурнома” бўйича амалга оширган бекиёс ишлари, америкалик олим С.М. Беркнинг “Акбаршоҳ – Бобурийларнинг энг буюғи” асари, таниқли инглиз адибаси Румер Годен хонимнинг “Гулбадан”, Муҳаммад Хайдар Мирзонинг “Тарихи Рашидий” асарлари [5] дунё адабиётининг бобокалонимиз ижодига кизиқишларига яққол мисолдир.

Ўзбек тилига таржима қилинган мазкур асарни баъзи жиҳатларини таҳлил қилиб, таржима асарни танқид қилишдан анча йироқлигимизни таъкидлаган ҳолда, таҳлилимиз сўнгида келиб чиқадиган хулосалар таржимашунослик соҳасига озгина бўлсада наф келтиришидан умидворимиз.

Таҳлил ва натижалар. Асар қуйидаги гап билан бошланади: “Oberhalb des Städtchens Osch, dort wo die Karawanen aus Turkestan auf dem Wege nach China ihre Rastfeuer entzündend, steht am Hange des Berges Bara Koh ein alter, mächtiger Granatapfelbaum. Seine Jahre können kaum gezählt werden, es sind ihrer gar viele” [4].

Ўш шаҳрининг тепа томонида, Туркистондан келаётган қарвонлар Хитойга ўтиб кетаётганда дам олиш учун гулхан ёқишадиган жойда, Бароққўхнинг ёнбағрида улкан, кекса анор дарахти бор. У шунчалик кексаки, ёши нечидалигини ҳам аниқлаш қийин [5].

Юқорида келтирилган бу икки кичик парча таржимасини бир бирига қиёслайдиган бўлсак, бир қарашда бир-бирига жуда муносиб тушганлигини кўришимиз мумкин. Лекин мазкур мисолларни кенг қамровда таҳлил қиладиган бўлсак, баъзи бир камчиликларидан холи эмаслиги кўринади.

Аслиятда берилган гап қўшма гап шаклида берилган бўлиб, икки гап “wo” боғловчиси ёрдамида боғланган бўлиб, таржима тилида мазкур гап содда ёйиқ гап тарзида ифодаланган. Гарчи икки тилда ифодаланган гапларда сўз тартиби турли бўлсада, аслиятда назарда тутилган маъно ва мазмунга таржима жараёнида путур етмаган.

“Oberhalb des Städtchens Osch” немис тилида ифодаланган ушбу гап бўлаги ўзбек тилида “Ўш шаҳрининг тепа томонида” сўз бирикмаси орқали таржима қилинган бўлиб, гаплардаги сўз тартиби ва сонига эътибор қаратадиган бўлсак, ҳар икки гап бўлаги тўрт сўздан иборат бўлиб, ҳар икки гап бўлақларида ҳам қараткич келишиги қўлланилган. Немис тилидаги “Städtchen” атамаси ўзбек тилида “шаҳарча” маъносини ифодалайди, чунки немис тилидаги -chen қўшимчаси кичрайтириш маъносига қўлланилади. Лекин ўзбек тилидаги таржимасида бу сўз тушиб қолдирилган. Гарчи ушбу сўз таржима тилида тушириб қолдирилган бўлсада, немис тилида назарда тутилган мазмун таржима матнида сақланиб қолган, лекин аслиятдаги гап бўлағида Ўш шаҳрини кичик шаҳарча эканлиги таъкидланган бўлсада, ўзбек тилида бу берилмаган ва шунинг учун Ўш

шаҳрининг қандайлиги маъхумлигича қолган. Ушбу ҳолатда “Ўш” шаҳрига изоҳ бериш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Аслиятдаги гап бўлаги таркибидаги “Oberhalb” сўзи ўзбек тилига “тепа қисм, юқори томон” маъноларини ифодалайди. Немис тилида ҳам ушбу сўз худди шундай маънони англатиб, контекстда бирон нарсанинг юқори қисми деган маънони билдиради. „Oberhalb des Städtchens Osch“ сўз бирикмаси ўзбек тилига “Ўш шаҳрининг тепа томонида” сўз бирикмаси орқали таржима қилинган. Бир қарашда шаҳарнинг тепа томони ҳеч қанақа маъно англатмасда, “томон” сўзи маъно кўчишига учраган бўлиб, шаҳарнинг юқори томони қисмини ифодалаб келган.

“Dort wo die Karawanen aus Turkestan auf dem Wege nach China ihre Rastfeuer entzündend” эргашган қўшма гапи немис тилидан ўзбек тилига “Туркистондан келаётган қарвонлар Хитойга ўтиб кетаётганда дам олиш учун гулхан ёқишадиган жойда” деб содда ёйиқ гап тарзида таржима қилинган. Таржима жараёнида “dort” ва “wo” сўзлари битта сўзга айланиб, “жойда” деб таржима қилинган. Шунинг учун ҳам аслиятда берилган эргашган гап ўзбек тилига содда ёйиқ гапга айланган. Немис ва ўзбек тиллари икки тил оиласига мансублиги учун ҳам бу икки тилдаги гап тартиби ва гап бўлақлари ҳар доим ҳам таржима жараёнида бир-бирига мос тушавермайди.

“Die Karawanen aus Turkestan” бирикмасига эътиборимизни қаратадиган бўлсак, мазкур бирикма ўзбек тилига “Туркистондан келаётган қарвонлар” тарзида берилган бўлиб, ўзбек тилидаги бирикмада “келаётган” феълнинг сифатдош шакли қўшиб таржима қилинган. Аслиятдаги бирикмада қарвон Туркистондан эканлигига урғу берилган назаримизда. Аммо қарвоннинг Туркистондан келаётганлиги ҳақида маълумот йўқ назаримизда. “Туркистондан келаётган қарвонлар” деб таржимада ифодаланса, қарвон аслида бошқа ўлкага тегишли бўлиб, шунчаки Туркистон шаҳридан келаётган қарвонлигига урғу берилган бўлса керак. Шунинг учун бизнингча “Туркистонлик қарвонлар” деб таржима қилинса, мақсадга мувофиқ бўлармиди?

“Auf dem Wege nach China” бирикмаси ўзбек тилига “Хитойга ўтиб кетаётганда” тарзида таржима қилинган. Мазкур таржимани таҳлил қилар эканмиз, икки тилда ифодаланган бирикмалар бир бирига жудаям қоришиб кетганлигини гувоҳи бўлишимиз мумкин. “Auf dem Wege” сўз бирикмаси ўзбек тилига “ўтиб кетаётганда” деб таржима қилинган, лекин немис тилидаги ушбу бирикма ўзбек тилига “бирон томонга қараб йўлга чиқмоқ” маъносини беради, яъни “auf dem Wege nach China” бирикмаси “Хитойга қараб йўлга чиқмоқ” маъносини ифодалайди.

“Ihre Rastfeuer entzündend” сўз бирикмаси таржимада “дам олиш учун гулхан ёқишадиган” тарзида берилган. “Rast” сўзи немис тилидан ўзбек тилига “кичик танаффус” маъносини ифодалайди. “Rastfeuer” қўшма сўзини таржимон “дам олиш учун гулхан” деб таржима қилган ва аслиятда назарда тутилган маънони тўла тўқис очиб берган.

“Steht am Hange des Berges Bara Koh ein alter, mächtiger Granatapfelbaum” гап бўлаги таржимон томонидан “Бароққўхнинг ёнбағрида улкан, кекса анор дарахти бор” деб таржима қилинган бўлиб, бунда аслиятда назарда тутилган маъно қисман йўқолган десак муболаға бўлмас, чунки гап таркибидаги “steht(stehen)” феъли ўзбек тилига “турмоқ, тикка турмоқ” маъносини ифодалаб келади. Қолаверса, “mächtig” аниқловчиси ўзбек тилига “бақувват, кучли” деган маъноларни ифодалайди. Шундан келиб чиқиб, мазкур гапни ўзбек тилига

“Бароққўхнинг ёнбағрида бақувват, кекса анор дарахти қад ростлаган” деб таржима қилсак, аслиятда назарда тутилган маънони берган бўларди.

“Seine Jahre können kaum gezählt werden, es sind ihrer gar viele” гапни таржимаси “У шунчалик кексаки, ёши нечидалигини ҳам аниқлаш қийин” тарзида берилган. Аслиятдаги гапни таҳлил қиладиган бўлсак, “дарахтнинг ёши анча катталиги, ёши катталигидан санаб ҳам бўлмаслигига урғу бериляпти”. Таржимада ҳам дарахтнинг ёши катталиги тасвирланган. Фақат аслиятда назарда тутилган “es sind ihrer gar viele” бирикмаси, яъни дарахт ёшининг йиллари санаб бўлмайдиган даражада кўплиги назарда тутилган қисми ўзбек тилига таржима қилинмаган, лекин “ёши нечидалигини ҳам аниқлаш қийин” тарзида берилган гапни аслиятда назарда тутилган маънони ифодалайпти деб олсак бўлади.

Das Landvolk meint, der alte Granatapfelbaum kenne alle Tiere und Menschen, die seit undenklicher Zeit an ihm vorübergezogen sind, und alle, die noch an ihm vorüberziehen. Das mag wahr sein oder nicht, niemand kann darüber Auskunft geben [4].

Одамларнинг фикрича, кекса анор дарахти узоқ узоқ замонлардан бери ёнидан ўтган барча ҳайвонларни, одамларни, ҳали яна ўтадиганларнинг барчасини биларкан. Бу гап ростми ёки ёлғонми, бунга ҳеч ким қафолат беролмайди[5].

Юқоридаги икки гап таркибида содда ёйиқ, эргашган қўшма гаплар мавжуд, лекин бу гаплар таржимада содда ёйиқ гап тарзида берилган. Бир қарашда аслиятда берилган маъно таржима гапида ҳам сақланиб қолганлигини гувоҳи бўламиз, лекин гапларни сўз бирикмалари асосида таҳлил қилсак, таржима жараёнида бир неча камчиликлар мавжудлигини кўриш мумкин.

“Das Landvolk meint” немис тилидаги ушбу гап ўзбек тилига “Одамларнинг фикрича” тарзида ифодаланган, лекин немис тилидаги “Das Landvolk” сўзи ўзбек тилига “қишлоқ халқи, одамлари” ёки “бирон бир худудда яшовчи маҳаллий аҳоли” маъноларини ифодалайди. “Одамларнинг фикрича” деб таржимада берилса, ҳамманинг фикри шунақа экан деган маъно келиб чиқishi мумкин, шунинг учун таржимада “қишлоқ одамларининг фикрича” ёки “маҳаллий аҳолининг фикрича” деб таржима қилинса, мақсадга мувофиқ бўларди назаримизда.

“Der alte Granatapfelbaum kenne alle Tiere und Menschen, die seit undenklicher Zeit an ihm vorübergezogen sind, und alle, die noch an ihm vorüberziehen” эргашган қўшма гап, ўзбек тилига “кекса анор дарахти узоқ узоқ замонлардан бери ёнидан ўтган барча ҳайвонларни, одамларни, ҳали яна ўтадиганларнинг барчасини биларкан” тарзида берилган. Ушбу гапдаги “kennen” феъли ўзбек тилига “бирон нарсани билмоқ” ёки “кимнидир танимоқ” деган маъноларни ифодалайди. “Die noch an ihm vorüberziehen” гап бўлаги эса “ҳали яна ўтадиганларнинг барчасини” тарзида таржима қилсак, таржимада берилган гап таркибидаги “ўтадиганлар” сўзи келажакда ўтадиганлар маъносини ифодалайди. Лекин аслиятда берилган “noch vorüberziehen” сўзининг маъносига эътибор берадиган бўлсак, гапдаги феъл ҳозирги замонда амалга ошириляётган иш ҳаракатни ифодалаб келган. Шунинг учун ҳам “Das Landvolk meint, der alte Granatapfelbaum kenne alle Tiere und Menschen, die seit undenklicher Zeit an ihm vorübergezogen sind, und alle, die noch an ihm vorüberziehen” гапни ўзбек тилига “Қишлоқ одамларнинг фикрича, кекса анор дарахти узоқ узоқ замонлардан бери ёнидан ўтган барча ҳайвонларни, одамларни ва ҳали ҳам ўтаётганларнинг барчасини

таниркан” деб таржима қилсак, аслиятда назарда тутилган маънони бериши мумкин.

“Das mag wahr sein oder nicht, niemand kann darüber Auskunft geben” гапни ўзбек тилига “Бу гап ростми ёки ёлғонми, бунга ҳеч ким қафолат беролмайди” тарзида берилган. Немис тилидаги гап таркибидаги “Auskunft” сўзи ўзбек тилига “хабар, ахборот” маъноларини ифодалаб келади. Шунинг учун ҳам таржимадаги “қафолат” сўзи аслиятда назарда тутилган маънодан анча йироқлашганлигининг гувоҳи бўламиз. Шунинг учун немис тилидаги “Das mag wahr sein oder nicht, niemand kann darüber Auskunft geben” гапни ўзбек тилига “Бу гап ростми ёки ёлғонми, бу ҳақда ҳеч ким маълумот беролмайди” деб таржима қилинса, аслиятда назарда тутилган маъно келиб чиқади назаримизда.

Es war am nächsten Tage, eine gute Stunde nach dem Mittaggebet, als die Kaufleute und Spaziergänger im Bazar der Hauptstadt Andijan ein ungewöhnliches Schauspiel zu sehen bekamen [4].

Эртаси куни, пешин намозидан кейин пойтахт Андижон бозорида юрган одамлар ва савдогарлар ажойиб бир манзаранинг гувоҳи бўлишди [5].

Юқорида келтирилган гапларни бир-бирига киёсласак, аслиятда берилган гап мазмуни таржимада ўз аксини топганлигини гувоҳи бўламиз. Лекин, ҳар икки гапни грамматик, лексик ва гап тартиби жиҳатидан таҳлил қиладиган бўлсак, куйидаги хулосаларга келишимиз мумкин.

Гаплар таҳлилини гап тартибидан бошлайдиган бўлсак, немис тилида берилган гап эргашган қўшма гап эканлигини гувоҳи бўламиз. Ўзбек тилига таржима қилинган гап эса содда ёйиқ гап тарзида ифодаланган. Гарчи ўзбек тилидаги гап тартиби аслиятдаги гап тартибига мос келмасда, аслиятда ифодаланган гапдаги гап бўлаклари таржимада туширилиб қолдирилмаганлигини таъкидлаб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Чет тилидаги эргашган қўшма гапни ўзбек тилига содда ёйиқ гап тарзида таржима қилиш таржимондан анчагина маҳорат талаб қилади, зеро бу икки тил бир тил оиласига мансуб эмаслиги билан ҳам бир беридан ажралиб туради.

Ҳар икки тилдаги гапларни лексик жиҳатдан таҳлил қиладиган бўлсак, гапларда ифодланган сўзлар бир бирига мутаносиб равишда таржима қилинган. Лекин немис тилида берилган “eine gute Stunde” бирикмаси, таржима жараёнида туширилиб қолдирилган. Немис тилида берилган “die Kaufleute und Spaziergänger im Bazar der Hauptstadt Andijan” бирикмаси ўзбек тилига “пойтахт Андижон бозорида юрган одамлар” бирикмаси тарзида ифодаланган бўлиб, бунда аслиятда аниқловчи вазифасида келган от, ўзбек тилига феълнинг сифатдош шаклида таржима қилинган, лекин аслиятда назарда тутилган маъно ўзгармаган. Аслиятда берилган “Schauspiel” лексикаси таржима тилида “манзара” кўринишда таржима қилинган бўлсада, аслиятда назарда тутилган маънога путур етмаган. Ушбу сўз ўзбек тилига “шоу, шоу ўйин” маъноларини ифодалайди. Немис тилидаги гап таркибида келган “bekommen” феъли ўзбек тилига “гувоҳи бўлмоқ” тарзида берилган. Гарчи “bekommen” феъли ўзбек тилига “олмоқ, қабул қилиб олмоқ” маъноларини ифодаласада, ўзбек тилига қилинган таржима аслиятда назарда тутилган гапга мос келган.

Иккала гапни грамматик жиҳатдан таҳлил қиладиган бўлсак, ҳар иккала гап ҳам ўтган замон формасида ифодаланган бўлиб, фақат немис тилида берилган гапнинг иккинчи қисмида инфинитив конструкцияда ифодаланган гап бўлаги берилган бўлиб,

ушбу гап бўлаги ўзбек тилига гапнинг асосий кесимига кўшиб, таржима қилинган.

Ҳар иккала гап ҳақида умумий фикр билдирадиган бўлсак, немис тилидаги гап ўзбек тилига моҳирона ўгирилган. Гарчи таржима жараёнида турлича гап тартиблари, сўзларнинг синонимлари ва сўз туркумлари қўлланилган бўлсада, аслиятдаги маъно таржима жараёнида йўқолмаган.

Хулосалар ва таклифлар. Таҳлилимиз сўнгида умумий хулоса сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, таржимон Янглиш Эгамова томонидан немис тилидан

ўзбек тилига таржима қилинган “BABUR, der Tiger” асари ҳар томонлама мақтовга арзигулик таржимадир.

Таҳлил жараёнида учраган баъзи бир камчиликларни ҳисобга олмайдиган бўлсак, немис тилидан ўзбек тилига таржима қилинган “Андижон шаҳзодаси” асари бир сўз билан айтганда, аслиятда берилган маъно ва мазмунни ўзида сақлаган ва ушбу асарни таржимон ўз олдига қўйган мақсадларга эришганлиги билан яхши таржима асар деб айтиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Имянинова Ш. Бадий асарлар таржимаси. Тошкент: 2018.
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Фан. Тошкент. 2005.
3. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. Ўқитувчи. Тошкент. 1983.
4. Würthle Fritz. Babur, der Tiger. Verlag Jörgl & Co. Wien.1947.
5. Вюртле Фриц. Андижон шаҳзодаси. Олмон тилидан Янглиш Эгамова таржимаси. Ўқитувчи. Тошкент. 2011.
6. Речкер Я.И. Теория и перевода и переводческая практика. М., 2007.
7. Ҳамидов Х. Таржима-асарнинг бошқа тилдаги тўлиқ нусхасидир. //Ёш таржимашунос (илмий амалий анжуман материаллари) №5. Тошкент. 2020.
8. Холбеков М. Таржима назарияси фан сифатида. //Жаҳон адабиёти. №4. Тошкент. 2013.



Sabohat SHUKUROVA,
Qarshi davlat universitet o'qituvchisi
Email: Sabohatshukurova1977@gmail.com

QDU dotsenti N.Suyarova taqrizi asosida

**JON STEYNBKNING “G‘AM-TASHVISHLARIMIZ”ROMANIDA MA‘NAVIYATI VA ERKI, SHAXS MUAMMOSI
HAMDA UNING O‘ZBEK NASRI NAMUNALARI BILAN MUSHTARAKLIK JIHATLARI**

Annotatsiya

Jon Steynbek nafaqat Amerika adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham yirik romannavis yozuvchilardan biri hisoblanadi. Uning yuksak badiiy san'atkorlikka asoslangan adib sifatidagi orzu-mavqei adabiyot olamida sosial-ijtimoiy, maishiy-psixologik romanlar muallifi sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Badiiy, tarixiy, romantik, roman janri, ijtimoiy-siyosiy, maishiy-psixologik.

**JOHN STEINBECK'S SPIRITUALITY AND WILL, PERSONALITY PROBLEM IN THE NOVEL "OUR
SORROWS" AND ITS SIMILARITIES WITH EXAMPLES OF UZBEK PROSE**

Abstract

John Steinbeck is one of the great novelists not only in American literature, but also in world literature. His dream-position as a writer based on high artistic artistry is manifested in the world of literature as the author of socio-social, household-psychological novels.

Key words: Artistic, historical, romantic, novel genre, social-political, household-psychological

**ОДУХОТВОРЕННОСТЬ И МУЖЕСТВО ДЖОНА СТЕЙНБЕКА В РОМАНЕ «НАШИ ЗАБОТЫ», ПРОБЛЕМА
ЛИЧНОСТИ И ЕГО ОБЩИЕ ЧЕРТЫ НА ПРИМЕРАХ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЫ**

Аннотация

Джон Стейнбек – один из величайших романистов не только американской, но и мировой литературы. Его мечта-позиция писателя, основанная на высоком художественном мастерстве, проявляется в мире литературы как автор социально-социальных, бытово-психологических романов.

Ключевые слова: Художественный, исторический, романтический, романский жанр, социально-политический, бытово-психологический.

Kirish. 1961- yili yorug'lik yuzini ko'rgan "G'am-tashvishlarimiz" romani – adibning so'nggi yirik asari. 1962-yilning kuzida Jon Steynbekka adabiyot bo'yicha xalqaro Nobel mukofoti beriladi.

Nobel mukofoti qo'mitasining bu haqdagi qarorida shunday deyiladi: "Jon Steynbek bu mukofot bilan yuksak realistik va puxta badiiy jozibadorlik bilan omuxtalangan nasriy uslubdagi ijodi uchun taqdirlandi. Chuqur hamdardlik tuyg'usi, hikoyaviy yumor hamda sosial pafos bilan bog'liq asarlarida adib hamisha xo'rlangan, miskin bechoralar va muhtoj kambag'allar himoyachisi sifatida ko'zga tashlanadi".

Yana bu tarixiy qarorda Nobel mukofoti berilishida ayniqsa "Nafarat uchquni", "G'am-tashvishlarimiz" romanlari, "Javohir", "Sichqonlar va odamlar haqida" nomli qissalarining ahamiyati muhim rol o'ynaganligi, bular Steynbek ijodining xarakterli namunalari ekanligi maxsus ta'kidlangan.

"G'am-tashvishlarimiz" romani o'z xarakteri mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy, maishiy-psixologik asar sanaladi. Yozuvchi do'sti Paska Kovichga maktubida mazkur roman haqidagi konsepsiyasini shunday izohlaydi: "Bu romantik-badiiy nasrning yirik ko'lamli asari sanaladi. Uning o'ziga xos shakli, o'z yo'nalishi, o'z ritmi va albatta o'zining muhim maqsadi mavjud. Bilasan, yomon roman oquvchini o'ziga tez jalb qiladi, o'rtahol roman – o'quvchini sezgirligiga ta'sir o'tkazadi, yaxshi roman esa, o'quvchining yo'lini oydin qiladi. Bilmadim, mazkur roman shu vazifalardan birortasini ado etib biladimikan-yo'qmikan, ammo mening niyatim u shinavandalar yo'lini yoritishi, nur bag'ishlashi lozim[1]."

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Odatda, Jon Steynbek asarlarining aksariyati voqealari, obrazlari uning o'z

tug'ilib o'sgan vatani Kaliforniya, Salinas vodiysi bilan bog'liq. "G'am-tashvishlarimiz" romani voqealari esa qadimiy arxitektura va madaniyatga ega YAngi Angliya shaharchasi muhiti bilan bog'liq. Asar qahramonlari ham Steynbekning avvalgi asarlaridagi kabi bechora va kambag'al kishilar emas. Roman markazida yangi Angliya shahrining asoschilaridan biri bo'lgan madaniyatli, kasbi bo'yicha me'mor kishi uning oila, yaqin atrofidagi ezgu niyatli odamlar timsoli tasvirlanadi.

Jon Steynbek har qanday jiddiy, qaltis yoki murakkab siyosiy-ijtimoiy g'oyalar, jarayonlar haqida fikr yuritganda, shunga muqofiq kishilar timsolini yaratganda ham o'zining shakllangan engil yoki kinoyaviy, achchiq yoki falsafiy yumoridan unumli foydalanadi. Sarlavhasining "G'am-tashvishlarimiz" kabi nomlanishidanoq ancha og'ir va tashvishli muammolar talqiniga bag'ishlanganligi ma'lum bo'ladigan roman tizimida ham bu maroqli va qiziqarli uslub o'zini namoyon etgan. Buni hatto asarning boshlanish qismlaridanoq, Iten Allen Xoulining xotini Meri Xouli bilan o'rtasidagi do'stona hazilomuz munosabatlaridanoq ko'rish mumkin.

Yozuvchi o'z qahramoni Itenning hayvonlar bilan munosabatlari jarayonida ham erk, ma'naviy, insoniy qiyofa, orzu-umidlar kabi masalalar atrofidagi qarashlarini ifodalaydi. Masalan, Itenning "Men turibmanu uyimga qarayapman. Oldingi zamonlarda qurishni bilganlar"so'zlarida imoratsozlik sohasining muammosiga tanqidiy daxl qilayotgani ma'lum bo'ladi. Oldingi zamonlarda qurilgan imoratlarining ancha sifatligi, puxtaligi ta'kidlanayotganligi ma'lum. Keyingi musobaqa asosida shiddat bilan bunyod etilayotgan

imoratlarning esa ancha-muncha sifatsizligini kinoyaviy tarzda aytayotganligini anglash mumkin. Taraqqiyot, sarmoya yuksalgani sari, odamlarda ochko'zlik, oz mehnat bilan ko'p narsaga erishish istagi, balki, nafs ovoraligi oshib boraverishi kabi ijtimoiy muammo adib diqqat markazida turganligini sezish mumkin.

Jon Steynbek yoshlar, jumladan, farzandlar ma'naviyatida o'z yurtini, o'z tug'ilib o'sgan go'shasini sevish ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratish muhimligini hech qachon unutmaydi.

Jon Steynbek maishiy hayot, oila, yoshlar xarakteri kabi masalalar talqini bilan bog'liq masalalarni ham muhim sosial-ijtimoiy muammolar tizimida olg'a suradigan yozuvchi.

“G'am-tashvishlarimiz” qanchalik jiddiy sosial yoki falsafiy roman bo'lmasin, baribir uning tarkibida oilaviy saodat, er-xotinning o'zaro mehrlil munosabatlari tasviri ham etakchilik qilib, asarning hayotbaxshlik harakatini ta'minlagan:“

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyo adabiyotida romannavis adiblar, adabiyotshunoslar roman janri rivoji, uning yangilana borishi, jamiyatdagi ahamiyati to'g'risida ko'plab baxs-munozaralar qilib qoladilar. Masalan, 1963 yili Angliyaning “Buks end bukmen” jurnali uyushtirgan “Roman va kelajak” mavzusidagi adabiy munozarada qatnashchilardan biri – ingliz adabiyot tanqidchisi Filipp Toynbi qayd qilgan edi: “Men munozara qatnashchilarining ayrimlari olg'a surgan roman janri o'z umrini tugata boradi, degan fikrga qo'shilmayman. Mening ishonishimcha, romanga, ayniqsa, hayot va insonga xos jiddiy ijtimoiy muammolarni keng masshtabda talqin etadigan sosial romanlar tipiga hamisha qiziqish va intilish orta boradi. Muhim tomoni shundaki, romanlarda sosial-ijtimoiy pafos maroqli ravishda ma'naviy, oilaviy masalalar bilan lirik ijtimoiy tusda tugatib ketishi kerak. Bu xildagi romanlar kelajagi hamisha porloq bo'lishiga ishonish kerak[2].”

“San'atning o'zagi, san'at saltanatining asosi”[3] bo'lgan pafosning kundalik oilaviy-maishiy hayot bilan uyg'unlikdagi talqinlari “G'am-tashvishlarimiz” romaniga xos xususiyatlardan biri hamdir. YOzuvchi siyosiy majoralarsiz, ijtimoiy taloto'plarsiz ham sosial masalalar talqiniga erisha olgan. Aslidayam har qanday sosial-ijtimoiy muammolar oila, yashash kundalik turmush bag'ridan unadi.

Yozuvchi “faqat haqiqiy narsalan go'zaldir”[4] degan mashhur aqidaga ergashib, qahramon ichki “men”ini taftish qiladi. “Bu tong men nafaqat eshitishni istamasdim. Men bu vazifadan xalos bo'lishni istardim. Balki men o'zim gaplashish istagini his qilardimu, aytadigan narsaning o'zi yo'q edi – unga ham tan berish kerak: u ham ko'pincha meni eshitmaydi, Xudoga shukur. U mening ovozinga quloq soladi va ohangimga qarab men o'zimni qanday his qilayotganim, kayfiyatim qandayligi, charchagan-charchamaganim, xursandmanmi-yo'qligini aniqlashga harakat qiladi”[5].

Tahlil va natijalar. Yozuvchi bunday mayda adabiy detallar orqali oilaviy g'am-tashvishlar majmuaning qirralarini talqin etish orqali erksizlik, qo'li kaltalik, iqtisodiy nochorlik kishilarning sabr kosasini to'ldira borishini tahlil qiladi.

Jon Steynbek diqqat markazidagi muhim masalalardan, ma'naviy-axloqiy niyatlardan biri – bu oqila ayol sabr-toqati qiyinchilik va etishmovchiliklardan balandda bo'lishi bilan bog'liq. Bu masala ham yana uning eri Iten mulohazalari, o'ylovlari tarkibida namoyon bo'ladi:

Romanda yozuvchi Meri kabi farishtasifat oqila ayol va shunga o'xshash odob-ikromi namunali ayollarga qarama-qarshilikda ayrim bir engiltak, erkaklarni chuv tushirib, o'ziga rom qilib oluvchi buzuq ayollar timsolini ham yaratgan. Masalan, shulardan biri Mardji Yan-Xant degan tashqi ko'rinishi, kiyinishi ancha jozibali xonim. U o'zini aql-

farosatli qilib ko'rsata oladigan, shu aqlini erkak zotini o'ziga rom qilish uchun makr san'atini puxta egallagan hiylakor ayol:

Romanda katta mansabdorlar ayollarning o'ziga bino qo'yan nopsand qilg'iliklari bilan bog'liq voqe'liklar ham mavjud bo'lib, buyam Meri kabi oqila ayol ma'naviyatining ibratlarini yanada yorqin ifodalash maqsadiga bo'ysundirilgan. Bu, masalan, bir o'rinda sinchikov missis Beyker xonim hikoyasi shaklida talqin etilgan:

Yozuvchi bunday “hikoya” usulidan bejiz foydalanmagan. Avvalo, missis Beykerning o'sha satang general ayollarni davrada ko'rib, qiliqlariga

shaxsan guvoh bo'lgani bois talqin ancha ishonchli va ta'sirchan chiqqan. Boyonlar davrasida choy, kofening pisand qilinmasligi, balki, bosh aylantirar viskinging afzal ko'rinishi u muhitning nechog'li nomuvofiqligining ko'rinishidir.

Yozuvchi bu xarakterli hodisa orqali ma'naviy kar'erga har qanday etar-etishmovchilik hukmron muhitdan baland bo'lishini, aslida ma'naviy hayot shunday oddiylik bag'rida nash'u namo topishini ta'kidlaydi. Boylikni qaerga qo'yishini bilmaydigan oilaviy davralarda o'z yurtini Allende odmi oila farzandi sevgan kabi sevishi dargumonligi o'z-o'zidan ayondir. Demak, tug'ilgan yurti boyligini, bema'ni maishiy shart-sharoiti, milliard-milliard dollari uchun emas, balki uning hech narsaga alishish mumkin bo'lmagan mehri, qadri uchun jon-dildan sevishgina ma'naviy etuklik fazilati sanaladi. Beixtiyor Hadisi sharifda aytilgan “Vatanni sevmoq iymondandir” degan ilohiy fikr yodga tushadi. Abdurauif Fitrat “Vatan - sajdagohim” deb bilgan. Abdulla Oripovning qalb izhoriga ko'ra esa:

Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni,

Sababini aytgim desalar menga,

SHoirona go'zal so'zlardan oldin

Men ta'zim qilaman ona xalqimga.

Xalqim, tarix hukmi seni agarda

Mangu muzliklarga eltgay bo'lsaydi,

Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,

Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Vatanlar, Vatanlar,

Mayli, gullasin,

Bog' usin mangu'lik muzda ham, ammo

YUrtim, seni faqat boyluklaring-chun

Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo![6]

Amerika kabi sehrli diyor mavqe'ki mehnatkash, bunyodkor xalqni, izlanuvchan olimlari, Steynbek kabi dongdor ijod ahli sharofatidan yuksak rivojlangan hisoblanadi. Steynbek ijodi, uning mazkur romani ana shu ma'naviy-ijtimoiy haqiqatni tasdiqlaydi.

“G'am-tashvishlarimiz” romanining, umuman, Jon Steynbek ijodining fazilatlaridan biri - qahramonlariga xos falsafiy mushohadakorlik bilan bog'liq.

Adabiyotshunos olimi Nata'lya Leonova ta'kidlaganidek, “Jon Steynbek o'z ijod olamida etakchi mohiyatni tashkil etadigan ma'naviy-axloqiy masalalarni o'z vatani Kaliforniya odamlari va manzaralari, fermerlari yoki oddiy ishchi-xizmatchilari talqini, sosial-ijtimoiy muammolar negizida yuksak badiiy san'atkorlik bilan talqin etishni ijod uslubiga aylantirgan edi”[7]. Bunga “G'am-tashvishlarimiz” romanining g'oyaviy-poetik salmog'i ham yorqin isbot bo'la oladi.

Jon Steynbek ijodiy izlanishlariga xos fazilatlar umuminsoniy ma'naviy-axloqiy masalalar, badiiy mahoratdagi jozibasi pafos, syujet yoki kompozisiya, eng muhimi, inson erki masalalari bilan ijodiy mushtarakliklar o'zbek nasri vakillari ijodida ham e'tiborni tortadi.

Yozuvchi rahbarning kimligini, nomini, hatto, vazifasiniyam ochiq aytmaydi. U - totalitar tuzum timsoli, xalqni mute va qaram holda saqlaydigan rahbar, xolos. Anig'i, sovuqqon, ma'naviyatsiz rahbarning modeli.

Navbatda turgan ikkita xodim bu fikrga so'zsiz qo'shilganday, baravariga bosh irg'ab tasdiqlashdi.

Ta'kidlash joizki, istiqloq davrida shakllangan yangi dunyoviy o'zbek adabiyotining jasoratli navqiron ijodkorlari o'z asarlarida sobiq mustabid davr syujetlarini poetik ko'lamda ochib tashlashda ancha dadil izlanishlar olib bora boshladilar.

N.Eshonqulning 1989 yilda chop etilgan "Muolaja" hikoyasini sho'rolar tuzumiga nisbatan parodiya deb qabul qilish mumkin. Unda erkin fikrdan mahrum, itoatkor, mute kishilar yashaydigan jamiyat tasvirga olinadi.

Hikoyada stalincha zo'ravonlik siyosatining erkin fikrli kishilar boshiga solgan azob-uqubatlariga, barchani bir xil fikrlaydigan, bir qolipdagi kishilarga aylantirishni maqsad qilib olgan tuzumga nisbatan ishora seziladi. Asarda ozod dunyo orzusi bilan yashovchi bemorlarni savalash usuli davolash usullari batafsil bayon qilinadi."

Nazar Eshonqul totalitar tuzum kirdikorlarini fosh etish, istiqloq qadriga etish va uni jon-dili bilan himoya etish sari da'vatkorlik niyatlarini "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romanida yanada batafsil va poetik yuksaklik bilan talqin etdi.

Slovak romannavis adibi Branko CHopich o'z tajribasi, yozuvchilik izlanishlari va ijodkorning vazifalari bilan bog'liq holda shunday yozadi:

"Men yozuvchi sifatida o'z yurtim va xalqimning Ikkinchi Jahon urushida fashizmga qarshi mardona kurashgan va endilikda farovon hayot, tinch-osuda yashash, o'zi va jahon ahlining ham erki uchun fidokorona harakat qilayotganligini yorqin tasavvur qilaman. Albatta, men ham izlanishlarim bilan shu kurash jabhasida ma'naviy-axloqiy va estetik qarashlarim, harakatlarim bilan faol ishtirok etishimni kanda qilmayman.

Men odamlar uchun yozarkanman, va adabiyotning vazifasi har doim insonni ulug'lash, uning o'zini o'zi anglashiga ko'maklashish, kelajagiga yo'l ochib berish, yaxshi hayot va yashash ilmini o'rgatish, mardlik ruhini yuksaltirish, intellektning rivojlanishiga, axloqan shakllanishiga yordamlashishi ekanligini unutmashlik lozim".

Xulosa va takliflar. Jon Steynbek va Nazar Eshonqul kabi taniqli yozuvchilarning romanlarida, jumladan, "G'am-tashvishlarimiz", "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romanlarida olg'a surgan va chuqur badiiy tahlil qilingan inson erki va ma'naviyat masalalarining mukammal echimlari ham Branko CHopich fikrlari va vazifalariga munosibligi bilan o'ziga xos ahamiyat va mashhurlik kasb etadi.

"G'am-tashvishlarimiz" romani Steynbekning oddiy, o'rtahol oila vakillarining (Iten-Meri) kamtarona, zoriqish bilan yashashi - qanoat va o'zaro mehribonlik axloqining ulug'lanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ular atrofidagi boy-boyonlar, fohishalar, olib-sotarlar, milliardlar kar'erasi esa oddiy odamlar erki bo'g'ilishining badiiy in'ikosi taassurotini beradi. Nazar Eshonqul yaratgan "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romani boshqa muhit, boshqa odamlar timsolida haququqi cheklab qo'yilgan Sho'ro tuzumi davrida milliy ma'naviyat va qadriyat uchun kurashgan, tirik-o'lik sifatida xo'rlangan bechora yigit timsolida ko'rsatiladi. Noming to'liq emas, N. shaklida atalishi, o'zi o'lganlar qatorida sanalishi, hatto, tamoman "dafn" etilishi manzaralaridagi ramz-majoz poetikasi Sho'ro tuzumining mohiyatan dahshatli qamoqxonadan farqli bo'lmagan zulmkor davr bo'lganligining poetik talqinidir.

ADABIYOTLAR

1. Историко-литературная справка к роману "Зима тревога нашей". Стейнбек Дж. Собр. соч. в шести томах. Том 6. стр. 489.
2. Судьба романа. Сборник статей. Издательство "Прогресс", Москва – 1975 г., стр. 38-39.
3. Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: "Akademnashr", 2010. 219 б.
4. Ҳотамов Н, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т:Ўқитувчи, 1979. –116-б.
5. Стейнбек Джон. Зима тревога нашей. Роман. – Стейнбек Дж. Собрание сочинений в шести томах. Том 6. Москва, Издательство "Правда", 1989, стр.55
6. Орипов А. Сураат ва сийрат. "Ёш гвардия", Тошкент, 1981, 51-бет.
7. Леонова Н.Е. Семантика художественного пространства в произведениях Джона Стейнбека. Автореферат дисс. На соис.уч.степени канд. филол. наук. Москва-2004, стр.14.



Гўзал ЭГАМБЕРДИЕВА,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети профессори
E-mail: guzal.egamberdieva.76@mail.ru

ДПУ доценти, ф.ф.н. Ю.У.Матенова тақризи асосида

KNHOREZM EPICS WITH A FAIRY-TALE TYPE PLOT

Annotation

This article will talk about the relationship of fairy tales and epics. The tale is given a complete definition of epics with a type of plot, and these epics, appearing at the romantic stage of the development of the Epic, are rumored to have continued until traditional epics faded.

Key words: Folklore, epic, fairy tale, romantic epic, traditions, “Malikai Dilorom”, “Hurliko and Hamro”, “Shahriyar».

СКАЗОЧНО-СЮЖЕТНЫЕ ТИПЫ ХОРЕЗМСКИХ ДАСТАНОВ

Аннотация

В данной статье речь идет о взаимосвязи сказки и дастана. Дается определение сказочно-сюжетному типу дастана, и предполагается, что эти дастаны появились на этапе развития романтического дастана и продолжались пока не исчезли традиционные эпосы.

Ключевые слова: Фольклор, дастан, сказка, любовно-романтический дастан, традиции, “Маликаи Дилором”, “Хурлико и Хамро”, “Шахрияр”.

ЭРТАК ТИП СЮЖЕТЛИ ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИ

Аннотация

Ушбу мақолада эртақ ва достон муносабатлари ҳақида гап боради. Эртақ тип сюжетли достонларга тўлиқ таъриф берилди ва бу достонлар, эпос тараққийнинг романик босқичида пайдо бўлиб, анъанавий достончилик сўнгунча давом этиб келгани курилади.

Калит сўзлар: Фольклор, достон, эртақ, ишқий-романтик достон, анъаналар, “Маликаи Дилором”, “Хурлико ва Хамро”, “Шахриёр”.

Кириш. Ўзбек достончилиги ижодкорлиги ғоят қадимий ва бой бўлиб, халқ бахшлари гуруҳлари репертуарлари, поэтик приёмлари, ижро усуллари жиҳатидан бир-бирларидан фарқланганлар. Достончиларнинг ўзларига хос поэтик йўллари Х.Т.Зарифов фанда “достончилик мактаблари” деб номлагани бугун оддий мактаб ўқувчисига ҳам маълум. Улкан олимнинг бу хулосасини барча ўзбек фольклоршунослари янада юксалтирдилар, янги-янги достончилик мактабларини кашф этдилар. Бу борада Т. Мирзаевнинг “Халқ бахшларининг эпик репертуари” [7] асари айниқса муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Олим бу асарига Х. Т. Зарифовнинг достончилик ҳақидаги барча қарашларини, жумладан, Хоразм достонлари ҳақидаги кузатишлари, илмий-назарий хулосаларини янги босқичга кўтарди.

Ўзбек фольклоршунослигининг тараққийи туфайли Хоразм достоншунослиги ва эртақшунослиги соҳаси пайдо бўлди. Бу борада С.Рўзимбоев [8], Х. Абдуллаев [1], Ж. Юсупов [15] каби олимларнинг йирик тадқиқотлари юзага келди.

Мавзумиз нуқтаи назаридан қаралганда, бу ишларнинг аҳамияти уларда эртақ ва достон муносабатлари ҳақида мулоҳазалар, мотивлар қисидан келиб чиққан илмий-назарий хулосалар мавжудлиги билан белгиланади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ж. Юсупов Хоразм эртақларининг ўрганилиш тарихи, генезиси, асосий сюжет типлари, асосий қаҳрамон, эпик рақиб ва мифик образларнинг сюжет таркибида тутган поэтик ўрни, анъанавий формулаларнинг ўзига хос талқинларига бағишланган докторлик диссертацияси жиддий ишлардан

биридир. Муаллиф бу тадқиқотида Хоразм эртақларидаги этакчи мотивлар тизимини уч туркумга бўлиб, тадқиқ этгани, эртақ ва қўшиқ муносабатига махсус тўхталгани Хоразм эртақ тип сюжетли достонлари табиатини ўрганишда муҳим назарий манба бўлади.

Хоразм достончилиги бўйича бажарилган барча тадқиқотлар орасида И.Дивановнинг номзодлик иши бизнинг мавзумизга анча яқин туради. Бу диссертацияда “Хурлико ва Хамро” достони вариантлари, версиялари ва бадиияти қисий таҳлил қилинади. Ва у: “Хурлико ва Хамро достони гарчи ишқий романик турга кирса-да, унинг сюжет тизимида сеҳрли эртақ мотивлари ва мифологик образларга ҳам кенг ўрин берилган”, [4] – деган хулосага келади. Биз эса бу ўз кузатишларимиз орқали достонда «сюжет тизимида сеҳрли эртақ мотивлари ва мифологик образларга ҳам кенг ўрин берилган»и эмас, балки бу асар бевосита эртақ сюжети асосида пайдо бўлганини исботлаб беришга ҳаракат қилганмиз. Чунки булар бошқа-бошқа тушунчалардир.

Фольклоршунослигимиз тарихида бир манбанинг ўзига турлича нуқтаи назардан ёндошиш, янги-янги илмий-назарий хулосаларга келиш тажрибаси ўзини оқлаб келмоқда. Масалан, “Алпомиш” достони юзасидан қатор ишлар қилинган. Шунингдек, “Хуршидой”, “Орзукул” “Рустамхон” достонлари мисолида эртақ-достон муносабатларини ўрганиш Х. Зарифдан бошлаб М.Афзалов, Ғ. Жалолов, Б. Саримсоқов ишларигача учрайди.

Хоразм достончилигининг ўзига хос хусусиятларидан бири унинг қорақалпоқ ва туркман достончилиги, оғзаки ижоди билан жуда яқин муносабатда бўлгани, бир-бирини бойтиб келганидир. Биз

учун муҳими шундаки, Хоразм ва қорақалпоқ дostonчилиги, фольклори ҳақида сўз юритган олимлар қорақалпоқ оғзаки ижодида ҳам эртак сюжетли дostonлар мавжудлигини ўзларига хос тарзда эътироф этадилар. Шундай дostonлардан бири Шаҳриёрдир. Қ.Аимбетов [2], Ҳ.Абдуллаев бу дoston сюжети бошланишини жуда кенг тарқалган мотив билан боғлаб, А.С.Пушкиннинг “Шоҳ Султон ҳақида эртак” асарини ҳам қайд этадилар. Хусусан, Ҳ. Абдуллаев ўз диссертациясининг бир бобини «Шаҳриёр» қорақалпоқ дostonининг ўзбек версиялари “Қиронхон”, “Соҳибқирон”, “Ойпарча”, “Қорақўз оғим” дostonлари қиссига бағишлаган [1, с.34-40]. С. Рўзимбоев эса у ҳақида алоҳида мақола эълон қилган [9].

Тадқиқот методологияси. Ушбу мақолада биз эртак тип сюжетли Хоразм дostonлари мисолида эртак ва дostonлар ўртасидаги ўзаро таъсир жараёнини урганишга ҳаракат қилдик. Ва тарихий- фольклорий жараёнда жанрлараро муносабатларнинг аҳамияти ва ўзбек фольклоршунослигида эртак-дoston алоқаларининг ўрганилиши тарихини ургандик, эртак тип сюжетли дostonларга илмий таъриф бердик.

Бу изланишларимизда биз қиссий-тарихий ва типологик методларини қўлладик.

Таҳлил ва натижалар. Хоразм дostonларининг эртак сюжетлари билан узвий алоқадор бўлган ҳолда ёзма нусхалар орқали етиб келганлари анчани ташкил этади. Шулардан бери “Маликаи Дилором” дostonидир. Бу дoston ҳозирда бахшиларнинг оғзаки репертуарида сақланиб қолмаган. Халфалар ва қиссахонларда унинг ёзма нусхалари мавжуд.

Хоразм халфалари ва қиссахонлар репертуарида эртак сюжетлари етакчи бўлган дostonлар кўплаб учрайди. “Санобар”, “Маликаи Завриё”, “Ройи Чин”, “Хиромон пари” каби бир қанча дostonлар борки, уларнинг мазмуни эртак сюжетлари билан айнан бир хил тарзда намоён бўлади.

Бир мақола доирасида уларнинг барчасини ўрганиш қийин, албатта. Мазкур дostonларни эртаклар билан ўрганиш шундай ҳулосаларга олиб келадикки, улардаги сюжет аслида эртак жанрига мансуб бўлиб, кейинчалик дoston жанрига кўчган. Бунинг асосий сабабларидан бири қиссахонлик аънанасининг ривожлашини билан алоқадордир.

Биз XX аср ўзбек фольклорига эртак дoston муносабатларида икки жиҳатни равшан кўрамиз. Булардан биринчиси, дoston мазмунининг насрда эртак сифатида баён этилишидир.

Бирор дostonнинг қисқа мазмунини фақат талантили халқ бахшиси эмас, балки оғзаки ижодда бироз хабардор киши учун ҳам унчалик қийин иш эмас. Масалан, Хоразмда машҳур бўлган “Шаҳриёр” дostonининг айнан мазмуни туркман фольклорига эртак жанрига мансуб тарзда чоп этилган [13]. Албатта, ҳар иккала жанрнинг ўзига хос имкониятлари мавжуд бўлганидан дostonнинг эртак тарзда ҳикоя қилиниши воқеаларни кенг қўламда баён қилинишига ҳалақит беради. Шу сабабли “Шаҳриёр” дostonининг эртак вариантыда асар бош қаҳрамонларининг образлар хира тасвирда қолиб, асосий эътибор саройдаги фисқу-фужурларни ёритишга бўйсундирилган. Шунингдек, эртакда ҳомий кучлар, эпик от каби воқеаларни ҳаракатга келтирувчи сабаблар ҳам учрамайди.

Дostonларда у ёки бу даражада мифологик қатлам, эртак мотивларининг мавжудлигини барча фольклоршунослар эътироф этадилар. Лекин бу мотивларнинг салмоғи дostonларнинг ҳар бир туркумида ўзига хос равишда намоён бўлади. Масалан, Хоразм “Гўрўғли” туркуми дostonларида бундай мотивларнинг

ишлатилиши унчалик кўп эмас. Бироқ «Ишқий-романик дostonларда эртакларга хос фантастика, бадиий ўйдирмалар жуда кўп ишлатилади, баъзан сюжетнинг стержени композицион тузилишнинг асоси бўлиб қолади» [5, б.83]. “Ошиқ” туркумига бирлашадиган қатор дostonларда ҳам эртак мотивлари катта ўрин эгаллайди. Ишқий-романик дostonларнинг бошқа туркумлардаги дostonлардан тубдан фарқ қилувчи томони шу ердаки, уларнинг пайдо бўлишида бошқа қатламларга нисбатан эртаклар сезиларли роль ўйнаган.

Жанрлараро диффузия натижасида дostonлар таркибига айрим мотивлар, образлар, турли вазиятлар билан алоқадор эпизодлар кириб келиши табиий ҳол. Ушбу жараёнда фақат эртакгина эмас, балки миф билан боғлиқ эпизодлар ҳам дoston таркибидан ўрин олиши мумкин. Бироқ, эртакнинг бир бутун ҳолда дoston сифатида қайта ишланиши қийин ва кам учрайдиган ҳодисадир. Шундай бўлса-да, маълум бир эртаклар негизда яратилган дostonлар анчагина топилди.

Ўзбек фольклорига аънанавий дostonчилик ва эртакчилик деярлик бир даврда сўниб борди. Илмий фаразимишча, агар эртакчилик кейинроқ сўнганда, кўпгина дostonларнинг эртак вариантлари ҳам мавжуд бўларди.

Кўриниб турибдики, олимларнинг эртак ва дoston муносабатлари билан айтган мулоҳазалари, илмий-назарий қарашлари эртак тип сюжетли дostonларнинг ўзбек фольклори учун жузвий ҳодиса бўлмай, тарихий-фольклорий жараёнда жанрлараро муносабатларнинг қонуний натижаси эканлигини кўрсатади.

Бундан келиб чиқадиган ҳулоса, эртак дoston муносабаотидаги иккинчи жиҳат эртак сюжети асосида дostonларнинг яратилишидир. Агар дoston мазмунининг баён этилиши вазиятдан келиб чиққан бир ҳол бўлса, эртак тип сюжетли дostonларнинг яратилиши узок жараённинг босиб ўтган, ўзига хос аънана, яъни қонуниятга бўйсинувчи тарихий-фольклорий жараёндр.

Шу ўринда эртак тип сюжетли атамасига қисқа изоҳ бериб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

Биз эртак тип сюжетли деганимишда, асосида эртак сюжети, уни юзага чиқарувчи мотивлар, образлари етакчи бўлган дostonларни назарда тутамиз. Бу тип дostonларни шартли равишда, эпик қўламдан айириб, эртак усулида баён қилсак, эртакдан ҳеч бир фарқи қолмайди. Мисол учун М.Шайхзода “Ширин билан Шакар” дostonи ҳақида сўз юритар экан, дастлаб шунчалар катта бир асар воқеаларини атиги бир саҳифада қисқагина баён қилади [14]. Агар бу баён эртаклар зачини, воқеалар ривожини, тугалланмасига хос аънанавий формулалар билан тўлдириб чиқилса, сеҳрли-фантастик эртакнинг типик намунаси пайдо бўлади. Гарчи М.Шайхзода ўз баёнини “дoston сюжети шундан иборат”, деса-да, бу баён сюжет эмас, балки сюжет чизиклари, яъни схемасидан иборатдир. Шунингдек, асарнинг ўзбек ва қорақалпоқ версияларини маҳсус тадқиқ қилган Н. Мадраҳимова: “ушбу дoston сюжети серқатлам бўлиб, унда мифологик эпос ва эртак мотивлари мавжуд”лигини эътироф этади [6]. Аммо бу халқ оғзаки ижодида истаган киши дostonни эртак қилиб айтиши, ёки талантили бахшилар ўзи истаган эртак сюжетини оддийгина шеърий ва насрий баёнга кўчириш, ёки ҳажмини кўпайтириш билан дostonга айлантириши мумкин дегани эмас.

Яхлит поэтик тизим сифатидаги фольклор аънаналари халқ учун ўзига хос қонун-қоидалар мажмуасидан иборат бўлиб, уларга асрлар бўйи маросим фольклори доирасида бўлгани каби номаросим фольклори жанрларида ҳам қаътий амал қилиб келинган. Шу сабабли кишилар дostonларни ўзлари билганича эртак қилиб айтаверишмаганидай, талантили халқ бахшилари ҳам,

гарчи бунинг учун ижодий салоҳиятлари старли бўлса-да, эртакларни механик равишда дostonга айлантормаганлар. Бироқ, масаланинг иккинчи томони бу – жанрлараро муносабат, уларнинг бир-бирини бойитиши ҳам мавжуд бўлиб, бу ҳодиса ҳам оғзаки ижод аънавалари доирасида кечган.

Олимларнинг фикрларидан кўриниб турибдики, ўзбек фольклорига эртак сюжетига асосланган дostonлар бир эмас, икки эмас, балки вариантлари билан ўнлаб миқдордан ошиб кетади. Ана шунинг ўзиёқ уларнинг жузъий эмас, типик ҳодиса эканлигини кўрсатади.

Юқорида айтилган мулоҳазаларга асосланиб, эртак тип сюжетли дostonларга шундай тўлиқроқ таъриф бериш мумкин: Генезисига кўра сюжети асосида эртаклар сюжети, мотивлари, образлари, бадий тасвир унсурлари етакчи бўлган, аммо дostonчилик аънавалари доирасида қайта поэтик идрок этилган асарларга эртак тип сюжетли дostonлар дейилади.

Модомики, эртак тип сюжетли дostonлар мавжуд деган фикрни айтар эканмиз, улар қачон пайдо бўлган, деган табиий савол туғилади.

Маълумки, фольклоршунослик фанида қахрамонлик эпосининг архаик типи мифологик эпос (Б.Н. Путилов), давлатгача эпос (В.Я. Пропп), қахрамонлик эртаги (В.М.Жирмунский), қахрамонлик поэмаси (Е.М.Мелетинский) каби турлича юритилади [3]. Бу атамалардан кўриниб турибдики, архаик эпос таркибида, улар мифдан ўзлашганми, афсонаданми ёки қадимий йиғиларданми, эртак элементлари бўлган.

Фольклоршунос Б. Саримсоқов В.М. Жирмунскийнинг қахрамонлик эпосларининг тарихий асосларини баҳодирлик эртагига боғлаш ҳақидаги назариясига қарши чиқар экан, шундай деб ёзди: «ўзбек халқ эпоси ҳам кўпгина халқлар эпослари босиб ўтган учта тараққиёт босқичларини босиб ўтиб, бизгача етиб келди. Биринчи босқичда – қахрамонлик, иккинчи босқичда – романик, учинчи босқичда эса тарихий эпослар юзага келди» [12].

Бизнингча, эртак тип сюжетли дostonлар, эпос тараққиётининг романик босқичида пайдо бўлиб, аънаванинг дostonчилиги сўнгунча давом этиб келди ва улар барчаси романик дostonлар туркумига мансубдир.

Хулоса ва таклифлар. Бизнинг кузатишларимиз Хоразм регионига оғзаки ва халқ китоблари шаклида кенг

тарқалган “Маликаи Дилором”, “Санобар”, “Хурлиқо ва Ҳамро” дostonлари, “Шахриёр” дostonининг ўзбекча версиялари эртак тип сюжетли асарлар эканлигини кўрсатади.

Ўзбек фольклорига эртак ва дoston муносабатларининг мураккаб алоқасида икки жиҳат: дostonларнинг эртак сифатида айтилиши ва эртак сюжети асосида яратилган дostonлар алоҳида ажралиб туради.

Фольклоршунослигимизда жанрлараро муносабат, хусусан эртак-дoston муаммоларига ҳам илк бор Х.Т. Зарифов қўл уриб, бу масала М. Афзалов, К.Имомов, Т.Мирзаев, Б. Саримсоқов, С. Шодиева, Ғ.Жалолов, Х. Эгамов, С.Рўзимбоев, Ж. Юсупов тадқиқотларида маълум даражада ўз ифодасини топган.

Бизгача етиб келган ўзбек дostonлари орасида эртак мотивлари учрамаган бирорта ҳам қахрамонлик ёки романик дoston йўқ. Бу мотивларнинг асар сюжетини яратишдаги иштироки даражасига қараб, эртак тип сюжетли дostonларни илмий жиҳатдан алоҳида бир гуруҳга ажратиш мумкин. Генезисига кўра, сюжети асосида эртаклар сюжети, мотивлари, образлари, бадий тасвир воситалари етакчи бўлган ва дostonчилик аънавалари доирасида қайта поэтик идрок этилган дostonлар эртак тип сюжетли дostonлардир ва улар эпоснинг романик босқичида пайдо бўлган.

Кузатишларимиз яна шуни кўрсатадики, ўзбек фольклорига эртак тип сюжетли дostonлар унча кўп тарқалмаган, балки бизгача жуда кам қисми етиб келгандир. Агар Ўзбекистоннинг бошқа дostonчилик мактабларидаги “Хуршидой”, “Орзиғул”, “Зевархон” каби эртак тип сюжетли дostonларнинг баъзилари биргина, баъзилари ўнлаб оғзаки вариантларига эга бўлсалар, Хоразм дostonчилигидаги “Хурлиқо ва Ҳамро”, “Маликаи Дилором”, “Санобар”, “Шахриёр” каби асарларнинг оғзаки, қўлёзма ва халқ китоби вариантлари кўп тарқалган.

Бизнингча, гарчи эпик аънава доирасида бўлса-да, эртак тип сюжетли дostonларнинг пайдо бўлишида халқ бахшиларининг индивидуал улушлари кўп бўлган. Бундай тип дostonларнинг Хоразмда пайдо бўлиши Ўзбекистоннинг бошқа жойларига нисбатан анча илгари кечгани учун бу ерда улар оғзаки, қўлёзма, китобий вариантлар сифатида ривожланган.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдуллаев Х.Дж. Взаимосвязи и типологические особенности узбекских и каракалпакских народных дастанов. – С. 34-40.
2. Аимбетов К. Каракалпакские народные сказители. АДД. – Т.: 1965. – С. 22
3. Бакиров М. Генезис и древнейшие формы общетюркской поэзии. АДД. – Казань, 1999. – С. 37.
4. Диванова И. “Хурлиқо ва Ҳамро” дostonи вариантларининг қиёсий таҳлили ва бадиияти. НДА. – Т.: 1999. – 25 б.
5. Жалолов Ғ. Ўзбек фольклорига жанрлараро муносабат. – Тошкент.: Фан, 1979, 83-бет
6. Мадрахимова Н.Я. “Ширин билан Шакар” дostonининг қиёсий таҳлили. НДА. – Т.: 1996. – Б. 12.
7. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. –Т.: “ФАН”, 1979.
8. Рўзимбоев С. “Ошиқ” туркуми дostonларининг ғоявий – бадий хусусиятлари. Т.: ТДПИ, 1987.
9. Рўзимбоев С. Узбекские варианты дастана “Шахриёр” // Вестник КК ФАН УзССР. - 1983. - №2.
10. Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари. – Т. : “Фан”, 1985;
11. Рўзимбоев С. Хоразм дostonларининг спецификаси, типологияси ва поэтикаси. (докторлик диссертацияси), Т., 1990.
12. Саримсоқов Б. “Алпомиш” эпоси ҳақида уч этюд// “Алпомиш” – ўзбек халқ қахрамонлик эпоси. –Б.118.
13. Туркмен халқ эртекилери. – Ашгабат, Ылым, 1979, 40-бет.
14. Шайхзода Мақсудю “Ширин билан Шакар” ҳақида// Фозил шоир. – Т.: “Фан”,1973. – Б. 30-31.
15. Юсупов Ж. Хоразм эртакларининг генезиси, асосий хусусиятлари ва поэтикаси. ДДА – Т., 1999.



Sohiba ELMURODOVA,
Qarshi davlat universitet o'qituvchisi
Email: sohibasaidmurod8@gmail.com

QDU dotsenti N.Suyarova taqrizi asosida

HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA TEONIMLARNI O'RGANISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Annotatsiya

Hozirgi kunga kelib, din ijtimoiy hayotning muhim omiliga aylandi. Din yetakchi mafkura hisoblangan davlatlar ham talaygina. Ko'plab mamlakatlar tilshunoslik sohasida ham bu yo'nalishga katta e'tibor qaratilgan. Shunga ko'ra, diniy leksikani o'rganish dolzarb masalalardan biridir. O'zbek tilshunosligida leksik va tematik guruhlar tadqiqi bo'yicha ko'plar ishlar qilingan: qarindoshlik atamaları, harakat fe'llari, rang-sifat atamaları, bino nomlarining turlari va boshqalar. Lekin oliy zot va uning atrofida qo'llaniluvchi boshqa nomlar deyarli hali o'rganilmagan. Teonimik leksikani o'rganish faqat lingvistik va filologiya uchun emas, balki tarix, falsafa, va dinshunoslik uchun ham xosdir.

Kalit so'zlar: Teonim, onomastika, mifologik, sinonim, diniy lug'at, diniy leksika, azizlarning ismlari, islomiy teonimlar.

DIFFICULTIES IN STUDYING THEONYMS IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

Nowadays, religion has become an important factor in social life. There are many countries where religion is the leading ideology. Many countries pay great attention to this direction in the field of linguistics. Accordingly, studying the religious lexicon is one of the urgent issues. In Uzbek linguistics, a lot of work has been done on the study of lexical and thematic groups: kinship terms, action verbs, color-adjective terms, types of building names, etc. But the supreme being and other names used around him have not been studied yet. Studying the theonymic lexicon is characteristic not only for linguistics and philology, but also for history, philosophy, and religious studies.

Key words: Theonym, onomastics, mythological, synonym, religious dictionary, religious lexicon, names of saints, Islamic theonyms.

СЛОЖНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОНИМОВ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В настоящее время религия стала важным фактором общественной жизни. Есть много стран, где религия является ведущей идеологией. Во многих странах этому направлению в области языкознания уделяется большое внимание. Соответственно, изучение религиозной лексики является одним из актуальных вопросов. В узбекском языкознании проделана большая работа по изучению лексико-тематических групп: терминов родства, глаголов действия, цвето-прилагательных терминов, видов строительств названий и др. Но верховное существо и другие имена, используемые вокруг него, еще не изучены. Изучение теонимической лексики характерно не только для языкознания и филологии, но и для истории, философии, религиоведения.

Ключевые слова: Теоним, ономастика, мифологический, синоним, религиозный словарь, религиозная лексика, имена святых, исламские теонимы

Kirish. XX asrning 60-70-yillarida o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan: eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, stilistika (uslubshunoslik), nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar. O'zbek onomastikasi ham o'sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri sanaladi.

O'zbek onomastikasining bir qismi hisoblangan teonimlar o'ziga xos ismlar nazariyasi doirasida o'rganiladigan lug'at turkumidir. "Teonim" (yunoncha teog - xudo (Olloh) + onoma - atoqli ot) - Ollohning nomi va atributlarining atoqli oti degan ma'noni bildiradi, ya'ni u Oliy Zotning nomlarini va u bilan bog'liq bo'lgan ilohiy belgilarning nomlarini o'rganadi. Semantik jihatdan ahamiyatli, madaniy asosli belgilardan biri sifatida teonimlar tadqiqotchilarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda, chunki u boshqa mifologik nomlar singari, ularning tabiiy tasviridan tashqariga chiqadigan ob'yektlar, hodisalar va hodisalarga murojaat qiladi. Teonimning umumiy ta'rifi arxaik, mifologik ong va dunyoning hali oz o'rganilgan diniy tasviri tilida aks ettirishni nazarda tutadi. To'g'ri nomlarning

ushbu sinfining murakkabligi uning chegaralari harakatchanligi va har doim ham aniq grammatik mezonlar bilan belgilanmaganligi bilan bog'liq (haqiqiy mifologik makonda bu chegaralar amalda yo'qoladi). Ushbu tadqiqotning jihatini tanlash ko'p jihatdan to'g'ri nomning maqomini aniqlashda ekstralingvistik kontekst va o'rnatilgan madaniy an'analarning alohida rol o'ynashi bilan bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Teonimlar tildagi juda qadimiy lug'aviy birliklar bo'lib, ularning paydo bo'lish davrlari insoniyatning o'ta ko'hna dunyodagi diniy qarashlari, animizm, totemizm, tabu, evfemizm singari tasavvurlari bilan bog'liqdir. Teonimlarning paydo bo'lishi ko'p xudolilik va bir xudolilik davrlarini o'z boshidan kechirgan.

O'lkamizda dinshunoslikka oid ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlari cheklangan XX asrning o'rtalarida ham G'arbda bu sohada izchil tadqiqotlar olib borildi. Dinning jamiyatdagi vazifalariga ko'ra ijtimoiy, psixologik, falsafiy yondashuvlar asosida tadqiq etildi. Buning uchun dunyodagi dinlarni tarix va etnografiya kabi fanlarning oxirgi yutuqlaridan foydalanib xolis o'rganishga e'tibor qaratildi. Tadqiqot natijalari yirik asar, monografiya, kichik risola, maqola va ensiklopedik xarakterdagi nashrlarda jamlandi.

Turkiy teonimlar, ayniqsa uning o'ta ko'hna davrlardagi tarixi haqida G.P.Snesaryov, O.A.Suxareva, N.Direnkova, M.V.Stebleva, T.D.Bayaliev, N.F.Mokshin kabi olimlarning ishlarida uchraydigan ma'lumotlar qimmatlidir. Masalan, G.P.Snesaryovning maqolasida Araviya qabilalarining qadimiy ilohlari al-Lot, al-Uzzo, Manot; Yaman ilohlari Vadd, Suva'; ko'hna tarixga mansub bo'lgan Ramuza, Axraman, Axura-Mazda, shuningdek mifik tasavvurlar bilan aloqador ajdarho, dev (devoh), pari, jinlar, ularning genezisi, etimologiyasi haqida fikr yuritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Muayyan din qaysi xalq orasida ko'proq tarqalgan bo'lsa, o'sha dinga oid istilohlar asosan shu xalq tilida shakllangan bo'ladi. Shuning uchun muayyan dinni chuqurroq o'rganish uchun shu din birinchi bor shakllangan tilni o'rganishning ahamiyati katta hisoblanadi. Masalan, Veda dinlari bilan bog'liq tushunchalarni bilish uchun sanskrit, yahudiylilik uchun ivrit, islom dini uchun arab tilini o'rganish lozim bo'ladi. Ammo bir dinni bir millat tili bilan mutlaq bog'lab qo'yish ham to'g'ri bo'lmaydi. Chunki dunyo xalqlari orasida turli dinlar tarqalgan bo'lsa-da, diniy tushunchalar orasida muayyan darajada mushtaraklik mavjud. Masalan, imon, e'tiqod, savob, gunoh, jannat, do'zax kabi tushunchalar deyarli dunyo dinlarining barchasida uchraydi. Lekin shunday bo'lsa-da, bu so'zlar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda har doim ham aynan bir so'z bilan ifodalashning imkonini bo'lavermaydi. Bu holda chet tilidagi so'z termin sifatida boshqa tilga shundayligicha olinadi. Chunki diniy istilohlar ko'pincha atoqli ot darajasini egallaydi. Masalan, xristianlikdagi Isoning shogirdlari hisoblangan "apostollar"ni yunon tilidan o'zbekchaga islomdagi Rasululloh atrofidagi musulmonlarga qiyos qilib "sahobalar" deb tarjima qilish to'g'ri bo'lmaydi. Bu so'z dinshunoslikka oid manbalarda "havoriylar" deb atalishi qabul qilingan.

Tahlil va natijalar. Teonimlarning o'zbek onomastikasining alohida bo'limi sifatidagi ahamiyatiga qaramay, boshqa turdagi xos nomlardan farqli o'laroq, u zamonaviy tadqiqotchi uchun alohida qiyinchilik tug'diradi. Teonimlarning onomatik jihatdan yetarlicha izohlanmaganligi, birinchi navbatda, ularning ko'pchiligining eng qadimgi leksik qatlamlarga mansubligi, qolaversa, ko'pincha qo'llanish muhitida ehtiyotkorlik bilan ishlatish, shuningdek, ularni o'rganishda zamonaviy ilmiy-falsafiy tushunchalardan emas, balki bu onimik tipning paydo bo'lgan davrida o'ynagan roldan kelib chiqib, o'sha davr odamlarining dunyoqarashini, dunyoning diniy manzarasini qayta qurishni taqozo etadi.

Nutqimizda keng qo'llaniladigan avliyulloh, avliyo, valiy kabi so'zlar nafaqat din vakillari yoki diniy ma'lumotga ega insonlar, balki diniy tushunchasi kam yoki o'zga din egalarga ham o'z bo'lsa-da tanish bo'ladi. Shuningdek, bu so'zlar ma'no jihatdan ham bir-biriga juda yaqindir. Xususan, "avliyulloh" – "Xudoga yaqin kishilar" bo'lsa, "avliyo" – "valilar, e'tiqodli, dindor kishilar; aziz, muqaddas, olohgga yaqin kishilar; ruhoniylar" ma'nolarida avliyulloh so'ziga to'liq sinonim bo'la oladi. "Valiy" so'zi esa "Xudoning go'yo bo'lajak hodisa, voqealarni oldindan aytish, g'oyibdan xabar berish qobiliyatiga ega bo'lgan eng sevimli, eng aziz bandasi" ma'nosida ulardan ozroq uzoqlashsada, "avliyo" ma'nosida ularga to'liq sinonim bo'la oladi.

Bundan tashqari, buzruk va buzrukvor so'zlari ham "ulug', buyuk, ulkan hurmatga loyiq, muhtaram" kabi umumiy ma'nolaridan chetlashib, diniy ma'no kasb etib, "aziz avliyo; mulla" tushunchalarida nutqimizda qo'llanilishini ko'pchilik insonlar bilmasligi mumkin.

O'zbek tilshunosligida g'ilmon, g'oziy, havoriy, buroq kabi shunday diniy so'zlar borki, bu so'zlarning haqiqiy ma'nosini kundalik hayotda anglamasligi mumkin. Masalan, buroq teonimi "Me'roj kechasi Muhammad payg'ambarning Quddusga borishi va u yerdan osmonga ko'tarilishi uchun

xudo tomonidan yuborilgan qanotli ot" ma'nosida qo'llanilishini biz har doim ham bilavermaymiz.

Teonimlarni yana bir o'rganishimiz kerak bo'lgan va chalkashlik tug'dirishi mumkin bo'lgan jihati, bu ulardagi ko'p ma'nolilik mavjudligi va ko'chma ma'noda ham qo'llanilishidir. Xususan, "shaytoni lain" teonim sifatida "la'natlangan, Xudoning dargohidan quvilgan" ma'nosini anglatsa, ko'chma ma'noda esa o'ta-ketgan firibgar, hiylagar, qallob sifatida badiiy adabiyotimizda ham uchratishimiz mumkin. "Lot" atamasi "manot" atamasi bilan teonim sifatida

"qadimgi arablar islomdan ilgari sig'ingan sanam – ma'budalardan biri" ma'nosida to'liq sinonim bo'lsa, diniy mazmun kasb etmagan, hayotimizda qo'llaydigan yana boshqa ma'nolarida har ikki so'z bir-biriga umuman m'nodosh bo'lmaydi: "lot" so'zi "kemadan turib, suvning chuqurligini o'lchaydigan asbob, "manot" esa og'zaki nutqda qo'llanadigan shevaga oid so'z hisoblanib, "so'm (pul birligi)" ma'nolarini anglatadi.

Teonimlarni o'rganishdagi yana bir jihat shundaki, ayrim teonimlarning bir-biriga zid ma'nodoshlarining mavjudligidir. "Imonli (imoni bor, xudoga, dinga ishonuvchi; e'tiqodli, xudojo'y kishi)" va "imonsiz" (Xudoga ishonch-e'tiqodi yo'q, xudodan, dindan qaytgan; dahriy) so'zlari diniy ma'no kasb etganda qarama-qarshi tushunchalarni aks ettiradi. Madaniy va lingvistik belgi vazifasini bajaradigan boshqa to'g'ri nomlar qatorida xudolarning nomlari ham hisobga olinadi. Teonimlar - "xudolarning o'ziga xos ismlari". To'g'ri nomlar nominativ funktsiya va ularning nomlangan narsa bilan munosabati bilan tugaydigan ma'noga ega. Matnlardagi pretsedent nomlarning ishlashini o'rganish til orqali madaniyatni o'rganish imkonini beradi, bu esa pirovardida tilni lingvistik belgilar tizimi sifatida har tomonlama tavsiflash imkonini beradi. Teonim matn semantikasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, hatto u hikoyaning foni bo'lib xizmat qilgan hollarda ham. Ba'zi hollarda Bibliyadagi bo'lim va qismlarni o'zbek tiliga Qur'onga qiyos qilib to'g'ridan-to'g'ri «sura» yoki «oyat» tarzida tarjima qilish hollari uchraydi. Bu ham ilmiylik nuqtai nazaridan to'g'ri emas. Chunki bu kabi istilohlar kelib chiqishining o'ziga yarasha tarixi va sabablari, uning ostida yotuvchi ma'nolari mavjud. Shunday ekan, o'zbek tilida mukammal darajadagi teonimik lug'atni yaratish asosiy muammolardan biridir.

Leksik va tematik guruhlar tadqiqi umumiy va xususan, o'zbek tilshunosligida ham yangi yo'nalish emas. Bu sohada ko'pgina ishlar qilingan: qarindoshlik atamalari, harakat fe'llari, rang-sifat atamalari, bino nomlarining turlari va boshqalar. Lekin oliy zot va uning atrofida qo'llaniluvchi boshqa nomlar deyarli hali o'rganilmagan. Teonimik leksikani o'rganish faqat lingvistika va filologiya uchun emas, balki tarix, falsafa, va dinshunoslik uchun ham xosdir.

Teonimik lug'atni o'rganishdagi dastlabki muammolardan biri uning leksik va tematik guruhga tegishli to'liq va mukammal so'zlar ro'yxatini tuzishdir. God, Lord, Almighty, the Creator kabi keng qo'llaniluvchi diniy so'zlar diniy lug'atda bir-biridan ozroq farq qiluvchi takrorlanmas shaxs ma'nosini anglatuvchi so'zlar bo'lib hisoblansa, ularning O.N. Laguta tomonidan Pervoprogrammist leksemasining ekvivalentlari sifatida leksikografiyaga kiritilishi muammoning echimini murakkablashtiradi, ya'ni bir so'zning tarjimalarda turli ko'rinishlarda mavjud bo'lishi tadqiq etilishi kerak bo'lgan yo'nalishlardan biridir.

Diniy lug'at boshqa tillar diniy leksikasi bilan bog'liqlikda yashaydi va rivojlanadi, agar har ikkala tilda gaplashuvchilar ham bir xil dinda bo'lsalar. Bundan tashqari, ular kelib chiqishining muhim belgilaridan biri boshqa tillardan olingan o'zlashma so'zlardir. Masalan, Church Slavonic va Almighty grek tilidagi Παντοκράτορ (πάντα - "all – barcha", κράτεω - "have the power to rule, reign –

boshqarish kuchiga ega bo'lmoq") so'zining nusxalari hisoblanib, lotin tilidan manba tildagi haqiqiy ma'noni to'liqligicha saqlab qolgan holda o'zlashgan so'zlardir. Diniy lug'atni o'rganish izlanuvchidan shunday tillardagi ma'lumotlarni ham talab qiladi. Aytib o'tish kerakki, diniy leksikani ko'zdan kechirayotganda donor tildagi bir so'z qabul qilayotgan tildagi bir so'zga har doim ham teng kelavermaydi. Misol uchun, grek tilidagi uchta Ποησας, Ποητης, Κτισας so'zlari ingliz tilidagi bitta leksik birlikka mos keladi: Savior. Yoki boshqa bir teskari holat: lotincha Pater inglizcha ikkita so'zga to'g'ri keladi: Father and Begetter.

Xulosa va takliflar. Men tadqiqotlarim mobaynida o'zbek tilidagi teonimik leksemalarni izohli va ensiklopedik lug'atlar orqali o'rganib chiqdim. Ayni kunga qadar ingliz tilini o'rgatuvchi so'zlashgich, qo'llanma, lug'at kabi adabiyotlar ko'plab chop etilgan. Mavjud inglizcha-o'zbekcha lug'atlar, darsliklar asosan, umumiy va ensiklopedik shaklda yoki biror sohaga bag'ishlab yaratilgan. Ammo ular orasida dinshunoslik yo'nalishi uchun maxsus tuzilganlari uchramaydi. Mazkur sohada o'qish, o'rganish, izlanish olib borishga kirishgan o'quvchi, talaba yoki tadqiqotchi ingliz tilidagi ma'lumotdan foydalanish uchun umumiy lug'atdan foydalanadi. Lekin boshqa sohada bir ma'noni anglatgan so'z dinshunoslik terminologiyasida umuman boshqa ma'noni berishi mumkin. Bu so'z barcha yirik lug'atlarda keltiriladi, ammo aynan qachon, qaysi holatda va qanday so'zlar tarkibida

kelganda "post, ro'za tutish" ma'nolarini anglatishini maxsus lug'at yordamidagina bilish mumkin. Buning uchun lug'atda asl manbadan olingan misollarning keltirilishi ma'noni yanada yaqqolroq anglashga yordam beradi.

"Teonim" va "din" umumiy tushunchasi bilan bog'liq leksemalar sig'inish ob'ektlari (Qur'on), musulmonlar uchun ibodat joylari (masjid, minora), diniy marosim (ibodat) kabi umumiy guruhlar bilan birgalikda musulmon mifologiyasidan (shayton), azizlarning ismlari (Abbos ibn Abdulmuttalib, Hoshim ibn Utba), islomdagi teonimlar (Alloh, Olloh, Haq), Xudo va odamlar o'rtasidagi vositachi (Muhammad), diniy ibodat vazirlari (mulla, murid) nomlari kabi katta lug'at bazasini yaratadi. Teonimik belgining murakkabligi teonimlarni aniqlash muammosida, tegishli nomlar sinflari va umumiy otlar orasidagi chegaraning harakatchanligida ham namoyon bo'ladi. Umuman olganda, o'ziga xos ismlarda bo'lgani kabi, Xudoning turli nominatsiyalar, agar ular mo'minning ongida mustahkamlangan bo'lsa, teonim sifatida qabul qilinadi. So'zning ko'plik shakllarining yo'qligi bilan bir qatorda teonim rolidagi turg'unlik belgilaridan biri uning qo'llanish chastotasidir.

Teonimlarni ajratib ko'rsatishda ba'zi rasmiy xususiyatlarni ham hisobga olish mumkin: masalan, teonimning bosh harf bilan yozilishini belgilaydigan imlo qoidasi. Alohida orfoepik va morfologik rudimentlar ham teonimlarga ishora qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. A. Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, T.2006.
2. Islom ensiklopediya. Zuhridin Husniddinov tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, T.2004.
3. Mohammad Sadik Quran translation in Uzbek and English languages –T.: Fan. 2004. P. 32.
4. Begmatov E. Onomastika Uzbekistana. T., "O'qituvchi", 1987.
5. Toponimika va onomastika. Nukus. 2012.
6. ati. Besh jildli. A. Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, T.2006.
7. Islom ensiklopediya. Zuhridin Husniddinov tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, T.2004.
8. Mohammad Sadik Quran translation in Uzbek and English languages –T.: Fan. 2004. P. 32.
9. Begmatov E. Onomastika Uzbekistana. T., "O'qituvchi", 1987.
10. Toponimika va onomastika. Nukus. 2012.



E'tibor YAXSHIYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: etiboryaxshiyeva@gmail.com

O'zMU dotsenti I.Usarov taqrizi asosida

OF THE PEDAGOGICAL TERMINOLOGY OF THE UZBEK LANGUAGE DESCRIPTION OF NEOTERMINES

Abstract

In this article opinions are expressed about special units- neoterms, which represent some new concepts of pedagogical terminology in today's Uzbek pedagogy. It is also mentioned that some terminological units that are inextricably linked with the education process and field concepts should be evaluated and described as neoterms from the point of view of linguistics.

Key words: Neology, neologism, neonym, neonomination, neographism, neosemanticism, neoterm, facilitation, pedagogical facilitation, facilitator.

ОПИСАНИЕ НЕКОТОРЫХ НЕОТЕРМИНОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ УЗБЕКИСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье описываются специальные единицы – неотермы, представляющие собой некоторые новые понятия педагогической терминологии в современной узбекской педагогике. Также упоминается, что некоторые терминологические единицы, неразрывно связанные с понятиями образовательного процесса и сферы, следует оценивать и описывать как неотермины с точки зрения языкознания.

Ключевые слова: Неология, неологизм, неоним, неономинация, неографизм, неосемантизм, неотермин, фасилитация, педагогическая фасилитация, фасилитатор.

ЎЗБЕК ТИЛИ ПЕДАГОГИК ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ АЙРИМ НЕОТЕРМИНЛАРИ ТАВСИФИ

Аннотация

Ушбу мақолада педагогик терминологиянинг бугунги ўзбек педагогикасидаги айрим янги тушунчаларни ифодаловчи махсус бирликлар – неотерминлар хусусида фикр-мулоҳазалар баён қилинган. Шунингдек таълим-тарбия жараёни ва соҳа тушунчалари билан узвий алоқадорлик касб этувчи баъзи бир терминологик бирликлар тилшунослик нуктаи назаридан неотермин деб баҳоланиши ва тавсифланиши лозимлиги келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: Неология, неологизм, неоним, неономинация, неографизм, неосемантизм, неотермин, фасилитация, педагогик фасилитация, фасилитатор.

Кириш. Жамият ҳаётида содир бўлаётган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий-маърифий ўзгариш ва ислохотлар, жамиятлараро интеграция, глобаллашув, илм-фан, техника соҳаларидаги янгилик ва кашфиётлар тил лексикасига, хусусан, соҳалар терминологиясига таъсир кўрсатиб, уларнинг такомиллашувига хизмат қилмоқда. Жумладан, жамиятнинг муҳим соҳаси бўлган таълим-тарбия жараёни ҳам ушбу масала доирасидан ташқарида эмас, соҳа жараёнининг шакл ва механизмларини ўзгартиришга ҳам зарурат пайдо бўлмоқда, бу ҳолат соҳанинг терминологиясида ҳам яққол намоён бўлмоқда.

“Педагогик жараён – ўқитувчи ёки тарбиячи, ўқувчи ёки тарбияланувчи орасидаги билим бериш ва билим олиш, ўргатиш-ўрганиш, тарбиялаш майлида кечадиган муносабатлар тизими” (Зиёмухаммадов Б., 2006; 56) тарзида тавсифланган таълим-тарбия фаолияти ҳам ўзига хос тушунча ва ҳодисаларга бой. Мазкур тушунчалар билан боғлиқ махсус лексика тизимида соҳа нуктаи назаридан ҳам, лингвистика томонидан ҳам алоҳида текширилиши, ўрганилиши лозим бўлган терминологик ҳодисалар мавжуд. Ҳар қандай соҳа ва унинг терминологияси каби ўзбек тилининг педагогик терминлари тизими таркиби ҳам доимий ўзгариш, такомиллашувга эга. Бу эса соҳа терминологиясида ҳам неологизм сифатида баҳоланувчи бирликларнинг алоҳида парадигмасининг шаклланишига олиб келади. Шу ўринда янги термин тушунчаси билан боғлиқ неологизм термин,

неология ҳақида бироз тўхталиб ўтиш жоиз. Тилнинг лексик тизимидаги алоҳида ҳодиса бўлган неологизмлар тилшунослик соҳаси томонидан мунтазам равишда тадқиқ қилиб келинади. Янги лексик бирликлар – неологизмларни ўрганадиган тилшунослик соҳаси неология (Попова Т.В., 2005) термини билан номланади. Тадқиқотларда неологизм ҳодисасининг турлича номланиб келинаётгани кузатилади: термин неологизм, неоним, неономинация, неографизм, неосемантизм кабилар (Косович О.В., 2015; 255). Неологизм термин бирикмаси ўрнида неотермин сўзини қўллаш лингвистик қонуниятлардан бири бўлган тежамкорлик тамойилига мувофиқ бўлади, шу билан бирга, неотермин сўзи талаффуз ва ёзилиш жиҳатдан ҳам қулайлик касб этади. Доимий ўзгариш, янгиланиш ва эскириш ҳолатини намоён қилиб келаётган педагогик терминологиядаги янги тушунча ва терминлар таҳлилини бугунги ўзбек педагогикасидаги айрим янги тушунчаларни ифодаловчи махсус бирликлар – неотерминлар мисолида амалга оширишга ҳаракат қиламиз.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Педагогиканинг марказий тушунчаси мақомидаги таълим олувчи ва унинг фаолиятини қўллаб-қувватлаш асосида таълим-тарбиянинг самарадорлигини кучайтиришнинг бирламчи омили сифатида педагогик фасилитация қайд қилинмоқда, у янги таълим-тарбия жараёнининг сифат ва мазмун жиҳатдан такомиллашуви алоҳида мулоқот усули

сифатида қаралаётган педагогик фасилитация орқали таъминланиши кўзда тутилмоқда. Бу ҳолат эса ўзбек тилининг педагогик терминологиясида фасилитация, педагогик фасилитация, фасилитатор каби неотерминларнинг ҳам пайдо бўлишидан далолат беради. Бу терминларнинг янги термин деб баҳолаётганининг асосий омили педагогика соҳасининг илмий тармоқ сифатида ривожланиши билан боғлиқ. Фасилитация сўзи инглиз тилидан олинган бўлиб, *facilitate* – ёрдам бериш, енгиллаштириш, кучайтириш деган маъноларни англатади. Фасилитация – ўқувчига ижобий таъсир этиш йўли бўлиб, гуруҳда ижобий муҳитни ҳосил қилиш, таълим олувчининг ўз кучи ва имкониятига ишонишига эришиш ва мустақил фаолиятида шахсни қўллаб-қувватлашдир. Мана шундай мазмун-моҳиятга эга лингвистик бирлик замонавий ўзбек педагогикаси нуктаи назаридан неотермин мақомига эга саналиши лозим.

Маълумки, ижтимоий шахсга муносабат масаласига ҳар бир фан, соҳа, хусусан, физиология, экология, психология, тиббиёт, педагогика каби алоҳида фанлар ўз нуктаи назаридан ёндашади. Инсон шахси ва унинг таълими масаласини яхлитликда қараш, таълим-тарбия жараёнига интеграцияланган билимлар асосида ёндашиш тақозоси билан юзага келган педагогик антропология XXI аср бошларига келиб тўла асосини топди. Педагогикага антропологик ёндашув ғояси дастлаб Я.А.Каменский томонидан кун тартибига қўйилган бўлса, соҳанинг масалалари талқини А.Ф. Чемберлен, С.Холл, С.И.Гессен, Л.В.Занков, В.В. Давидов кабиларнинг тадқиқотларида ўз аксини топди, уларнинг илмий изланишлари соҳанинг ривожига муносиб ҳисса қўшдилар. Педагогик антропология таълим тушунчаси марказида инсон шахсини қайд қилувчи, тарбиявий тузилишни англашга ёрдамлашувчи фалсафий тарбия захираси, инсон шахсини ўрганувчи методологияга асосланган педагогик қарашлар тизими сифатида тавсифланади.

Тадқиқот методологияси. Асосий мазмун-моҳиятини инсон шахсининг шаклланиши ва бу жараёнинг кечиши шарт-шароитлари масаласи ташкил қилувчи педагогик антропология учун биринчи даражали масала шахс ва унинг таълими муштараклиги ҳисобланади. Таълим фаолиятини инсон шахсига йўналтиришни ўз олдига асосий мақсад сифатида танлаган педагогик антропологиянинг асосий тушунча ва ёндашувлари натижасида педагогик терминологияда, хусусан, ўзбек педагогикаси терминлари тизимида ҳам янги, замонавий терминлар пайдо бўлганлигини кузатишимиз мумкин.

Педагогик антропология тушунчаси антропологик педагогика шаклидаги термин сифатида қайд қилинган, моҳиятан битта тушунча билан боғланган икки шаклдаги термин (педагогик антропология, антропология педагогика) ўзбек тили педагогик терминологиясида неотермин сифатида баҳолаётгани лозим. Бу термин асосидаги тушунча педагогик энциклопедик лугатда қуйидагича тавсифланади: “Антропологик педагогика (юнонча *antropos* – одам, *logos* – таълимот ва *paidagogike* – бола етакловчи сўзларидан) – бола шахсини барча педагогик юмушлар учун бош кадрят деб санайдиган, барча педагогик таъсир воситалари тарбияланувчиларнинг эҳтиёж ҳамда истакларига мувофиқ бўлиши керак деб ҳисоблайдиган илмий ва амалий қарашлар тизими. А.п.да таълим ва тарбияга доир тадбирлар мажмуаси ўз ҳолича мавжуд бўлмастлиги, улар бола шахсиятининг истак ва эҳтиёжларига мослаштирилиши керак деган қараш илгари сурилади” (Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. Қомус., 2014; 55). Изоҳдан маълум бўладики,

антропологик педагогика термини маъно жиҳати соҳа нуктаи назаридаги тушунча мазмунига асосланган. Ана шу терминологик маъно асосида фалсафий антропология термини нисбатан гипоним бўлган педагогик антропология термини биологик антропология, маданий антропология кабилар билан тенг қийматли зиддиятда бўлган неотерминдир.

Ўзбек тили педагогикаси терминологиясидаги неотерминлардан яна бири сифатида педагогик конфликт терминини ҳам алоҳида қайд этиб ўтиш лозим. Ушбу термин ўзбек тилининг махсус лугатларида педагогик термин сифатида ўзининг лексикографик тавсифига эга эмас. “Педагогик конфликтология” номли ўқув қўлланмада ушбу термин қуйидагича изоҳланади: “Педагогик конфликт – таълим тизимида педагогик конфликтларнинг вужудга келиш сабаблари ва табиатини ўрганадиган, уларни бартараф этиш усуллари ва амалий тавсияларни ишлаб чиқадиган назарий-амалий йўналиш” (Ахмедова М., 2016; 20). Тушунча сифатидаги тавсифдан маълум бўладики, бевосита таълим-тарбия тизими ва жараёни билан боғлиқ муаммоли, зиддиятли ҳолат, вазият тушунчасини ифодаловчи бирикма шаклида ушбу термин ўзбек тилининг педагогик терминологиясида неотерминлик хусусиятига эга ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар. Таълим-тарбия жараёни ва соҳа тушунчалари билан узвий алоқадорлик касб этувчи қуйидаги терминологик бирликлар тишунослик нуктаи назаридан неотермин деб баҳолаётгани ва тавсифланиши лозим. Жумладан, педагогик фасилитация, фасилитатор, педагогик антропология, педагогик конфликтология, модератор, тьютор, ментор, менежр, мультимедиа, электрон таълим ресурси, электрон дарслик, кредит-модул, компетенция, коммуникатив компетенция, нутқий компетенция, касбий компетенция, кейслар банки, кейс-стади технологияси, Блум таксономияси, модулли таълим технологияси, “Бумеранг” технологияси, жорий назорат, оралик назорат, креативлик, мотивация, инновацион ёндашув, интерфаол усул, педагогик таксономия, когнитив таълим, интенсив таълим, инновацион вазият, ҳамкорликда ўқитиш каби юзлаб терминлар замонавий ўзбек педагогикасининг янги тушунча ва ҳодисаларини ифодалашга хизмат қилмоқда. Ушбу терминлар сирасида ўз қатламга оид бирликлар билан бирга ўзга тилдан ўзлашган терминологик бирликларни ҳам кузатиш мумкин. Бу терминларнинг ҳар бири ўзига хос семантик таркибга эга бўлиб, соҳа терминологиясининг замонийлик, даврийлик нуктаи назаридан янги, неотермин мақомини эгаллаши шубҳасиз. Zero, қайд қилинган соҳа терминлари ўзбек педагогикасининг таълим жараёнидаги янги ёндашувларнинг натижаси ўлароқ юзага келган тушунчаларини ифодалашга хизмат қилмоқда. Бу каби янги терминларнинг шаклланиш, пайдо бўлиш омили асосан шахс таълимига нисбатан янги ёндашув ва муносабатлар билан бевосита боғлиқлик касб этади. Янги терминлар, бир томондан, соҳанинг ривожини намоён қилса, бошқа томондан, соҳа терминологиясининг такомиллашувидан далолат беради. Бу эса соҳа терминологияси таркибининг мунтазам ва изчил равишда тадқиқ қилиб борилиш заруратини кўрсатади.

Ўзбек тили педагогик терминологиясидаги бирликларни замонийлик аспектида текшириш, уларни фаол ва нофаол термин, архаик термин ва неотермин каби гуруҳларга ажратиб таҳлил ва тавсифини амалга ошириш соҳа терминологияси олдидан турган муҳим вазифалардан биридир. Шунингдек, соҳа терминологиясининг неотерминларини семантик, этимологик, генетик аспектда текшириш, лисоний-соҳавий маъноларини тавсифлаш, структур моделларини аниқлаш кабилар ҳам соҳа

терминологияси масалалари тадқиқи доирасига тегишлилик касб этади.

Хулоса ва таклифлар. Замонавий ўзбек педагогикасининг терминологик тизимида “олам”, “хаёт”, “глобаллашув”, “мафкуравий иммунитет”, “мавжудлик”, “қалб”, “рух”, “хаёт мазмуни” каби тушунчалар билан боғлиқ янгича ёндашув маҳсули бўлган янги терминлар миқдори турли ҳодиса ва омиллар таъсирида кун сайин ортиб бормоқда. Таълим-тарбия тушунчалари доирасидаги педагогик терминлар, биринчи навбатда, соҳа ёндашуви нуқтаи назаридан, илмий категориялар асосида тўғри ва объектив тарзда тавсифланиши, лексикографик талқинларида муҳим, бирламчи белги-хусусиятларига асосий урғу берилиши лозим. Бундай ёндашув, ўз ўрнида, педагогика соҳаси ва таълим-тарбия жараёнининг объектив англаниши, соҳанинг

ривожланиши ҳамда оммаланиши борасида муҳим ижтимоий аҳамият касб этади. Шунингдек, соҳага оид терминология тавсифида педагогика фанига оид билим, ёндашув ва тамойилларнинг тўла акс этиши таъминланиши мақсадга мувофиқ. Педагогик терминларнинг миллий терминология тамойил ва талаблари даражасида талқин қилиниши, тартибга солиниши педагогик луғат ва энциклопедиялар талқини билан бевосита боғлиқ. Шунга қўра, ўзбек тили педагогик терминологиясидаги неотерминларни аниқлаш, семантик структурасини таҳлил қилиш, уларнинг терминологик тавсифи ва шарҳларини такомиллаштириш, шулар асосида педагогик неотерминлар изоҳли онлайн луғатини яратиш ўзбек терминологиясининг долзарб вазифаси ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Аҳмедова М. Педагогик конфликтология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2016. – 319 б.
2. Зиёмухаммадов Б. Педагогика: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2006. – 112 б.
3. Косович О.В. Неологизм и неоним. Терминологический инструментарий неологии//Вестник Брянского государственного университета. – 2015. – №1. – С. 255.
4. Попова Т.В. Русская неология и неография. – Екатеринбург: ГОУ ВПО УГТУ-УПИ, 2005. – 96 с.
5. Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. Қомус. – Тошкент, 2014. – 450 б.